

Journal of New Century Innovations

VOLUME

14

ISSUE-4



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



Google
Scholar



newjournal.org



**JOURNAL OF NEW CENTURY
INNOVATIONS**

VOLUME -14 | ISSUE -4

OCTOBER - 2022



**O'ZBEKISTONDA YANGILANISH JARAYONLARINING
O'ZIGA XOSLIGI**

Doniyorova Gulbahor Bobir qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, yangilanishlar hamda modernizatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalarida muhim ahamiyatga molik masalalardan biri ekanligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, innovatsion jarayon, yangilanish, islohot, harakatlar strategiyasi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbekistonda keng ko'lamli modernizatsiya islohotlarini amalga oshirish imkoniyati davlat mustaqilligi e'lon qilinish, ijtimoiy jihatdan bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish yo'li tanlab olinganidan keyin vujudga keldi. Aytish zarurki, xorijiy mamlakatlarning hozirgi zamon demokratik fuqarolik jamiyatiga o'tish borasidagi ijobiy tajribasidan foydalanish bilan bir vaqtda milliy o'ziga xoslikka tayanish mustaqillikning dastlabki kunlarida bo'lgani kabi, hozirda ham yurtimizda amalga ashirilayotgan modernizatsiya jarayonining muhim belgilaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi

uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida: Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Unga ko'ra:

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga

oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

O'zbekistonning jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish sohasidagi tajribasi o'ziga xos va betakror bo'lib, "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" prinsipini amalga oshirishda o'z ifodasini topmoqda.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat" tushunchasi "O'zbek modeli" tushunchasi orqali o'zining yanada boy va konkret mazmuniga ega bo'ldi, aniqrog'i "demokratiya mamlakatimiz miqyosida nazariyadan amaliyotga yoki mavhumlikdan "O'zbek modeli"ga aylandi". Uning ijtimoiy-falsafiy tahlilida nazariya va amaliyot birligi qonuni yotadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirish g'oyasi asosida yaratilgan taraqqiyotning o'zbek modelida jahon hamjamiyati amaliy tajribasiga ham tayaniladi. Bunda mavjud ijtimoiy tartiblar va nazariy loyihalar o'rtasidagi integratsiya qonuni namoyon bo'ladi.

Taraqqiyotning o'zbek modelida shunday g'oya yotadiki, shakllanayotgan [demokratik jamiyatda](#), avvalo, siyosiy tizim va uning elementlari tubdan tadrijiy o'zgarib, takomillashib boradi. O'zbekiston fuqarolari amalga qonunchilik asosida xalq hokimiyatini boshqarishda bevosita yoki bilvosita faol ishtirok etadi va "keng xalq ommasi davlat uchun" degan shior ostida emas, balki "demokratik davlat xalq uchun xizmat qiladi" degan tamoyilning ustuvorligi asosida ijtimoiy boshqaruv amalga oshiriladi.

O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash (yangilash)da quyidagi shart-sharoitlarni yaratish muhim vazifa sifatida belgilandi:

Birinchi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonunlarga so'zsiz itoat etishi;

Ikkinchi: boy milliy-ma'naviy merosimizga tayanish;

Uchinchi, jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish;

To'rtinchi, kishilarning erkinligi va manfaatlarini himoya qilish;

Beshinchi, demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida nodavlat, notijorat tashkilotlarning, jamoat birlashmalarining rolini oshirib borish;

Oltinchidan, demokratik jamiyat barpo etishda mahalla ijtimoiy institutining rolini oshirib borish;

Yettinchidan, demokratik jamiyat shakllanishi jarayonida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash va adolat tamoyilining qaror topishi.

Ma'lumki, demokratik jamiyatga o'tish har doim ham silliq kechavermaydi. Chunki demokratik jamiyatga o'tishda siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi iste'molda bo'lgan boshqaruv mexanizmlari barham topib, ularning o'rniga shakllanayotgan demokratik jamiyat fuqarolarining manfaatlari, huquqi va erkinligiga mos keladigan, ularni to'la-to'kis ta'minlay oladigan taraqqiyotning o'zbek modeliga asoslangan kuchli ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar shakllantirib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.
2. Qushbashov K.B – O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (o'quv uslubiy qo'llanma).
3. R.Valijonov, O.Qobulov, A.Ergashev "Menejment asoslari" Toshkent-2010
4. Zaynutdinov SH.N. va boshqalar. "Menejment asoslari". – T.: O'qituvchi,2003.
5. w.w.w. ziyonet.uz.

O'ZBEKISTONGA RAQAMLI BANKLARNING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tilabova K.

TDIU Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgan jarayon – iqtisodiyotning raqamli bosqichga o'tishi sharoitlarida O'zbekistonga raqamli banklarning kirib kelishi, bank xizmatlarida raqamli va oddiy tizimlarning farqlari hamda ularning kelgusida rivojlanish istiqbollari qanday yo'lga qo'yilganligi haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: raqamli bank, elektron muomala, mobil aloqa, internet, neobank, tijorat banki, chakana bank, an'anaviy bank, online kredit, fintech texnologiyasi.

Abstract

In this article, the process that is one of the main trends in the socio-economic development of the country - the entry of digital banks into Uzbekistan in the conditions of the transition of the economy to the digital stage, the differences between digital and ordinary systems in banking services and their future development prospects. will be discussed.

Keywords: digital bank, electronic transaction, mobile communication, internet, neobank, commercial bank, retail bank, traditional bank, online credit, fintech technology.

Kirish

Insoniyat har kuni turli xildagi ma'lumotlarni ko'p miqdorda qabul qila oladi. Bu esa ko'p jihatdan mobil telefonlar, internet, smartfonlarning texnik imkoniyatlarining tobora ortib borayotganligi, odamlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb etilishi keski oshgani va internet tezligining o'sib borayotgani bilan bog'liq.

Jahon moliya tizimida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yanada rivojlantirishda yangicha yondashuv va prinsiplar qo'llanilishini taqozo qilmoqda.¹


Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, huquqat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son Farmonidan

Shuningdek, so'nggi 20 yil ichida texnologiya butun dunyoda bank sohasiga ham tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada o'zgarishlarni olib kirdi. Internet va mobil aloqa butun dunyodagi odamlar va tashkilotlarni bog'laydigan eng chekka burchaklarga etib keldi. Bu esa mijozlarning uzoq navbatlardagi kutishlarini va tashkilotlarning ishlash prinsiplarini o'zgartirdi. Mobil aloqa va tegishli infratuzilmalar yordamida esa fintech² texnologiyasi(moliyaviy texnologiyalar) bank sektoriga kirib, xaridorlarga qulay bo'lgan turli xil mahsulotlarni ishga tushirdi.

Ohirgi yillarda dunyo hamjamiyatida kuzatilgan pandemiya bozor iqtisodiyotida pul oldi-berdi operatsiyalarining keskin o'zgarishiga turtki bo'ldi. Bunda banklar o'z mijozlarini saqlab qolish va zarar ko'rmasliklari uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini raqamlashtirishni taqazo qildi. Bu raqamli bankning boshlanishi bo'lgan avtomatlashtirilgan bankomatlariga bo'lgan talabni oshishiga olib keldi. Keyingi bosqich mijozlarning uzoq navbatdalarda kutish jarayonini isloh qilishni talab qila boshladi. Bu banklarni yaxshiroq innovatsiyalar, mahsulotlar va xizmat turlari bilan chiqishga undadi. Bugungi kunda, mijozlar bank xodimlarini jalb qilmasdan, o'z xohishlariga ko'ra, har qanday vaqtda bank muassasalari xizmatlaridan foydalana oladi. Raqamli bank bilan barcha yozuvlar raqamli shaklda saqlanadi, ma'lumotlar analitik usullarni qo'llash orqali foydali ma'lumotlarga talqin qilinadi, mijozlar bilan yaxshi aloqa o'rnatiladi va mijozlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish natijasida ko'proq biznes paydo bo'ladi. Bularning barchasi ish samaradorligini oshirish va bankning daromadini yaxshilashga olib keladi. O'zbekistonda naqd pulsiz iqtisodiyot haqidagi tasavvurni butun mamlakat bo'ylab kengroq yoyish, aholi raqamli savodxonligini oshirish hamda masofaviy Internetga ulanish orqali tezlashdi, chunki Internet -banking Covid 19 tufayli hozirgi zamon talabidir.

1-rasm



O'zbekistonda ana'naviy bank xizmatlarini 10 ballik shkalada baholash uchun o'tkazilgan so'rovnoma³

² **Moliyaviy texnologiya (Fintech)** - bu moliyaviy xizmatlarni etkazib berish va ulardan foydalanishni takomillashtirish va avtomatlashtirishga mo'ljallangan yangi texnologiyani tasvirlash uchun ishlatiladigan atama bo'lib bugungi kunda ta'lim, chakana bank, mablag 'yig'ish va notijorat va investitsiyalarni boshqarish kabi turli sohalar va sohalarni qamrab oladi.

³ Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma

Yuqoridagi o'tkazilgan so'rovnomaga shuni ko'rsatadiki, aholi o'rtasida ana'naviy bank xizmatlaridan foydalanish jarayonidagi mavjud muammolar haligacha o'z yechimini topmayotganligi, tizim ma'lum darajada o'zgarish va yengilliklar kiritilishni talab qilmoqda. Mavjud muammolarni o'rganganimizda, uzoq navbatlarda turish, xizmatlarning kechikishi, pul bilan bo'layotgan operatsiyalarda shaxsning to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishi, banklarning xizmat xizmat ko'rsatish vaqtini chegaralangili, markaziy shaharlardan uzoqda joylashgan hududlardagi aholi uchun xizmatlardan foydalanish uchun shaxobchalar yoki bank filiallarining mavjud emasligi ko'zga ko'rinarli darajada aholiga qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli bank bu - tarmoqlari bo'lmagan, faoliyati elektron muomalaga asoslangan bank. Birinchi marta "raqamli bank" yoki "neobank" atamasi Kris Skinnerning 2014 yilda AQShda nashr etilgan "Raqamli bank" kitobida batafsil bayon qilingan. 1989-yil Buyuk Britaniyada joylashgan First Direct banki mijozlarga ilk bora telefon orqali xizmat ko'rsata boshladi va Qiziqarli fakt shundaki, birinchi kunida 1000 ta qo'ng'iroq qabul qilingan. 2015-2020 yillar davomida Yevropa mamlakatlarida "raqamli bank" tushunchasi jadal rivojlandi. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulay va foydali xizmatlarni taqdim etish uchun zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanish prinsiplariga o'tishdi.

Yaqin yillarni ushbu tushuncha bilan birgalikda raqamli banklar O'zbekistonga ham kirib kela boshladi. O'zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi Markaziy bankning "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom" loyihasida e'lon qilindi va qonunchilikka raqamli bank atamasi kirib keldi.

Unga ko'ra, raqamli bank – innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda(kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bank ichki tartib qodilariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.⁴

Raqamli bankni ro'yxatga olish tartibi an'anaviy banklarniki kabi bo'ladi. Mazkur tizim mijozlarga masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, vaqt, masofa va ortiqcha sarf-xarajatlarni tejash imkonini beradi. Mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirish aqlli bank imkoniyatlaridan foydalaniladi. Ko'p kanalli strategiya orqali mahalliy mobil ilovalar, veb-ilovalar, filiallardan suhbatlar banki va taqiladigan qurilmalar kabi ilg'or interfeyslarga qadar mijozlarning yanada kuchli aloqasi va sodiqligi ta'minlanadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom" loyihasining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida nizom"ning birinchi bandi uchinchi xat boshidan olindi.

Shuni tan olishimiz kerakki, bir necha yillar avval moliya tizimida pul-kredit siyosatini yuritish va banklarni tartibga solishdagi imkoniyatlar amalda to'laqonli foydalanilmayotgandi. Shuningdek, pul-kredit instrumentlarining lozim darajada ishlashi va samaradorligini ta'minlovchi transmission mexanizmlarning rivojlanmaganligi qo'yilgan maqsadlarga erishishni bir muncha qiyinlashtirayotgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bir qator tijorat banklarining boshqaruv va risk-menejmenti sifatiga ta'sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi hamda banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi kuzatishimiz mumkin, ayniqsa, banklar tomonidan o'z faoliyatiga xos bo'lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta'sirchan amalga oshirishni anchagina qiyinlashtirayotgan edi.

Prezidentning 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296 sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatildi. Shundan kelib chiqib, 2020 yilda Anorbank va TBC Bank O'zbekistonda raqamli bank sifatida ro'yxatdan o'tkazildi. Bu o'z navbatida O'zbekistonda bank xizmat ko'rsatish tizimidagi kamchiliklarning to'g'irlanishi va o'z navbatida pul-kredit almashinuv jarayonining raqamlashuviga hamda samaradorligining oshishiga turtki bo'ldi. Ushbu farmonda belgilab qo'yilgan bir qator chora-tadbirlar raqamli banklar istiqboli uchun asos bo'la oldi desak adashmagan bo'lamiz. Unga ko'ra, to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish uchun to'siqlarni bartaraf etish va sharoit yaratish, shu jumladan chakana xizmatlarga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish, innovatsion bank texnologiyalaridan faol foydalangan holda masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida tanqidiy qayta ko'rib chiqilishi bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.⁵

Bu islohatlar esa o'z navbatida O'zbekistonda raqamli banklarning sonini ortishi, bank xizmatlarida sifat ko'rsatkichlarning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bunga yaqqol misol qilib, mamlakatimizda yaqin yillarda tashkil etilgan va aholiga xizmat


⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son Farmoni

ko'rsatayotgan bir qator raqamli banklarni misol qilishimiz mumkin. 2020-yilda o'z ish faoliyatini boshlagan «ANOR BANK» AJ - tijorat raqamli bankini olishimiz mumkin. Ushbu yangi innovatsion tizimli bank, tashrif buyurmasdan mijozlar va ularning biznesi uchun bank xizmatlarini to'liq taqdim etadi. Raqamli banklar odamlarga hayotda ham, biznesda ham bir qadam oldinda bo'lish imkonini beradi.⁶

Bankning bir qator afzalliklari mavjud. Barcha xizmatlarni saytdan, «ANORBANK» mobil ilovasidan, yoki shunchaki sutkalik aloqa markaziga qo'ng'iroq qilib olish mumkin. Mamlakat aholisi yanada mobilroq bo'lib qoldi, raqamli texnologiyalardan foydalanishni va ko'pgina xizmatlarni masofadan va dunyoning istalgan nuqtasidan sutka davomida olishni afzal ko'radi. Shaharda bankning odatiy bo'limlari yo'q, lekin u mamlakat bo'ylab millionlab qurilmalar orqali millionlab insonlarga xizmat ko'rsata oladi. Bunda har bir mijozga nisbatan individual yondashuv saqlangan bo'lib, ma'lumotlarga ishlov berishda xavfsizlik to'laqonli kafolatlangan va har qanday so'rovga maksimal operativ tarzda javob beriladi.

2-rasm⁷

Siz qaysi xizmat turini afzalroq deb o'ylaysiz?



Yuqorida ko'rib turganingizdek bozor iqtisodiyotida ko'plab tarmoqlar va sohalarning raqamlashuvi ortib borsada, aholining ma'lum qismida zamonaviy xizmat turlarida ham ishonchsizlikni kuzatishimiz mumkinligini inobatga olinishi ham maqsadga muvofiqdir. Vaholanki bu jarayon mamlakat hududida raqamli banklar sonining ortishiga va iste'molchilar bank operatsiyalaridan foydalan jarayonini mobillashuvining ommalashishiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Bunga yechim sifatida esa aholi o'rtasida pul oldi-berdi jarayonlarini elektronlashtirish borasidagi bilim va tushunchalarini oshirish, tizimga bo'lgan ishonchsizlikni kamaytirishda raqamli xizmatlar sifatini yuqori darajalarga olib chiqishni taqazo qiladi.

⁶<https://anorbank.uz/>

⁷ Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma

Jismoniy shoxobchani raqamli bank bilan to'liq almashtirishga biroz vaqt kerak bo'ladi. Mijozlar qarz olish yoki uning shartlarini muhokama qilish kabi muhim qarorlar qabul qilishda odamlarning o'zaro ta'sirini afzal ko'rishadi. Biroq, raqamli bank xizmatlari takrorlanuvchi bank funktsiyalari uchun qulay ekanligini isbotlamoqda. Vaqt mijozlar va xizmatlar uchun hal qiluvchi omil bo'lib, raqamli bilimli mijoz har doim o'z vaqtida taqdim etiladigan moslashtirilgan va uzluksiz raqamli xizmatlarni qidiradi.

Ramanli banklar faoliyatida iste'molchilar quyidagi bir qator afzalliklarga ega bo'ladilar:

✓ hech qanday bo'linmalar va navbatlarsiz, barcha hisob-raqamlar orqali sutka davomida har qanday joyda, faqatgina smartfon va internetga kirish orqali hohlagan operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin;

✓ Amalga oshirilgan barcha to'lovlar tushunarli va mutlaqo shaffof bo'lib, operatsiyalarning to'liq tarixni va endilikdagi to'lovlarning jadvalini har doim mobil ilovadan ko'rish mumkin;

✓ yirik shaharlardan yiroqda yashayotgan yoki biznes yuritayotganlarga bankka borishning hojati qolmaydi. Bunda raqamli banklarning o'zi iste'molchining oldiga keladi;

✓ Raqamli tajribalar orqali kundalik bank faoliyatining murakkabligini olib tashlaydi va odamlarni moliyaviy hayotini nazorat qiladi;

✓ Bir kunda yigirma to'rt soat davomida bank funktsiyalaridan foydalanish imkoniyati;

✓ Qog'ozsiz bank;

✓ Bank xizmatlarini chekka hududlarga kengaytiradi;

✓ Raqamli fond o'tkazmalari yordamida qalbaki valyuta xavfini kamaytiradi;

✓ Mijozlar uchun maxfiylik va xavfsizlikni kuchaytiradi;

✓ Noto'g'ri joylashtirilgan kredit kartalari haqida xabar berish va darhol blokirovka qilish imkonini beradi;

✓ Qora pul muomalasini cheklaydi;

✓ Valyutaga bo'lgan talabni pasaytiradi;

Raqamli banklarning rivojlanish strategiyasining asosi - mijozga yo'naltirilganlikdir. Ya'ni bank faqat mijozlar uchun ortiqcha ovoragarchiliklarsiz xizmat ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda raqamli bank - an'anaviy bank xizmatlarini avtomatlashtirishdir. Bu - mijozlarni jalb qilish, rentabellikni oshirish va nazorat qilishning kalitidir. Banklardagi xizmat ko'rsatish mavjudligini Internet mavjudligi bilan almashtirish va mijozning filialga tashrif buyurish ehtiyojini yo'q qilish orqali bank faoliyatini yanada takomillashtirishadi. Raqamli bank mijozlarga turli xil xavfsiz

raqamli kanallar orqali operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi, shu bilan birga bank ma'lumotlar xavfsizligi bilan ustunlik qiladi. Bunda onlayn va mobil bank xizmatlarini analitik, ijtimoiy media, innovatsion to'lov yechimlari va mobil texnologiyalar kabi eng yangi raqamli texnologiyalar bilan birlashtirish, mijozlar kutganidek qulaylik ortishiga oshib ketadi.

Foydalanilgan axborot resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296 sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. <https://depozit.uz/ru/news/ozbekistondagi-raqamli-banklar-va-ularning-istiqbollari>
3. <https://anorbank.uz/>
4. <https://hamkorbank.uz/uz/press-center/news/hamkorbank-eng-yaxshi-raqamli-bank/>
5. <https://www.forbes.com/advisor/banking/what-is-digital-banking/>
6. <http://futurebanking.ru>
7. <https://tbcbank.uz/uz/>
8. <https://uz.itpedia.nl/2018/05/22/wat-is-fintech/>

LINGUISTIC FEATURES OF ADDRESSING IN ENGLISH AND UZBEK

*Almamatova Manzura Shavkatovna - independent researcher,
Republic of Uzbekistan, Syrdarya, Gulistan*

Annotation: In the article, on the material of the Uzbek and English languages, motivational statements are considered, expressing the forms of addressing familiarity and vernacular.

Keywords: language, expression, motivation, statement, communication, mentality, national specificity.

In world linguistics, the scientific attitude to the forms of address was formed on the basis of different points of view in different periods. Basically, from the middle of the XX century. This direction in linguistics is rapidly improving. The issue of studying the communicative-pragmatic aspects of forms of address with different and often contradictory interpretations was addressed in the largest linguistic centers of the world. When studying forms of address in different aspects, many aspects related to sociolinguistics, pragmalinguistics, cultural linguistics, psycholinguistics, stylistics, rhetoric and other sciences are intertwined. Currently, the theoretical work carried out in this area serves as the basis for a comprehensive study of the forms of circulation.

An appeal in linguistic literature is understood as “the name of a real or proposed addressee of speech, organized according to the laws of a given language, used in speech communication in order to attract the attention of the person to whom the speech is directed, to cause him a certain reaction to a subsequent or subsequent message, or to force him to commit actions dictated by a conversational situation”.

Address is an integral part of speech etiquette, which in turn is one of the linguocultural units and can act as a linguocultural unit. Typical turns of speech etiquette are a kind of linguistic fund that regulates social and personal relationships between native speakers of a given language. In a broad sense, speech etiquette is understood as the forms of normative speech behavior in society between representatives of the same ethnic group, as well as a set of typical statements enshrined in linguistic and national-cultural traditions in a linguistic community for use in specific socially and culturally determined communicative situations.

Speech etiquette in a broad sense is associated with the general problems of linguistic pragmatics and is considered in the mainstream of pragmalinguistic studies. The act of linguistic communication is considered by pragmatics from the point of view of achieving certain goals by the communication participants.

As already noted, the forms of address adopted in various situations are one of the forms of speech etiquette, which reveals itself in different ways also depending on the topic, place, time, motive and purpose of communication. So, for example, the rules of verbal communication may differ depending on whether the topic of communication is sad or joyful events for the participants in the communication; there are specific etiquette rules associated with the place of communication (feast, public place, production meeting), etc.

The appeals, in most cases, are distinguished by the simplicity of the syntactic structure - these are one-word appeals containing the name of the addressee of the speech - a personal name, a stylistically neutral or stylistically marked appellative (common noun). So, the speaker, in pursuit of the goal of establishing contact with the interlocutor, to attract or maintain his attention to the conversation, depending on the conversational situation, can address the interlocutor, calling him by his last name, by profession, by position or rank, by belonging to an age group, or any community of people. In such conditions of communication, from a stylistically neutral address, it is required to distinguish the addressee from among other communicants. With the complication of the communicative task facing the address in the dialogue, and with the increase in its stylistic load, in most cases the syntactic structure of the address also changes. So, if the address is used to convey the speaker's subjective attitude to the addressee of speech or the evaluative characteristics of the addressee, then it, as a rule, has a widespread syntactic structure, that is, it acts as a phrase.

Stylistic significance, as noted in the literature, has two main characteristics, qualitative and quantitative. Qualitative determines its orientation, namely, positive or negative orientation. A quantitative characteristic is intensity, in other words, the degree of manifestation of stylistic meaning.

So, the analysis of the material showed that the type or combination of types of stylistic meaning can serve as a criterion for distinguishing between three subgroups within the considered group of references:

- units with emotional meaning;
- estimated units;
- units with expressive-figurative meaning.

Stylistic differences in the use of units of the address system are also largely determined by the belonging of speech to different functional styles. Virtually every functional style has its own rules. For example, business speech is distinguished by a high degree of formality: the participants in communication, persons are addressed by their full official names. In scientific speech, a rather complex system of etiquette requirements is adopted that determine the order of presentation, references to predecessors and objections to opponents (We-forms (We) undoubtedly belong to the

somewhat archaic manifestations of scientific speech etiquette: As we underlined, As we think ... - in that number on behalf of one author). In addition, specific forms of appeal may correspond to different functional styles (for example, Colleague, Ladies and Gentlemen, Dear audience).

As noted, the most polite forms of address are Mr., Mrs. or Miss + the surname of the one to whom the address words are addressed. These appeals are best known to both native English speakers and native speakers of other languages learning English. However, the analysis of the linguistic material showed that despite the fact that these forms of address have mainly a positive emotional-evaluative meaning, they can also acquire a negative emotional-evaluative meaning. Inappropriate use of these address words in some cases can be perceived extremely negatively and cause negative reactions from the addressees:

"Well, do you want me to move out, Mr. Haws?" Amos Ratcliffe said.

"Mr. Haws, chicken shit!" he roared at the boy.

"Don't you talk up smart to me, you little snot. You'll call me Daniel or you'll call me nothing" (J. Purdy. Eustace Chisholm and the Works).

Considering that English is an analytical language, and the Uzbek language is included in the group of agglutinative languages, it can be concluded that in the Uzbek language this part of the word - suffixes - is used more often than in English.

Our research has shown that in the Uzbek language the plural II suffix -siz, the common question suffix -mi, the negative -may suffix, the -chi suffix make speech more polite and help the rhetorician to influence his listener ("Oynani ochib yuborolmai + siz + mi? ", " Aiting-chi, biz bilan bora olasizmi? "). In English, interrogative sentences often use the particle not and the modal verbs can, will, could before the subject ("Can you open the window, please?") Instead of suffixes.

From the point of view of etiquette, the rhetorician, referring to his listener by name, adds to the name the suffixes -jon (Botir + jon, Fattox + jon), -khon (Saida + Khon, Lobar + Khon), -bek (Odil + Bek, Rustam + bek) and other words of the related meaning aka (aka + jon), opa (opa + jon), uka (uka + jon), suffixes I of the person unit. numbers (Botir + jon uka + m, Sayyora + hon single + im). These suffixes make speech more polite and respectful. Unlike the Uzbek language, the words sir, Mr., madam, etc. are added in English, some of which are used before their own names as an appendix (Mr. Brown, Mrs. Smith), while words of a related meaning are not used. Instead of suffixes I, faces sing. numbers, it is customary to add the possessive pronoun I person singular. numbers (my dear, my friend).

Pronoun II person singular II person singular singular sen in the Uzbek language means some impoliteness on the part of the rhetor when addressing his listener, therefore this part of speech is often not used when addressing. Here it is appropriate to recall the words of N. I. Formanovskaya that the use of the second person plural

pronoun to the listener in many languages serves as an expression of respect for the interlocutor. In English, the personal pronoun of the second person singular (you) is homonymous with the second person plural, so the pragmatics of politeness in this case is neutralized. Thus, the English language lacks this means of expression .

Thus, we see that the addressee perceives the addresses sir, mister, madam in different ways: it flatters some, on the contrary, it causes discontent in others. The rejection of these appeals occurs for various reasons: some are offended by the hint of old age, others are embarrassed by the respect implied in this appeal, and others see it as a mockery. Naturally, all these examples relate to situations that go beyond the normal, conventional cases of using the sir, mister, madam calls mentioned above.

The pragmatic content of a word correlates with the pragmatic component of its semantic structure (system level) and with pragmatic meaning (speech level). The communicative-pragmatic situation as a whole or its individual parameters is considered as the object of designating the pragmatic component.

Researchers describe a whole range of communicative functions of calls. According to their communicative function, addresses:

- contribute to the establishment of contact between interlocutors;
- attract the attention of the listener (reader), distinguish him from other potential interlocutors;
- perform the function of nomination;
- allow you to show respect or disrespect;
- contribute to the determination of the status of ongoing communication (friendly, business, official, etc.);
- forms an emotional environment for communication and has a positive or negative impact on the listener.

World linguistics has now reached a great progress in the direction of pragmalinguistics , which studies the language in relation to such factors as the speech situation and context, general knowledge of native speakers about the outside world, language skills, speech competence. Today, when the forms of address reach the scientific and theoretical perfect level, the study of the problem in the communicative and pragmatic aspect is of great importance. A comparative study of the communicative and pragmatic features of the culture of speech and forms of address based on different languages and the influence of the historical development of the language on them is one of the directions in the study of the social functions of the language.

The address's lexical content, which determines its semantic content, is likewise diverse. Conventional and one-time addresses are also acceptable. Conventional addresses are linguistic units, whereas occasional addresses are linguistic units. We

might think of common addresses as units of language and speech that receive an increment of meanings to an invariant meaning in a certain speech act. The address is also ambiguous, at least in terms of functionality. Because the address is used in a wide range of speech circumstances, it cannot be viewed just as a grammatical structure element. The systemic-structural approach does not properly take into account the social “addressee factor”, which determines the specifics of the most numerous semantic, stylistic, and communicative-pragmatic group of addresses - address to a person (interlocutor). It is quite obvious that the semantic richness and variety of functions of addressing a person to a person is not limited to the name of the addressee and attracting his attention. There is a need to study addresses in the communicative and pragmatic aspect. Having analyzed the use of addresses in the lyric works of M. Tsvetaeva, we came to the following conclusions. M. Tsvetaeva uses addresses at the beginning of apoetic line. The poetess uses addresses less often at the end of the sentence. However, the poetess employs exclamation sentences with imperative verbs for the majority of the addresses, giving the poet's words a call-like quality. M. Tsvetaeva might convey a special attitude to the fundamental image of the poem, feelings, dread, and the width of emotions by using a homogeneous succession of references with a certain gradation in meaning at the conclusion of phrases. M. Tsvetaeva frequently employs attractiveness as a trigger. The use of exclamation addresses, rhetorical addresses, and repeats is a recurring theme in her work. Addresses in English and Uzbek form complicated systems of components that are shaped by national and cultural aspects of speech behavior. Addresses in English and Uzbek are distinct sentences that perform significant communicative roles in speech and manifest the characteristics of the speaker's speech in line with a certain communicative objective (in conjunction with other sentences).

THE LIST OF USED LITERATURE

1. Mirziyoyev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be in the activities of each leader / Report at an expanded meeting of the Cabinet of Ministers dedicated to the results of the country's socio-economic development in 2016 and the most important priority area of the economic program for 2017 // Sh.M. Mirziyoyev. – Tashkent: Uzbekistan, 2017. – S. 94-104.
2. Amosova, NN Fundamentals of English phraseology. 3rd ed. M.: Editorial URSS, 2013. p. 180.
3. Arsentieva, EF Comparative analysis of phraseological units. Kazan: 2014, p. 130.
4. Arutyunova N.D. The proposal and its meaning. Logical-semantic problems. – M., 1976. – P. 356.
5. Arutyunova N.D. Nomination and text (Nomination - appeal) // Language nomination. Types of nominations. – M., 1977. – P. 564.
6. Babaytseva V.V. Russian language. Syntax and punctuation. – M., 1979. – P. 188.
7. Babaytseva V.V., Maksimov L.Yu. Syntax. Punctuation. – M., 1981. – P. 113.
8. Bagna Ibrahim. Types and functions of the Russian address as the name of the addressee in different types of literature: AKD. – M., 2004. – P. 3, 6.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

Muxammadiyeva Nilufar Sheraliyevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-psixologlarida ijodkorlik, noodatiylik sifatlarini shakllantirishning texnologiyasi haqida fikir yuritilgan bo'lib, bo'lajak soha mutaxassislarining pedagogik jarayonda namayon bo'luvchi kreativlik darajasi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, kreativlik, ijod, ijodiy xayol, ijodiyot, ijodiy tafakkur, islohat, his-tuyg'u, muomila madaniyati.

Аннотация. В статье рассматривается технология формирования креативности и необычных качеств у учащихся будущих дошкольных образовательных организаций, а также обосновывается уровень креативности будущих специалистов в педагогическом процессе.

Ключевые слова: педагогический процесс, креативность, творчество, творческое воображение, креативность, творческое мышление, реформа, эмоция, культура взаимодействия.

Annotation:

The article discusses the technology of formation of creativity and unusual qualities in students of future preschool educational organizations, and the level of creativity of future specialists in the pedagogical process is justified.

Key words: pedagogical process, creativity, creation, creative imagination, creativity, creative thinking, reform, emotion, culture of interaction.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi pedagog-psixologlarida kreativlikni shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lajak pedagog-psixologlarida kreativ sifatlarni shakllantirishdan iborat ekan, bu jarayonni to'g'ri tashkil etish va bu jarayonda ta'lim-tarbiya birligiga erishish muhimdir.

Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish va uni shaxsga yo'naltirish g'oyalarining ustuvorligi bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi.

Tub ta'limiy islohotlar amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ta'lim jarayoni o'zaro hamkorlikka asoslanadi va o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning samarali bo'lishiga bir qator omillar sezilarli ta'sir etadi, shu sababli sub'ektiv va

ob'ektiv omillardan maqsadga muvofiq foydalanish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish talab etiladi.

Shu o'rinda pedagogik jarayonning o'zi qanday bo'ladi, degan muammo paydo bo'ladi. Ma'lumki, "pedagogik jarayon" tushunchasi P.F.Kaptarev tomonidan iste'molga kiritilib, u – bo'lajak pedagog-psixologlarini o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish, shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat mohiyatini ifodalaydi. Muallif "pedagogik jarayon" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik jarayon asosan ikkita harakatli xususiyatni: organizmning o'z-o'zini rivojlantirishga tizimli yondashuvini va shaxsni har tomonlama rivojlantirishni o'z ichiga oladi" Pedagogik jarayonning o'zi ijodiy xususiyat kasb etib bu quyidagilarda ko'rinadi:

1. Ta'lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o'zaro munosabatlar uslubi talabaga barcha insoniy xislatlarni o'zlashtirish, o'zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

2. Pedagogik jarayon o'zgalarning his-tuyg'ularini his etish, axloqiy me'yorlarga amal qilish, shuningdek, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.

3. Pedagogik jarayon yoshlarda ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalashi lozim.

Shu jihatdan pedagogik jarayonni bo'lajak pedagog-psixologlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda bo'lajak pedagog-psixologlarining yetuk balog'at yoshida ekanliklari hamda ularning "Men"ini hisobga olgan holda o'qitish texnologiyalarini tanlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, quyidagi shartlarga amal qilish ham talab etiladi:

1. Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilarning erkin tanlash hissiga ega bo'lishlari muhim. Bu ular nimani xohlasalar, shuni o'qishlari mumkin degani emas, aksincha, ta'lim jarayonida o'quv-bilish faoliyatini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, o'quv materiallarining ular uchun shaxsiy ahamiyatga erishish, bilimlarni ongli o'rganishga nisbatan xohish-istakni uyg'otish zarur.

Bilimlar ta'lim oluvchilarga tayyor holda yetkazilmay, turli faoliyatga jalb etgan holda ularni o'ylashga, xulosalar chiqarishga, bo'lajak tarbiyachi sifatida shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga yo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar (bo'lajak pedagog-psixologlar) o'rtasida o'zaro hamkorlik yuzaga keladi.

2. Pedagogik jarayon rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi zarur. Bunda bo'lajak tarbiyachilarga nazariy bilimlarni berish bilangina cheklanmay, ularni hayotiy misollar asosida yoritish zarur, shundagina ularda kuzatish, tasavvur etish, idrok etish kabi malakalar shakllanadi. O'quv materiallari mazmunining amaliy bilimlar bilan boyitilishi, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyat kasb etishiga erishish pedagogik jarayonning samarali kechishiga yordam beradi. Bu o'rinda mashg'ulotlarning

maslahat, kengash tarzida tashkil etilishi o'qituvchi va bo'lajak pedagog-psixologlar o'rtasida hamkorlikni yuzaga keltiradi, bo'lajak tarbiyachilar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni qadrlash, ularga rag'bat, ishonch bildirish esa bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqtirishni kuchaytiribgina qolmay, balki pedagogik jarayonning rivojlantiruvchi xarakter kasb etishini ta'minlaydi.

3. Pedagogik jarayon bo'lajak pedagog-psixologlarda muayyan his-tuyg'ularning uyg'onishiga olib kelishi zarur. Zero, ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad bo'lajak tarbiyachilarga ilmiy bilimlarni berish, ularda kreativ faoliyatga doir amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmay, har bir talabani his-tuyg'ularini rivojlantirish, o'z ichki kechinmalarini anglash, xohish-istak va ehtiyojlarini baholay olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday jarayon talabalarda kreativ sifatlarning shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyani L.V.Zankov, V.V.Davidov, A.N.Leontevlar ham tasdiqlaydilar. Ta'limga nisbatan tarbiyaning natijasi birdan ko'zga tashlanmaydi. Ayrim holatlarda salbiy ta'sirlar bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy sifatlariga teskari ta'sir etadi. Demak, tarbiya jarayoni o'zgaruvchan xususiyatga ega va u uzoq muddatli sanaladi.

Tarbiyaviy ta'sirlar vaqti-vaqti bilan ko'rsatilmay, balki uzluksiz, izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiya jarayoni, shuningdek, variativ bo'lib, u bir xil shakl yoki metod yordamida emas, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi hamda goho natijaga erishishda noaniqliklar ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holat tarbiyalanuvchining ham, tarbiyalovchining ham individual farqi, ijtimoiy tajribasi, tarbiyaga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiya, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, u talabdan ↔ o'qituvchiga; o'qituvchidan ↔ talabaga yo'naltiriladi. Tarbiyaga texnologik yondashuv mazkur talabning to'la qondirilishiga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda pedagogika nazariyasi va amaliyotida "texnologiya" tushunchasi yangi mazmun kasb etmoqda. U.N.Nishonaliev, B.L.Farberman, B.T.Lixachev, V.P.Bespalko, M.Ochilov, N.N.Azixodjaeva, N.Saidahmedov, M.V.Klarin, V.A.Slastenin, S.K.Ismagulova, O'.Tolipov, M.Usmonboeva va boshqalarning ta'riflarini umumlashtirgan holda V.P. Bespalkoning pedagogik texnologiya "Pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafodatlay oluvchi hamda o'quvchi talabani shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon loyihasi" degan ta'rifiga muammo nuqtai nazaridan qo'shilamiz.

Lekin O'.Tolipov va M.Usmonboevalarning "Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir" degan ta'rifi ham maqsadga muvofiq keladi.

Shunday ekan, bo'lajak tarbiyachilarda kreativ sifatlarni shakllantirishga texnologik yondashuvda ham pedagogik ta'lim jarayonini puxta loyihalashtirish va aniq, maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish muhim sanaladi. Bu o'rinda dastlab ta'lim maqsadi aniqlab olinadi, muayyan o'quv jarayoni uchun ta'lim uslublari tanlanadi va nihoyat ta'lim jarayoni uzluksiz nazorat qilib boriladi.

Mazkur jarayon o'zaro ketma-ketlikka asoslanuvchi bosqichlarda amalga oshiriladi. Bu ketma-ketlikni O'.Tolipov quyidagicha belgilaydi:

- ta'lim jarayonining umumiy, asosiy maqsadini belgilab olish;
- ta'lim jarayonini real, muayyan bosqichlarga bo'lish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni belgilash;
- asosiy maqsadga erishish uchun juz'iy maqsadlarni hal etish.

Texnologik yondashuvga asoslanuvchi pedagogik faoliyatning o'ziga xos murakkabligi shundaki, birinchidan, ta'lim bir butun, yaxlit jarayon bo'lib, pedagogik ta'sir bo'lajak tarbiyachida alohida sifatlarni tarkib toptirishga emas, balki tarbiyani yaxlit olib borishni nazarda tutadi; ikkinchidan, bo'lajak tarbiyachida muayyan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar ma'lum qismlarga ajratilmasdan, balki o'qituvchining o'ziga xos mahoratiga tayangan holda umumiy texnologik jarayonni tashkil etishga e'tibor beriladi; uchinchidan esa, yaxlit o'qituvchiini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon o'qituvchining ijodkorligi, ta'lim qonuniyatlaridan kelib chiquvchi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak pedagog-psixologlarida kreativ sifatlarni shakllantirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratiladi:

- bo'lajak pedagog-psixologlarning ongi, his-tuyg'usi, xulqiga ta'sir etish;
- bo'lajak pedagog-psixologlarning tashqi ta'sir asosida o'z-o'zini tarbiyalashi;
- kreativlik bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasi;
- bo'lajak pedagog-psixologlarning kreativlikni shakllantirishga oid aqliy, axloqiy, estetik va boshqa tarbiyaning tarkibiy qismlarining uyg'unligiga erishish;
- bo'lajak pedagog-psixologlarning kreativlikni shakllantirish jarayonining tizimliliigi;
- bo'lajak pedagog-psixologlarning bilim darajasini aniqlash.

"Alpomish baxshi" (Xudoyberdi baxshi Ortiq o`g`li), Abdumomin baxshi, Ibrohim baxshi, Yusuf baxshi, Anor baxshi kabi 18 nafar dostonchilar o`tgan. Farg`ona xalq dostonchilari ichida munosib o`rin egallagan va Qayqi dostonchilik maktabiga asos slogan dostonchi Husan baxshi Rajab o`g`lidir. Uning ota-bobosi asli qayqilik bo`lib, taqdir taqozosi bilan Baliqchi tumaniga borib qolishgan. Darhaqiqat, Baliqchi qishlog`i bir vaqtlar dostonchilar makoni bo`lgan. Bu yerda juda katta dostonchilar maktabi bo`lib, uning boshlanishi XVII asrga borib taqaladi. Ayniqsa, Husan baxshi Rajab o`g`lining bobosi Mulla baxshi nomi bilan bog`liq 20 ga yaqin dostonchilar o`tganligi, otasi Rajab baxshi, Matqobil baxshilar nomi Husan baxshi Rajab o`g`li va uning safdoshlari bo`lmish O`g`il baxshi, Imomnazar karvon baxshi, Ismon baxshi va boshqa yuqorida aytib o`tilgan dostonchilar Baliqchi dostonchiligini vodiya tanitdi. Baliqchi dostonchiligi XVII-XVIII asrlarda mukammal cho`qqiga ko`tarilib, ular repertuarilarni asosan "Go`rog`li" dostonlari tashkil etgan. Husan baxshi Rajab o`g`lining bobosi Mulla Rahmat "Go`ro`g`li" turkumiga oid 20 ga yaqin dostonlarni bilgan. Ayniqsa, u "Bahrom va Gulandom", "Xurliqo", "Gulqahqah" dostonlarini sevib kuylagan. "Alpomish", "Yusuf va Ahmad" kabi dostonlarni ham bilgan. Mulla Rahmatning eng yaqin shogirdlaridan biri Matqobil baxshi esa "Zaydin arab", "Rayhon arab" dostonlarini zo`r mahorat bilan kuylagan. O`z navbatida bu ikki dostonchi ham 20 ga yaqin dostonchi yetishtirgan. Husan baxshi Rajab o`g`lining otasi Rajab baxshi davrining chechan dostonchilaridan biri bo`lgan. U o`g`li Husanni ham dostonchi bo`lishini orzu qiladi. Natijada ota izidan borgan bola "Alpomish", "Go`ro`g`li" dostonlarini el orasida maromiga yetkazib kuylay boshlaydi.

Husan baxshi 1898-yilda Baliqchi tumaninig Go`ravon qishlog`ida kambag`al dehqon oilasida tug`iladi. Ular oilasida 4 farzand bo`lib Husan ularning eng kenjasi edi. Otasi Rajab baxshi davrining mashhur dostonchilaridan biri edi. Uning repertuari boy, so`zamol, qiziqchi kishi bo`lib, qishloqdagi to`y-ma`rakalar Rajab baxshisiz o`tmasdi. Shirali ovozi, dutorni maromiga yetkazib chertishi, dostonlardan uzib olgan she`larni qo`shiq qilib aytishi uni ovoza qilardi. Husan baxshi ham ota yo`lidan ketdi. Dutor chertishda tengi yo`q Husan tez orada elga tanildi. Unga ham ota kabi ixlos qo`yishadi. To`y va ma`rakalarda "Yozi bilan Zebo" dostonidan olingan parchani maromiga yetkazib kuylaydi. "Go`ro`g`li" dostonidan Avaz va Hasanxonning mardligini tarannum etuvchi satrlar ba`zan mungli, ba`zan sho`x ohanglarda jaranglab, tinglovchini rom qildi. Biroq Husan baxshi birgina doston va qo`shiq aytish bilan oila tebrata olmas edi. 1920-yillarda u ota qishlog`i Qayqiga ko`chib keladi. Avvaliga boylar qo`lida qarol, podachi bo`lib ishladi. Husan baxshining boy va ulamolarning fitna va fisqu-fasodlarini qoralovchi, ularni insofqa chaqiruvchi she'r va qo`shiqlari insof degan narsaga umuman tushunmaydigan kimsalarga, talonchilik bilan shug`ullanuvchi kallakesarlarga yoqmas edi. Natijada baxshi bir to`da johil kimsalar tomonidan kaltaklandi. Uyiga o`t qo`yildi. Shunga qaramay el sevgan baxshi

yengilmadi. Uni xalq himoya qildi. 1930-yilda qishloqda jamoa xo`jaligi tuzildi. U birinchilar qatori shu xo`jalikda ishlash istagini bildirdi.

Avval xo`jalikda ishchi, keyin brigada boshlig`i kabi ishlarni bajardi. Ishdan bo`sh paytlari esa dalada dostonchilikbo`lardi.

Dostonchi ijodini o`rganish asosan 1956-yildan boshladi. Folklorshunos olim T.G`oziboyev "Mulla G`oyib va oshiq Murod", "Alpomish", "Yusuf va Ahmad", "Yulduz bilan Qunduz" dostonlari hamda "Yaxshidir yigitcha" termalarini yozib oldi.

1968-yilda esa A.S. Pushkin (hozirgi A.Navoiy) nomli Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlardan iborat ekspeditsiya a'zolari Muhammadnodir Saidov, Malik Murodov, Zubayda Husainova, To`xtamurod Zufarov va boshqalar ham Husan baxshi Rajab o`g`lining ijodi bilan qiziqishgan. 1975-yilda esa Farg`ona davlat pedagogika instituti (hozirgi FarDU)ning Iqbol Nazarov boshchiligida 30 nafar talabalari ham Husan baxshi huzurida bo`lib, undan "Go`ro`g`li" dostonini yozib oldilar.

70-yillarda folklorshunos Otash Xolmirzayev, u rahbarligida tashkil etilgan "Folklorist" to`garaginig a'zolari bir necha bor Husan baxshi huzurida bo`lib, undan "Go`ro`g`li", "Avazning Yulduz bilan Qunduzga borishi", "To`lak botir", "Avazning arazi" dostonlarini to`lalgicha yozib olishdi. Bu dostonlar Otash Xolmirzayevning shaxsiy arxivida saqlanadi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, Husan baxshi Rajab o`g`li davrining eng mashhur dostonchisidir. Uning repertuari ham anchagina boy, shu bilan birga dostonlarida puxta ishlangan obrazlar, qofiyalash san'ati, xalq qo`shiqlariga yaqin bo`lgan go`zal misralar kishini o`ziga rom etadi. "Alpomish" dostonining Husan baxshi tomonidan aytilgan versiyasi 1962-yilda folklor shunos olim Tojiboy G`oziboyev tomonidan yozib olingan bo`lib, Fozil shoir variantiga yaqin turadi. Akademik Otamirza Holmirzayev tahliliga ko`ra, bu doston Alpomishning Qalmoq yurtiga Barchin uchun borishi hamda u yerdagi qahramonliklari ta'riflanmagan. Doston Alpomishning otasi o`rniga hukmdor bo`lishi va Kachal elidagi Maston kampirning arizasiga ko`ra Qalmoq yurtiga o`z qarindosh- urug`larini Toychixon zulmidan qutqarish uchun yo`lga chiqishidan boshlanadi. Shuningdek, dostonda Alpomishning Qalmoqqa borishi sabablari ham boshqacharoq tasvirlanadi. U dostonning boshida o`z yurtining himoyachisi, adolatli hukmdor, ammo anchagina sodda va g`o`rroq inson sifatida beriladi. Maston kampir nomada "Sen Alpomish, o`tirgan bo`lsang, turgin, turgan bo`lsang otingga mingin, zudlik bilan Kachalga kelgin, Kachal yurtida o`z qavmingning holini ko`rgin. Bu yerda bir nechamizni o`ldirishdi. Yana bir nechamizni jazoga tortdi, qo`y-chi, yurakbag` rimizni qonga to`ldirishdi",- deydi. Nomani o`qib ilondek to`lg`ongan Alpomishning yuragidan "Menga nima bo`ldi, mundoq vallomat o`lmay turib, ko`zimga qora tuproq to`lmay turib, avlodlarim qiynalib yursa, menga nomus emasmi?" deya Kachal yurtiga ot soldi. Biroq, yo`lda Maston kampirning xiylatuzog`iga ilinadi.

U Fozil shoir versiyasidagi kabi yetti yil zindonda yotadi. Shunga qaramay Kavbek (Qayqubodning Husan baxshi variantidagi nomi) va Tavkaoyim yordamida zindondan qutulib, Qalmoq podshosining son-sanoqsiz askarlarini yengadi. Kachalda adolat o`rnatadi. Bu payt o`z yurtida Ultontoz ko`p zolimliklar bilan Alpomishning avlodlariga yovuzliklar qiladi. Yurtiga qaytgan Alpomish zolim Ultontozni yengib, elida adolatni tiklab, murod-maqсадiga yetadi.

Qorajon (Bu variantda Qoratoy) timsoli ham juda yaxshi ishlangan. Alpomish Qoratoy bilan yetti kun kurashib, uni yengadi. Ular bir-biri bilan do`st tutunishadi. Qoratoy Alpomishning bir umrlik do`stiga aylanadi. Mard, bahodir yigit sifatida tasvirlangan Qoratoy Alpomish zindonda yotganda beliga to`qson gazli arqon boylab, piyoda yo`l yurib, yo`l yursa ham mo`l yurib, do`stining dushmanlari va Ultontozdan o`ch olishda yordamga oshiqadi.

Qayqubod (Bu nusxada Kavbek) Ultontoz zulmidan qochib, Alpomishni qidirib Kachal eliga keladi. Tavkaoyimning qo`y-echkilarini boqadi. Dostonda Kavbekning komik sarguzashtlari boshqa nusxalarga qaraganda ancha qiziqarli berilgan. Barchin timsoli esa Fozil shoir darajasida kuylangan. Husan baxshi Rajab o`g`lining "Alpomish" dostonidagi yana bir yutug`i shundaki, u nazmda ham, nasrda ham anchagina pishiq. Baxshi o`xshatish, mubolag`a, saj kabi badiiy tasvir san'atlaridan o`z o`rnida mahorat bilan foydalana bilgan. Demak, Husan baxshi Bulung`ur, Nurota dostonchilaridan sira qolishmaydi.

Husan baxshi Rajab o`g`lining ustozlari va u yetishtirgan dostonchilik maktabida katta mahorat egasi bo`lgan dostonchilar ijod qilgan. Ular "Go`ro`g`li" dostonlarini to`la va mukammal bilganlar. Shu bilan birga "Rustamxon," "Orzigul", "Yozi bilan Zebo" dostonlarini mahorat bilan kuylaganlar. Dostonchi Uchqo`rg`on hududida yashagan davr ichida Usmon Mamatqul o`g`li, Alim shoir Niyoz o`g`li, Dehqon shoir Qoraboy o`g`li, Mulla Abdumo`min baxshi, Alpomish baxshi kabilar bilan muloqotda bo`ldi. Ko`lbuqon dostonchilik maktabining mashur dostonchilar bilan tanishdi, ayrim dostonlarni ulardan o`rgandi. O`zi ham o`rgatdi.

Biroq bularning bari baxshi ijodini to`laqonli o`rganildi degani emas. Ularni o`rganish, dostonlarni nashr etish galdagi vazifalarimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Xolmirzayev O. "Ko`lbuqon dostonchilik maktabi". - Namangan, 2015
2. Sobirov A. "Namangan xalq og`zaki ijodi".-Namangan, 1994
3. Xolmirzayev O. "Maktab-taraqqiyot mezon".-Namangan 2016.
4. Xolmirzayev O. "Farg`ona xalq dostonchiligi (Farg`ona xalq dostonchilari repertuarlarida "Go`ro`g`li" turkum dostonlarining tutgan o`rni)". Fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozigan disertatsiya. Olimning shaxsiy arxivi.
5. Xolmirzayev O. "Adabiyot darslarida xalq og`zaki ijodi"-Namangan 1991.
6. Fozil Yoldosh o`g`li. "Alpomish".-Yozib oluvchi Hamid Olimjon. T., "O`z davnashr", 1939.
7. Husan baxshi Rajab o`g`li. "Alpomish".-Yozib oluvchi T.G`oziboyev, shaxsiy arxiv, 1962
8. Fozil Yo`ldosh o`g`li "Alpmish".-Nashrga tayyorlovchi M.Jo`rayev. Toshkent, Cho`lpon nomidagi NMIU.2017

ADABIYOT DARSLARIDA O`QUVCHILARNI ASAR TAHLILIGA O`RGATISH USULLARI

Ra'noxon Matkarimova Ikromjonovna

*O'zbekiston Respublikasi, Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani,
17-maktab oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada badiiy asar tahlili, o'quvchilarni badiiy asar qahramonlari siymosi orqali hayot mazmunini anglab yetishishiga tayyorlash xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, darsning yutug'i, mustaqil fikrlash, ma'naviyatni anglash, adabiyot va hayot.

METHODS OF TEACHING STUDENTS TO ANALYZE THE WORK OF LITERATURE

Ranokhon Matkarimova Ikromjanovna

*Teacher of the highest category of mother tongue and literature
school 17, Uchkurgan district, Namangan region, Uzbekistan*

ABSTRACT

The article deals with the preparation of students to understand the meaning of life through the image of the heroes of fiction.

Keywords: Competency approach lesson achievement, independent thinking spirituality understanding, literature and life.

Bugungi kunda yurtimizda maktab ta'limiga, o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Ularning zamon talablari asosida xalqaro andozalarga mos keluvchi bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan. O'quvchilar maktabda nafaqat ta'lim, balki tarbiya ham oladilar. Ularning ma'naviy tafakkuri, axloqiy tarbiya olishida, hayotda yaxshi-yomonni, oq-qorani tanishida esa adabiyot darslarida o'rganiladigan bilimlar muhim o'rin tutadi. Adabiyot darslarida e'tiborni badiiy asar tahliliga qaratish o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning asosiy ko'rinishi sanaladi. Negaki, adabiy ta'lim berishda badiiy asarni to'g'ri tahlil qila bilish ta'limning bosh mezonlaridan biridir. O'quvchi asarni tahlil qilib borish jarayonida hayotga teran nigoh tashlab, borliqni anglab boradi. Shu o'rinda asar tahlilida asosiy vazifa o'qituvchi tomonidan bajarilgani holda ijro o'quvchining bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni asarni o'qituvchi tahlil qilib, o'quvchining tinglovchi, oqituvchi fikrlarini tasdiqlovchi bo'lmasdan, aksincha, o'zi mustaqil fikr bildiruvchi, mustaqil xulosa chiqaruvchi shaxs

ekanligini namoyish eta olishi muhimdir. Aslini olganda dars yutug`i ham ana shunda. Asar tahliliga diqqatni jalb qilish maqsadida dastlab o`quvchilarni darsga ruhan tayyorlab olish, ya'ni asar voqeligi, qahramonlarining harakatlari, kechinmalari bilan tanishtirishda ularga oddiy odam sifatida qarash kerakligini uqtira bilish kerak. O`qituvchi asar tahlili jarayonida o`quvchilardan asardagi ijobiy timsollarning qay jihati diqqatga sazovorligi, ijobiy timsolning aynan qay sifati yoqqanligi, qahramon tilidan aytilgan qaysi jumlar esda qolarli bo`lganligi haqida fikrlarini bilish asnosida o`quvchilarda o`zini o`zi boshqarish kompetensiyasini shakllantirib boradi. Shuningdek, salbiy qahramonlardagi illatlarni tahlil qilishda ham buni nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Asar tahlilida mustaqil fikr bildira olgan o`quvchi salbiy qahramon harakatlari orqali agar kundalik hayotda shu kabi holatga duch kelib qolsa uni ijobiy hal etish kerakligini o`zi anglab yetadi.

Rus yozuvchisi Maksim Gorkiyning "O`zimdagi yaxshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman" degan mashhur fikrlarini anglab yetgan o`quvchi kitob bilan oshno bo`lar ekan aslo to`g`ri yo`ldan og`ishmaydi, hayotda qoqilmaydi, hayot sinovlari oldida o`zini yo`qotmaydi. Adabiyot o`qituvchisi hayotga shunday o`quvchi tayyorlar ekan bor e'tiborini asarlarni tahlil etish usullariga, qay yo`sinda tahlil qilinsa o`quvchida asar mazmuni, unda ilgari surilgan g`oya tez va oson anglashni bilish tuyg`usi shakllanishiga qaratish kerak. Asar tahlili jarayonida ta'limning turli texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. Masalan "SWOT", "Ven diagrammasi", "BBB", "Aqliy hujum", "Debat", "T chizmasi", "Tarmoqlash", "Bumerang", "Bingo", "FSMU", "Insert", "Zinama-zina", "Raqamlar so`zlaganda", "Menga so`z bering" kabi texnologiyalar orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. Bu kabi texnologiyalardan 8-sinf uchun amaldagi o`quv darsligida Asqad Muxtorning "Chinor" romanidan olingan "Qo`rqoqliknig to`lovi" parchasi tahlilida keng foydalanish mumkin. Har bir adabiyot o`qituvchisiga ma'lumki, bu roman katta- kichik qissa va hikoyatlardan iborat bo`lib, ulardagi qahramonlar bir umumiy timsol - Ochil buva timsoli atrofiga birlashgan. Yozuvchi asardagi qissalarni bayon etish oldidan rivoyat va xalq tilidan aytilgan iboralarni keltirib o`tadi. Romanda darslikdagi berilgan parcha oldidan toshbaqa haqida "Rivoyat"ni hamda "Eng dahshatli yirtqich - quyon" degan afandinamo iborani keltirib o`tadi. Darslikda "Rivoyat" keltirilmagan, lekin o`qituvchi u haqida ham o`quvchilarga qisqacha to`xtalib o`tsa o`quvchilar asar tahlilida, Akbarali timsolini tahlil qilishda yanada mustaqil fikrlay oladilar. O`quvchi Akbaralidagi ijobiy sifatlar (unda mehnatsevarlik, o`z kasbining ustasi, boshqaruvchilik qobiliyatlari bor edi) mavjud bo`lgani holda, birgina qo`rqoqligi sabab o`zini hech kechira olmaydigan, unuta olmaydigan xatoga yo`l qo`yganligini; butun yurt izzat qiladigan mehribon va oqko`ngil, har qanday mushkulotlarda ham o`zini tuta bilgan Ochil buvaning Akbarali qismati oldida tang qolishi, "O`zi uzila olmay turgan mo`rt barg edi" degan iborasida beshafqatlik yo`q ekanligini to`g`ri anglab yetadi. Epigraf sifatida olingan "Eng

dahshatli yirtqich - quyon" hikmatining qissa badiiy qimmatini ochishga qay darajada ta'sir etishini, Akbarali harakati bilan bog'liqligini o'quvchi o'zi anglab, tahlil qilib bersa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni darslikdagi Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi "Hijron kunlarida" kitobidagi "Qochoq" parchasi keltirilgan bo'lib, bu parchani ham tahlil qilishni o'quvchilar ixtiyoriga berish kerak. O'quvchi Tursunboydan nafratlanmaydi, balki unga, undan ham ko'ra ota-onasiga rahmi keladi. Tursunboyning bu kabi achinarli qismatida ota-ona aybdor, lekin ularni ham tushunish kerak-ku. Ular ham bu dunyoda o'zlaridan zurriyod qoldirishni, nomlari abad yo'qolmasligini istaydilar.

Inson uchun dunyoda aziz ne'matlardan biri farzand ekanligini har bir ota-ona biladi. Ikromjonning qochoq og'ilga qarata o'q otgandagi "Xayriyat, tegmadi" degan gaplari har bir o'quvchini e'tiborsiz qoldirmaydi. Bu o'rinda farzand qismati uchun aybdor bo'lgan Ikromjonga o'quvchi befarq bo'la olmaydi, uni yomon ko'ra olmaydi. Vatan uchun jangda qatnashib qahramon bo'lgan, front ortidagi mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan, hayotning qancha sinovlarida pishib yetilgan bu qahramonni yoqtirmaslik mumkinmi? Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari uchun adabiyot darsligida O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" hikoyasi tahlilida o'quvchilar Sarsonboy ota bilan shu qadar qadrdonlashadiki, goho do'sti Madumar akaning unga bergan tanbehlaridan ranjib (Bu o'rinda Madumar akaning do'stiga tahbehleri, achinishlari ortida do'stona mehribonlik mavjudligini unutmagan holda) ota bilan birga har bozor Haydaralini kutishadi. Negaki o'quvchilar sof o'zbekona fazilatlardan biri sanalmish birovning omonatiga xiyonat qilmaslik kerakligini yaxshi anglab yetadilar. Hikoya orqali o'zlari uchun juda katta hayot sabog'ini oladilar. Ayrim teran fikrlaydigan o'quvchilar esa aslida INSONga berilgan umr Qodir tabiatning ulkan omonati ekanliginiham anglab yetadilar. Shu sababli omonatga berilgan umrning har lahzasini ezgulik, halollik, o'zidan yaxshi nom qoldirib bezash kerakligini uqadilar. Bu kabi mavzularni yuqorida keltirib o'tganimiz turli didaktik uslublar orqali tahlil qilish o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga, umummadaniy hamda o'zini o'zi boshqarish, axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari shakllanishiga turtki bo'ladi. Shuningdek kitobxonlik madaniyati ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent - 2017.
2. S. Olim, S. Ahmedov, R. Qo'chqorov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent - 2019.

CHO‘QQIDA QOLGAN HAQIQATLAR

(Chingiz Aytmatov Muxtor Shoxonov "Cho‘qqida qolgan ovchining ohi zori" asarini o‘qigach...)

Matkarimova Ra'noxon Ikromjonovna

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani 17-sonli maktabning

Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998939447645

Inomjon02030609@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonovning "Cho‘qqida qolgan ovchining ohi zori" kitobida berilgan ayrim haqiqatlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Bobur, Boburiylar sulolasi, Umar Xayyom, Atilla, Ashina, Ona bo‘ri totemi

Ikki xalqning buyuk adiblaridan bo‘lgan Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonovning "Cho‘qqida qolgan ovchining ohi zori" asarii turkiy xalqlarning kelib chiqishi, ularning ma’naviyati, bugungi yosh avlodning Vatan tushunchasini anglashiga bag‘ishlangan kitob hisoblanadi. Asarda bizni hayratlantiradigan, ayni damda esa haqiqat bo‘lgan juda muhim ma’lumotlar keltirib o‘tilgan:

Shoxonov: "O‘n asr muqaddam qog‘ozga tushirilgan jummalarda buyuk ma’no, buyuk sir-asror yashirin. Shu bois ulug‘ mayparast shoir Umar Xayyom "Arifmetikaning mushkul masalalari" nomli ilmiy asar yaratganidan ajablanmasak ham bo‘ladi. Vaholanki, o‘sha ilmiy asarda Sharqning buyuk mutafakkiri yevropalik olim Isaak Nyutondan besh yuz yil muqaddam o‘n sonli raqamli masalalarni kasr vositasida hal etish nazariyasini tavsiya etgandi." Bu bobolarimizning yuksak salohiyat egasi bo‘lganligining yorqin dalilidir. Biz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida juda ko‘p qiziqarli ma’lumotlarni bilamiz. Lekin Pokiston Islom Respublikasining bosh vaziri bo‘lgan Benazir Bxutning Boburiylar avlodidan bo‘lgani haqida juda kamchilik bilsa kerak. Muxtor Shoxonov ushbu kitobda quyidagi jummalarni keltirib o‘tadi: "O‘sh viloyatidagi Sulaymon tog‘ida hozir ham Bobur qurdirgan uy saqlanib turibdi. O‘sha yer aynan Bobur bino qilgan uy tufayli afsonalardan joy olgan. Muborak go‘shalarni ziyorat qilib, ilmga, poklikka tashna bo‘lgan kishilar o‘sha uyga, albatta, boradilar. U yerda qori shirali tovushda Qur’oni Karim oyatlarini qiroat qiladi va o‘tgan ketganlar Boburshoh to‘g‘risida ajoyib hikoyalarni so‘zlab beradi. Boburiylar avlodidan bo‘lgan Pokistonning sobiq Bosh vaziri Benazir Bxutto Qirg‘izistonga rasmiy tashrif bilan kelgan chog‘ida o‘sha uyni ziyorat qildi, buyuk bobosi yashagan yurtga, uning ruhiga oyatlar o‘qib farzandlik burchini ado etdi." Bobur shaxsiga qiziqadigan biz kabi o‘quvchilar uchun bu yana bir ma’lumot bo‘ldi.

Qadimgi dunyo tarixida xunlar boshlig'i, G'arbiy Rim imperiyasiga hujum uyushtirganlardan biri bo'lgan Atilla o'zi kim, uning kelib chiqishi qanday? Ushbu savollarga ham mana shu kitob orqali ma'lumot olishimiz mumkin:

"Atilla - xunlarning yo'l boshchisi, u eramizning V asrida yashagan. Uning asl ismi Odil botir Mundzuk o'g'lidir. Xunlarning o'rdasi Hazor (Kaspiy) dengizining shimoliy sohillarida barpo etiladi. O'sha zamonlarda Qozog'iston va O'rta Osiyoda yashagan uysunlar, qanglilar, soylar, alanlar kabi ko'chmanchi qabilalar, urug'lar ham o'rda tarkibiga kirardi. Bu haqida A.N. Bernshtam: "O'rta Osiyodagi xunlar ittifoqi shu hududdagi urug'-aymoqlarni birlashtiradi va qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar kabi elatlarning shakllanishiga puxta zamin hozirlaydi. Bu jihatdan O'rda juda muhim ijobiy vazifani ado etadi", deb yozadi. Fransuz tarixchisi O. Terri o'zining o'sha davr voqealariga bag'ishlangan asarida: "Insoniyat tarixida Atillaning nomi Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar nomlari bilan bir qatorda turadi", - deya e'tirof etadi. Hatto, Karl Marks bilan F. Engelsning asarlarida ham Atillaning nomi uchraydi. Karl Marks: Atilla o'zining xunlari bilan italyanlarga kamsuqum farishta bo'lib ko'rinishini ayrim kishilar juda yaxshi tushunadilar", - deb yozadi va Napoleonn Atilla bilan taqqoslaydi. 448-yili Prisk Xunlarning O'rdasiga borib, shaxsan Atilla bilan uchrashadi. Xunlar dohiysining tashqi qiyofasini shunday tasvirlaydi: "Uni kimki ko'rgan bo'lsa, darhol bu haqiqiy Osiyolik deb ataydi. Kallasi katta, o'rta bo'yli baquvvat. Ko'zlari qisqroq, nigohlari o'tkir, xuddi qarayotgan joyini teshib yuborgudek bo'ladi. Ishonch bilan qadam tashlaydi, ildam. Tovushi qo'ng'iroqdek, xuddi kumush tanga jarangiga o'xshaydi. Ovozi quloqqa yoqimli eshitiladi".

Turkiy xalqlarning umumiy merosi bo'lgan "Kitobi dada Qo'rqu" asarining muallifi Qo'rqu ota haqida ham "Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori" asarida qiziqarli faktlar keltirilgan: "O'g'uz-qipchoq zamonida yashagan Qo'rqu ota Qozako'zning o'g'li erdi. Uning onasi qipchoqning qizi erdi", - deb yozadi Abulg'oziy Bahodirxon o'zining "Shajarayi turk" asarida. So'ng shajarasini bayon qiladi. Qo'rquning tug'ilishi asarda shunday yoritiladi: "Qo'rqu tug'iladigan kun qattiq shamol turdi, sharaqlab yomg'ir yog'di, chaqmoq chaqnadi, atrofni qorong'ulik qopladi, tuman tushdi". Bu guvohnomani akademik Alkey Marg'ilon ham tasdiqlaydi. Qo'rqu ota o'zining tez chopadigan Jelmayan laqabli tuyasiga minib o'limdan qutilib ketmoqchi bo'ladi. Lekin qayoqqa bormasin, go'rkovlar hozirlab qo'ygan o'z mozoriga duch kelaveradi. "Qayoqqa bormaylik, Qo'rqu ota mozoriga duch kelamiz", degan ibora o'shandan qolgan. Qadimgi zamonlar mavzusida tarixchi Qo'yshig'ar Solg'arin to'rtta kitob yozgan. "Ko'mma" nomli roman-essesida taxmin qiladiki, Qo'rqu ota bilan To'nyuquq aslida bitta odam bo'lgan. Ular haqida Xitoy solnomalarida ham eslatib o'tilgan. Muallif o'z taxminini izohlash uchun maxsus bo'limda dalil keltiradi. Bunday dalil farazni ilgari hech kim olg'a surmagan edi. Darhaqiqat, bu ikki buyuk ko'chmanchi insonning hayoti taqqoslab ko'rilsa, ko'p

jihadidan o'xshashligi ma'lum bo'ladi. Ular xizmat qilgan xonlarning ismlari ham bir-biriga o'xshaydi. Bolalarning soni ham, qiliqlari ham, hatto xonlar bilan qilgan munozaralar ham o'xshash. Ular o'rtasidagi birdan-bir farq shundan iboratki, Qo'rqut ota Sirdaryo sohilida, To'nyuquq esa Mog'ulistonda vafot etadi".

O'rta Osiyoda yashagan ko'chmanchi sak qabilalari haqida ham bu kitobda juda ko'p ma'lumotlar keltirilgan: "Hukmdorlik tarixi. G'arbiy o'lkalarning shajarasi" nomli kitobda O'rta Osiyoda istiqomat qilgan sak qabilalari haqida gap ketar ekan, ularning nihoyatda jasur, yovqur xalq bo'lganligi, dushmanga shafqatsiz, do'stga mehribonliklari alohida ta'kidlanadi. Keyin mana bunday ta'rif beriladi: "Ular dushmanning bosh chanog'idan ichimlik quyiladigan kosa yasaydilar, shu kosa bilan may ichadilar. Dushman terisidan tasma yasab taqib yuradilar" ... Bunday odat bizning zamondoshlarimizga yoqmasligi mumkin, lekin o'tgan asrlardagi ko'pchilik qadimiy xalqlar shunday urf-odatlariga amal qilganlar. Saklarning yo'l boshchisi qazo qilsa unga itoat etadigan xalq juda qattiq motam tutgan: o'tkir tig', qurol bilan o'z badanlarini tilganlar. Xon qo'rg'onga dafn etilgan. Unga qo'shib xotinlari, cho'rilari, otlari, qurol-aslahalari, qimmatbaho buyumlar, tillo va kumush tangalar, oziq-ovqat ham yerga ko'milgan. Odat shunday bo'lgan."

Qadimgi turkiy xalqlarning umumiy timsoli - Ona bo'ri totemi bilan bog'liq. Bu haqida juda ko'plab afsonalar to'qilgan, shulardan bittasi ushbu kitobda ma'lumot o'rnida keltirilgan: "Agar qadimiy afsonani eslaydigan bo'lsak, turklarning xoqoni ham Ona bo'ridan tug'iladi, bo'ringa farzandi hisoblanadi. Qonli janglardan birida ularning hammasi qirilib bitadi, faqat yo'l boshchi va uning o'g'loni, eng kenja farzandi tirik qoladi. Ustiga-ustak, dushman qabilaning jangchilari bolakayning oyoq-qo'llarini kesib tashlaydilar. Keyin majruh bolani botqoqlikka tashlab yuboradilar. Ona bo'ri o'sha bolakayni topib oladi; uni ochlikdan, o'limdan saqlab qoladi. So'ng ular er-xotin bo'ladilar. Ulardan o'n nafar o'g'lon dunyoga keladi. Eng kenja farzandning ismi "Ashina" edi. U qadimiy turk qozonlari sulolasining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Bo'rilar boshqa farzandlarini Qipchoq, Qirg'iz, Tatar deb, turkiy xalqlarga mansub elatlarning nomi bilan ataydilar". Kitobda shu va shu kabi juda ko'plab qiziqarli ma'lumotlar berilgan bo'lib, har bir adabiyotga qiziquvchi o'quvchida kata qiziqish uyg'otishi tabiiy

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulg'oziy Bahodirxon . "Shajarayi turk".
2. Qo'yshig'ar Solg'arin . "Ko'mma".
3. "Kitobi dada Qo'rqut".
4. Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonov . "Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori".

MAKTABDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISH

Matkarimova Ra'noxon Ikromjonovna

*Namangan viloyati 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
O'zbekiston, Namangan*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktablarda yordamchi so'z turkumlarini o'qitish metodologiyasi ilmiy taqdqiq etiladi. Ilmiy fikr-lar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

Kalit so'zlar: So'z, so'roq, javob, atash ma'nosi, gap, gap bo'lagi, vazifa, mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi.

Morfologiya (grek. morhfos «shakl», logos «ta'limot») so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'li-motdir. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi ham, morfologiya bo'limi ham so'z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo'lim so'zning qaysi tomoniga e'tibor qaratishi bilan bir-biridan farq qiladi. Leksikologiya leksik so'z (leksema)larni, ularning atash ma'nolarini o'rgansa, morfologiya so'zning grammatik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarni, ya'ni so'zning morfo-logik shakllarini o'rganadi. Masalan, qalam, qalamning, qalamni, qalamga, qalamdan, qalamda shakllari bir so'zning (qalam so'zining) turli shakllari hisoblanadi. Bu so'z shakli uning hammasida takrorlanayotgan qalam qismi ikkita ma'noga ega. Birinchi ma'nosi yozish, chizish uchun mo'ljallangan grafit toshga yog'och qoplama o'rnatilgan o'quv qurolini bildiradi. Bu qalam lekse-masining (leksik so'zning) atash ma'nosi sanaladi. Leksik so'zning atash ma'nolari leksikologiyada o'rganiladi. Shu bilan birgalikda qalam so'zi daftar, kitob so'zlari singari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu esa qalam so'zining ikkinchi ma'nosi — grammatik ma'nosi sanaladi. Ana shu grammatik ma'nolar va ularni ifo-dalovchi vositalar morfologiya bo'limida o'rganiladi. So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi. Bunda ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmoshlar mustaqil so'z tur-kumlariga; yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar esa yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi. Yuqorida be-rilgan qoidaga izoh beradigan bo'lsak, birinchidan, mustaqil so'z turkumlari ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, ot so'z turkumi kim?, nima?, qayer? so'roqlariga, sifat so'z turkumi qanday?, qanaqa?, qay-si?, son so'z turkumi nechta?, nechanchi?, qancha?, fe'l so'z turkumi nima qildi?, nima qilyapti?, nima qil-moqchi? va hokazolar. Xullas, mustaqil so'z turkumlari biror so'roqqa javob bo'la oladi. Endi qoidaning ikkinchi qismiga, atash

(lug'aviy) ma'nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra so'zlarning mustaqil yoki yordamchilarga ajralishiga to'xtaladigan bo'lsak, ot so'z turkumiga lug'aviy ma'no mavjud [1]. Masalan, koptok, ko'zgu, koinot so'zlari misolida olib qaraydigan bo'lsak, koptok - so'zining lug'aviy ma'nosi umuman, ba'zi oyinlar uchun mo'ljallangan dumaloq shaklga ega elastik buyum. Ko'zgu so'zi barcha ko'zga ko'rinadigan narsalarning aksini ko'rsatadigan buyum. Koinot- yer shari va un-dan keyingi butun sayyoralarni o'zida jam etgan cheksizlik. Sifat so'z turkumiga oid yaxshi so'zi inson-larga ijobiy tasavvur bera oluvchi so'z. Baland so'zi pastdan yuqoriga qarab ko'tarilgan masofa. Umuman olganda, mustaqil so'z turkumlaridan olmoshdan bos-hqa barcha so'z turkumlarida lug'aviy ma'no mavjud. Yordamchi so'z turkumlarida esa lug'aviy ma'no mavjud emas. Shuningdek, yordamchi so'z turkumlari gapda hech qanday gap bo'lagi vazifasida kela olmay-di, ammo o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda gap bo'lagi bo'lib kela olishi mumkin. Masalan, Vatan men uchun muqaddas tushuncha, yoki shunday qilib, ish borgan sari kattalashar katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi o'g'irlashar edi (A. Qahhor). Bunda birinchi gapda uchun ko'makchisi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda to'ldiruvchi vazifasida kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda hol vazifasida kelyapti.

Yordamchi so'z turkumlari esa hech qanday so'roqqa javob bera olmaydi. Negaki, unda so'roqqa javob bera oladigan lug'aviy (atash) ma'no mavjud emas [1]. Ammo shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yordamchi so'zlar so'roq olmoshlariga qo'shilib gapda so'roq so'zlarni hosil bo'lishida yordam beradi. Masa-lan, nima uchun?, nima maqsadda?, nima sababdan?, kim uchun?, kim tufayli?, kim sababli?, qay yo'sinda?, qanday qilib? va hokazolar. Endi qoidaning ikkinchi qismiga, atash (lug'aviy) ma'nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra so'zlarning mustaqil yoki yordamchilarga ajralishiga to'xtaladigan bo'lsak, ot so'z turkumiga lug'aviy ma'no mavjud [2]. Masalan, koptok, ko'zgu, koinot so'zlari misolida olib qaraydi-gan bo'lsak, koptok - so'zining lug'aviy ma'nosi umuman, ba'zi oyinlar uchun mo'ljallangan dumaloq shaklga ega elastik buyum. Ko'zgu so'zi barcha ko'zga ko'rinadigan narsalarning aksini ko'rsatadigan buyum. Koinot- yer shari va undan keyingi butun sayyoralarni o'zida jam etgan cheksizlik.

Sifat so'z turkumiga oid yaxshi so'zi insonlarga ijobiy tasavvur bera oluvchi so'z. Baland so'zi pastdan yuqoriga qarab ko'tarilgan masofa. Umuman olganda, mustaqil so'z turkumlaridan olmoshdan boshqa barcha so'z turkumlarida lug'aviy ma'no mavjud.

Yordamchi so'z turkumlarida esa lug'aviy ma'no mavjud emas. Shuningdek, yordamchi so'z turkumlari gapda hech qanday gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi, ammo o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda gap bo'lagi bo'lib kela olishi mumkin. Masalan, Vatan men uchun muqaddas tushuncha, yoki shunday qilib, ish borgan sari

kattalashar katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi o'g'irlashar edi (A.Qahhor).

Bunda birinchi gapda uchun ko'makchisi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda to'ldiruvchi va-zifasida kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda hol vazifasida kelyapti. Yordamchi so'z turkumlari haqida yana shuni aytib o'tish mumkinki, ularda grammatik ma'no mavjud, grammatik vazifa mavjud, grammatik shakl mavjud [3]. Shuningdek, gaplarni o'zaro bog'laydi, so'zlarni o'zaro bog'laydi, qo'shimcha ma'no yuklaydi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan grammatik vositalardir. Yordamchi so'zlar quyidagilar:

1. Bog'lovchi
2. Ko'makchi
3. Yuklama

Yettinchi sinf ona tili darsligida "Yordamchi so'zlar" mavzusi keng va murakkab berilgan. Jumladan "Yordamchi so'zlar" mavzusidagi topshiriqni ko'rish mumkin: "So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga ko'ra, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga ko'ra, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi" [4].

O'qituvchi har bir qoidaning mohiyatini ochib bera olishi lozim. Ana shunday tushuntirilishi lozim bo'lgan qoida budir: "Ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmoshlar ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi [5]. Ularning bar-chasi, olmoshlardan tashqari, atash ma'nosiga ega. Ot borliqdagi shaxs-narsalarning, voqea-hodisalarning nomini, sifat va ravish belgini, son miqdorini ifodalaydi. Olmosh esa yuqoridagi so'zlardan qaysisining o'rnida kelsa, o'shaning ma'nosiga ishora qiladi."

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ushbu ta'rifga o'qituvchi tomonidan izoh berib o'tilsa, yomon bo'lmaydi, chunki mustaqil so'z turkumlaridan ot, si-fat, son, ravish va fel mavzulari 6-sinfda o'tilganligi sababli o'quvchining xotirasidan ko'tarilgan bo'lishi mumkin. Yordamchi so'z turkumini yaxshi o'zlashtirish uchun, albatta, mustaqil so'z turkumlarini bilish lozim. Shunday holatning bo'lishi hisobga olingan holatda yana bir bor qoida eslab o'tish joizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.
2. Asadov T. Ona tili. Usuliy qo'llanma. Вухоро: "Вухоро", 2012, 86 б.
3. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.
4. Мирзаев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Машқлар тўплами. Тошкент, 1963. 143 б.
5. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.

ЯСМИҚ НАВЛАРИ ПОЯ БАЛАНДЛИГИ ВА ЎСИШ СУРЪАТИГА ЭКИШ МУДДАТИ ВА МЕЪЁРИНИНГ ТАЪСИРИ

А.А.Қурбонов, PhD - Тошкент давлат аграр университети

АННОТАЦИЯ

Ясмиқнинг Олтин дон ва Дармон навлари 3 хил экиш муддати (куз, баҳор ва ёз) ва 3 хил экиш меъёрида (2, 3, 4 млн дона/га) экиб етиштирилганда энг юқори поя баландлиги экиш меъёрлари бўйича 4 млн дона/га меъёрда, экиш муддатлари бўйича кузги муддатда кузатилди ва навлар бўйича тегишлича 55,5 ва 58,8 см ни ташкил этди. Ушбу экиш меъёрида кейинги муддатларда поя баландлиги юқори бўлди: баҳорда - 48,8 ва 52,2, ёзда - 44,8 ва 48,5 см. Бунда экиш муддатлари билан поя баландлиги ўртасидаги боғлиқлик ижобий характерга эга бўлиб, корреляция коэффиценти кузги муддатда $r=0,99$, баҳорда экилганда $r=0,99$ ва ёзда $r=0,98$ га тенг бўлди.

Таянч сўзлар: Олтин дон, Дармон, Ясмиқ навлари, экиш меъёри, экиш муддати, поя баландлиги, ўсиш сурати

EFFECT OF SOWING DATES AND NORMS ON STEM HEIGHT AND GROWTH RATES OF LINTEL CULTIVARS

A.A.Kurbonov, PhD of Tashkent State Agrarian University

ABSTRACT

“Oltin don” and “Darmon” varieties of lentil, when planted in 3 different sowing periods (autumn, spring and summer) and 3 different sowing rates (2, 3, 4 million units/ha), the highest stem height was 4 million units/ha according to sowing norms, sowing was observed 55.5 and 58.8 cm, respectively in the autumn period and according to the varieties. At this sowing rate, the stem height was higher in the following periods: in spring - 48.8 and 52.2, in summer - 44.8 and 48.5 cm. In this case, the relationship between sowing dates and stem height was positive, and the correlation coefficient was equal to $r=0.99$ in autumn, $r=0.99$ in spring planting, and $r=0.98$ in summer.

Keywords: Oltin don, Darmon, Lintel cultivars, sowing norms, sowing dates, stem height, growth rate

КИРИШ

Ясмиқ энг қадимий озиқ-овқат экинларидан биридир. Ясмиқ донининг таркибида 23-32 % оқсил, 0,6-2,1 % мой, 47-70 % азотсиз экстрактив моддалар, 2,3-4,4 % кул, 2,4-4,9 % тўқима ва В гуруҳ витаминлар мавжуд. Ясмиқ дони овқатга бутунлигича, ёрма ёки ун қилиб ишлатилади. Поясининг таркибида 6-14 % оқсил бўлади [1; 209-217-б].

Хўраки ясмиқ, бир йиллик ўсимлик бўлиб, беш турни ўз ичига олади, бўйи 20-75 см гача етади. Пояси ингичка, эгатчали, тўрт қиррали бўлиб, тўғри ўсади. Илдизи ўқ илдиз, сусти ривожланган, барглари мураккаб жуфт патсимон, 2-8 жуфт овал баргчалари бор, жингалаклар билан тугалланади. Гуллари майда, оқ, пушти, бинафша рангда калта бандли бўлиб, барг қўлтиқларида 1-4 тадан жойлашади. Биологик хусусияти бўйича баҳорги, совуққа чидамли, амал даври 75-115 кун, ўзидан чангланади, озиқ-овқатда ва ем-хашак етиштиришда ишлатилади ([4; 18-Б], [6; 19-22-б]).

Г.С.Посипанов маълумотиға кўра ясмиқ иссиқсевар ўсимлик, сувсизликка бошқа дон-дуккакли экинларга нисбатан чидамлироқ. Амал даврининг бошларида секин ўсади, шунинг учун дала жуда тоза бўлиши талаб қилинади. Тупроқ муҳити нейтрал, энгил тупроқларда яхши ўсади. Майса -5°C совуққа бардош беради [2; 230-231-б].

Дуккакли - дон экинлари, шу жумладан ясмиқ экини ер устки вегетатив органи поясининг юқори қисми гул билан тугамайди, шунинг учун ясмиқ ўсимлиги ташқи муҳитни қулай шароитига қараб чекланмаган ҳолда узоқ вақт ўсиши мумкин. Ўсимликларда ташқи муҳит омиллари таъсирида яъни, тупроқ намлигининг пасайиши ва ҳаво ҳароратининг кўтарилиши ҳамда ўсимлик ривожланишининг генератив фазасининг бошланиши билан ўсиш суръати (тезлиги) сезиларли даражада қисқаради [5; 21-б].

В.М.Самаров, А.И.Тарасенко [3; 23-25-б.] нинг таъкидлашича, ясмиқ ўсимлиги бўйининг баландлиги экиш муддатларига боғлиқдир. Олимларнинг кўрсатишича ясмиқ навининг кузда экилганда ўсимлик бўйи баҳорда экилганга нисбатан 10-15 см гача баланд бўлади.

2011-2013 йилларда ўтказилган тажрибаларимизда ясмиқнинг Олтин дон ҳамда Дармон навларида 3 та муддатда, яъни кузда, баҳорда ва ёзда-такрорий муддатда, 3 та меъёрда, яъни 2 млн.дона/га, 3 млн.дона/га ва 4 млн.дона/га меъёрларида экиб, турли экиш муддатлари ва меъёрларининг ўсимликларнинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири ўрганилди.

НАТИЖАЛАР

Ясмиқ навлари кузда экилганда экиш меъёри ошган сари поя баланглиги ошиб борган. Олтин дон навида амал даврини бошланишида биометрик

ўлчовлар олиб борилганда энг кам экилганда поя баландлиги ўртача 17,6 см ни ташкил қилган. Экиш меъёри 1 млн донага ошганда поя баландлиги 2,1 см, яъни 10,7 % га ошган. Экиш меъёри яна бир миллионга оширилганда поя баландлиги 3,6 см, 17,0 % га ошган. Дармон навининг поя баландлиги Олтин дон навидан юқори бўлиб, амал даврининг бошида кам экилганда 19,7 см га тенг бўлган, ҳар бир экиш меъёри ошганда 3,2 ва 6,0 см, яъни 14 ва 23,3 % га ошганлиги аниқланган (1-жадвал).

Ясмиқ навлари гуллаш даврига кирганда Олтин дон навида энг кам уруғ экилганда поя баландлиги 38,2 см ни ташкил қилган. Экиш меъёри 1 млн донага ошганда поя баландлиги 4,8 см га ортиқ ўсган, экиш меъёри яна бир миллионга оширилганда поя 8,9 см га юқори бўлганлиги кузатилган.

Ясмиқ навлари дуккакланиш даврига кирганда Олтин дон навида поя баландлиги энг кам уруғ экилганда 45,8 см ни ташкил қилган, экиш меъёри ошган сари поя баландлиги 5,0 ва 9,3 см га ошганлиги аниқланган. Дармон навида экиш меъёрлари ошган сари поя баландлиги ошиб бориб 5,1 ва 8,5 см га юқори бўлганлиги аниқланган. Экиш меъёри ошганда экинзорда ёруғлик камаяди, ўсимликлар ёруғликка интилиб ўсади.

Ясмиқ навлари баҳорда экилганда экиш меъёри ошган сари поя баландлиги ошиб борган. Олтин дон навида амал даврини бошланишида биометрик ўлчовлар олиб борилганда энг кам экилганда поя баландлиги ўртача 14,8 см ни ташкил қилган. Экиш меъёри 1 млн донага ошганда поя баландлиги 2,2 см, яъни 12,9 % га ошган. Экиш меъёри яна бир миллионга оширилганда поя баландлиги 3,2 см, яъни 17,2 % га ошган (1-жадвал).

Дармон навининг поя баландлиги Олтин навидан юқори бўлиб, амал даврининг бошида 1 миллион дона/га экилганда 16,9 см га тенг бўлган, экиш меъёри ошган сари поя баландлиги 3,5 ва 7,6 см, яъни 17,1-31,0% га ошганлиги аниқланган.

1-жадвал

Ясмиқ навлари поя баландлигига экиш муддати ва меъёрининг таъсири, см (2011-2013 йй)


Вариантлар	Ривожланиш давлари				
	навлар	Экиш меъёри, млн дона/га	шохланиш	гуллаш	дуккаклаш
Кузги					
Олтин дон	2	17,6	38,2	45,8	
Олтин дон	3	19,7	43,0	50,8	
Олтин дон	4	21,2	47,1	55,5	
Дармон	2	19,7	44,4	51,1	
Дармон	3	22,9	49,1	54,7	
Дармон	4	25,7	53,8	58,8	
Баҳорги					

	Олтин дон	2	14,8	35,4	40,8
	Олтин дон	3	17,0	39,1	43,8
	Олтин дон	4	18,6	44,3	48,8
	Дармон	2	16,9	40,8	43,7
	Дармон	3	20,5	45,0	47,8
	Дармон	4	24,5	48,2	52,2
Ўзги (такрорий)					
	Олтин дон	2	12,7	28,1	35,6
	Олтин дон	3	15,9	35,2	38,4
	Олтин дон	4	18,7	40,2	44,8
	Дармон	2	14,7	34,3	40,7
	Дармон	3	19,0	39,1	44,5
	Дармон	4	23,9	44,2	48,5

Ясмиқ навлари гуллаш даврига кирганда Олтин дон навида энг кам уруғ экилганда поя баландлиги 35,4 см ни ташкил қилган. Экиш меъёри 1 млн донага ошганда поя баландлиги 3,7 см га ортиқ ўсган, экиш меъёри 4 миллионга оширилганда поя 8,9 см га юқори бўлганлиги кузатилган. Дармон нави экиш меъёрларига боғлиқ ҳолда гуллаш даврида поя баландлиги 40,8 см дан 48,2 см гача ошганлиги кузатилган.

Ясмиқ навлари дуккакланиш даврига ўтганда Олтин дон навида поя баландлиги энг кам уруғ экилганда 40,8 см ни ташкил қилган. Экиш меъёри 1 млн донага ошганда поя баландлиги 3,0 см га ортиқ ўсган, экиш меъёри 4 миллионга оширилганда поя 8,0 см га юқори бўлганлиги кузатилган. Дармон навида экиш меъёрлари ошган сари поя баландлиги 43,7 см дан 52,2 см гача ошганлиги аниқланган. Баҳорда экилганда кузги муддатга нисбатан поя баландлигини камайиши кузгига нисбатан сув билан таъминланиши кам бўлганлиги билан боғлиқ.

Ясмиқ навлари ёзда такроран экилганда экиш меъёри ошган сари поя баландлиги ошиб борган. Олтин дон навида экиш меъёри 1 млн донага ошганда поя баландлиги 3,2 см ёки 20,1% га ошган. Экиш меъёри 4 миллионга оширилганда поя баландлиги 6,0 см ёки 32,1% га ошганлиги аниқланган. Дармон навида экиш меъёрлари ошган сари поя баландлиги ошиб бориб, тегишли равишда 14,7, 19 ва 23,9 см ни ташкил этган. Экиш меъёри оширилганда поя баландлиги биринчи вариантга нисбатан 4,3 ва 9,2 см ёки 22,6 ва 38,95 ни ташкил қилган. Аммо ёзда экилган ясмиқ навларининг поя баландлиги баҳорда экилганига нисбатан Олтин дон навида 5,2-5,4-4,0 см га, кузда экилганига нисбатан 10,2-12,4-10,2 см га кам бўлганлиги; Дармон навида тегишлича-3,7-4,5-3,7 см ва 11,7-10,7-10,3 см га камайганлиги кузатилган. Такрорий экилганда ҳаво ҳарорати юқори бўлганлиги ясмиқ экинига салбий таъсир кўрсатган (1-жадвал).



Ясмиқ навларининг поя баландлиги орасидаги ўзаро корреляцион боғлиқлик.

Юқорида ясмиқ навларининг турли экиш муддатлари ва меъёрларининг поя баландлиги орасида боғлиқлик мавжудлиги кузатишга бўлиб, унга кўра, ясмиқ навларининг кузги, баҳорги ва ёзги муддатда экилганда навларнинг поя баландлиги орасидаги боғлиқлик таҳлил қилинганда ҳар иккала нав ўртасида боғлиқлик тўғри чизиқли характерга эга бўлиб, ижобий хусусиятга эга эканлиги билан тавсифланади. Шунингдек, бу навлар орасидаги корреляцион коэффициент ҳам аниқланди. Унга кўра корреляцион коэффициент тўғри чизиқли характерга эга бўлиб, тегишлича кузги муддатда $r=0,99$, баҳорда экилганда $r=0,99$ ва ёзда $r=0,98$ га тенг бўлганлиги аниқланди (1-расм).

ХУЛОСА

Ясмиқ навлари поя баландлигининг экиш муддатлари ва меъёрларига боғлиқлиги юқори бўлиб, экиш меъёрлари ошиб бориши билан поя баландлиги ҳам ошиб борган ва бу ўсимликнинг ёруғликка бўлган муносабати билан боғлиқ. Кузги муддатга нисбатан баҳорги ва ёзги муддатларда пасайиб борган ва бу фойдали ҳарорат йиғиндисига боғлиқ ҳолда кечган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Атабаева Х.Н., Худайқулов Ж.Б “Донли экинлар биологиясининг илмий асослари”, Тошкент. Фан ва таълим, 2022. Б. 209-217
2. Посыпанов Г.С.-Растениеводство, М.Колос. 1997, С. 230-231

3. Самаров В.М., Тарасенко А.И. Чечевица в Самарской области // II Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – Барнаул, 2011. Вып. № 2 – С. 23-25.
4. Технология весеннего сева зерновых, зернобобовых и масличных культур: //www.agrosector.kz./recommendations-scientists. 2010, п.18.
5. Щигорцова О.Л. Вирощування бобових культур – чини, сочевиці, гороху, нуту в Криму без застосування азотних добрив. // Збірник матеріалів Всеукраїнської науково-практичної конференції «Проблеми та перспективи виведення землеробства в посушливій зоні Степу України», 16–18 червня 2009. – Херсон: ІЗПР УААН, 2009. – С. 161–163.
6. Янова, А.А. Урожайность и морфобиологические особенности сортов чечевицы нового поколения в Центрально-Черноземном регионе РФ // Зерновое хозяйство России. – 2011. - №1(13). - С.19-22.

ЯСМИҚ НАВЛАРИ ДОН СИФАТИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

А.А.Қурбонов, PhD – Тошкент давлат аграр университети

АННОТАЦИЯ

Ясмиқ навлари кузда ва баҳорда гектарига 2, 3, 4 млн дона/га экиш меъёрида экилганда экиш муддатлари ва меъёрлари дон сифатига таъсир кўрсатиб, оқсил миқдори Олтин дон навида экиш меъёри эвазига 1,1-0,2%, Дармон навида 1,2-0,8 % га, баҳорда экилганда Олтин дон навида 0,1-0,6%, Дармон навида 0,2-1,1% га ўзгарган. Ясмиқ донида АЭМ миқдори навлар кузда экилганда экиш меъёри ошиши эвазига Олтин дон навида вариантлар орасида 1,4-0,7%, Дармон навида 0,1-0,9 % га ўзгарганлиги аниқланган. Экиш меъёри ва муддати мой ва тўқима миқдорларига катта таъсир кўрсатмаган.

Таянч сўзлар: Олтин дон, Дармон, Ясмиқ навлари, экиш меъёри, экиш муддати, ҳосилдорлик, дон сифати

EFFECTS OF SOWING DATES AND NORMS ON GRAIN QUALITY OF LENTIL CULTIVARS

A.A.Kurbanov, PhD- Tashkent State Agrarian University

ABSTRACT

When lentil varieties are sown at the rate of 2, 3, 4 million units per hectare in autumn and spring, the sowing dates and norms affect on the grain quality, and the protein content was 1.1-0.2% in the Golden grain variety, 1.2-0.2% in the Darmon variety. By 0.8%, when planted in spring, it changed by 0.1-0.6% in the Oltin don variety, and by 0.2-1.1% in the Darmon variety. It was found that the amount of FNEM in lentil grain changed by 1.4-0.7% in the Oltin don variety and by 0.1-0.9% in the Darmon variety due to the increase in the sowing rate when the varieties were planted in the fall. Sowing rate and date did not significantly affect oil and tissue amounts.

Keywords: Oltin don, Darmon, Lintel cultivars, sowing norms, sowing dates, yield, grain quality

КИРИШ

Ясмиқ жуда серҳосил бўлиб, дони тўйимлилик жиҳатдан қорамол гўштига деярли баробар келади. Ясмиқ дони хуштаъм ва мазали шўрва ҳамда бўтқа тайёрлашда кенг миқёсда ишлатилади. Таом тайёрлашда ясмиқ дони бошқа

дуккакли экинлар донига қараганда тезроқ пишади, айниқса мамлакатимиз шароитида етиштирилган ясмиқ дони анча тез пишади. Озиқ-овқат саноатида ясмиқ донидан консервалар тайёрланади. Ясмиқ дони чорва молларига жуда фойдали емлардан биридир. Ясмиқ пояси (похоли) тўйимлилиги жиҳатидан яхши ўтлоқ пичанига, тупони эса буғдой кепаги билан бир хил. Пояси ва хашаки навлар чорва молларига озуқа сифатида ишлатилади [1; 209-217].

Шунинг учун дунё, шу жумладан мамлакатимизда дон ишлаб чиқаришни кўпайтириш ва аҳолини дон ва дон-дуккакли экинлар маҳсулотларига, экологик тоза, оқсил моддасига эҳтиёжини қондириш бугунги энг долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Кўпчилик олимлар маълумотларига кўра тупроқ унумдорлигини оширишнинг асосий захираларидан бири ва дон-дуккакли (нўхат, мош, ясмиқ, вика, соя ва бошқалар) экин майдонларини кенгайтиришдир. Мазкур экинларда инсон ва ҳайвонлар учун жуда зарур бўлган оқсил ҳамда аминокислоталар тўпланади. Масалан: нўхатда - 20,4-35,7 %, мош донида - 22,3-31,2 %, ясмиқда - 28,0-30,0 %, сояда - 27-50 %, викада - 22,2-28,8 % оқсил бўлади ([6; 51-53]), ([7; 125-126]).

Лалми ерларда ясмиқ экилганда донининг таркибида оқсил 23-32 %, мой 0,6-2,1 %, крахмал 47-70 %, кул 2,3-4,4%, хом клечатка 2,4-4,9 % ни ташкил қилган. Буғдой унига 15-20% ясмиқ уни қўшиб нон ёпилади ([2; 19]), ([3; 43-47], ([4; 37-38]), ([5; 50-51]).

ТАДҚИҚОТ ШАРОИТИ ВА УСЛУБИ

Тажрибада ясмиқнинг Олтин дон ҳамда Дармон навларида турли экиш муддатлари ва меъёрларининг ўсимлик ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигига таъсири ўрганилди. Бунда навлар кузда ва баҳорда 3 та меъёрда, яъни 2 млн.дона/га, 3 млн.дона/га ва 4 млн.дона/га меъёрларида экиб ўрганилди.

Илмий изланишлар «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари» қўлланмалари асосида олиб борилди. Дон таркибидаги оқсил миқдори ГОСТ-13586-1-68 бўйича, ёғ миқдори эса Сокслет усулида аниқланди.

НАТИЖАЛАР

Ясмиқ дуккакли экин бўлганлиги туфайли юқори оқсилли экиндир. Оқсил миқдори дон таркибидаги навнинг белгиси, навнинг биологиясига боғлиқ бўлади, аммо етиштириш технологияси дон таркибидаги оқсилни ўзгартириши мумкин. Оқсил миқдorigа экиш муддатлари ва экиш меъёрлари таъсир кўрсатади.

Иккала экиш муддатида ҳам экиш меъёрини ошиши 2,0 млн дан 3 млн.гача оқсил миқдорини ошишини таъминланган. Аммо экиш меъёри 4 миллион донага оширилганда, кўчат сони кўплиги ва озикланиш майдонининг етарлича бўлмаслиги сабабли оқсил миқдори олдинги меъёрга нисбатан пасайганлиги аниқланди.

1-жадвал

Ясмиқ навлари дон сифатига экиш муддати ва меъёрларининг таъсири

Вариантлар		Сифат кўрсаткичлари, %			
навлар	экиш меъёри, млн.дона/га	оқсил	АЭМ	мой	тўқима
Кузда экилган					
Олтин дон	2	22,1	56,1	0,76	5,6
	3	23,4	54,7	0,76	5,2
	4	22,9	56,9	0,75	5,3
Дармон	2	23,2	56,7	0,78	6,0
	3	24,4	55,6	0,78	5,4
	4	24,0	56,8	0,76	6,2
Баҳорда экилган					
Олтин дон	2	23,2	57,3	0,71	5,7
	3	23,8	56,8	0,73	5,3
	4	23,3	57,6	0,71	5,6
Дармон	2	24,5	58,7	0,67	6,1
	3	25,7	57,3	0,69	5,6
	4	25,6	59,2	0,66	5,9

Навлар кузда 3 млн экилганда Олтин дон навида 1,3 % га, Дармон навида 1,2 % га ошиши кузатилган. Навлар баҳорда экилганда кузги муддатга нисбатан Олтин дон навида 0,5-1,1 % га, Дармон навида 1,3-1,6% га ошганлиги аниқланган.


Экиш муддати оқсил миқдорига таъсир кўрсатиб, ясмиқ навлари баҳорда экилганда оқсил миқдори юқори бўлганлиги кузатилган. Ҳаво ҳарорати юқорироқ ва нисбий намлик камроқ бўлганда оқсил кўпроқ шаклланади.

Severe ipsilateral or bilateral carotid stenosis or occlusion is the most common cause of HIS. The syndrome is associated with blockage of the common carotid artery, the internal carotid artery, less often the external carotid artery. Other reasons include:

- Arteritis Takayasu
- Giant cell arteritis (Horton's disease)
- Severe occlusion of the ophthalmic artery due to thromboembolism.
- Surgical interruption of the anterior ciliary blood vessels supplying the eye, especially during extensive strabismus surgery on three or more rectus muscles leading to the anterior segment of the ischemic syndrome.

Complications

Due to prolonged ischemia, neovascularization develops, which can be located on the retina, iris, and anterior chamber angle (ACA). With obliteration of the APC, secondary "neovascular" glaucoma develops, which, in the absence of antihypertensive therapy and surgical treatment, primarily of damaged carotid arteries, in a short time (depending on the level of intraocular pressure (IOP)) leads to a complete irreversible loss of visual functions.

Treatment and management

Rapid identification of the cause can lead to urgent measures to save the eyes and life of the patient. There should be high clinical suspicion of painless vision loss in patients with atherosclerosis, deep vein thrombosis, atrial fibrillation, pulmonary embolism, or other previous embolic episodes. Caused by carotid embolism or occlusion, they can lead to stroke due to separation of the emboli and their migration to the terminal cerebral artery. Therefore, steps must be taken to eliminate this possibility.

Due to prolonged ischemia, neovascularization develops, which can be located on the retina, iris, and anterior chamber angle (ACA). With obliteration of the APC, secondary "neovascular" glaucoma develops, which, in the absence of antihypertensive therapy and surgical treatment, primarily of damaged carotid arteries, in a short time (depending on the level of intraocular pressure (IOP)) leads to a complete irreversible loss of visual functions.

Treatment and management

Rapid identification of the cause can lead to urgent measures to save the eyes and life of the patient. There should be high clinical suspicion of painless vision loss in patients with atherosclerosis, deep vein thrombosis, atrial fibrillation, pulmonary embolism, or other previous embolic episodes. Caused by carotid embolism or occlusion, they can lead to stroke due to separation of the emboli and their migration to the terminal cerebral artery. Therefore, steps must be taken to eliminate this possibility.

Retinal arterial occlusion is an ophthalmic emergency and timely treatment is essential. In animal models, completely anoxic retinas show irreversible damage within 90 minutes. Non-specific methods to increase blood flow and remove emboli include digital massage, 500 mg IV acetazolamide, and 100 mg IV methylprednisolone (for possible arteritis). Additional measures include aqueous puncture to drastically lower IOP. ESR will indicate the presence of giant cell arteritis. Improvement can be determined by visual acuity testing, visual field test, and ophthalmoscopic examination.

At a later stage, pan-retinal photocoagulation (PRP) with an argon laser appears to be effective in reducing neovascular components and their complications. The visual prognosis for ocular ischemic syndrome usually varies from bad to good (poor to fair), depending on the speed and effectiveness of the intervention. However, rapid diagnosis is critical in providing signs of serious cerebrovascular problems and coronary heart disease.

In 2009, the Underwater and Hyperbaric Medical Society (UHMS) added “central retinal artery occlusion” to its list of approved indications for hyperbaric oxygen therapy (HBOT). Prevention of vision loss requires certain conditions: treatment must be started before irreversible damage occurs (over 24 hours), occlusion must not occur in the ophthalmic artery, and treatment must continue until saturation of the inner layers of the retina with oxygen through the retinal arteries is restored.

Conclusion

The visual prognosis for ocular ischemic syndrome usually varies from bad to good (poor to fair), depending on the speed and effectiveness of the intervention. However, rapid diagnosis is critical in providing signs of serious cerebrovascular problems and coronary heart disease.

Literature

1. SS Nabiyeva, AA Rustamov, MR Malikov, NI Ne'matov // [Concept Of Medical Information](#) // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7 (7), 602-609 p, 2020
2. Qarshiev A.B. S.S. Nabieva, A.Sh. Egamqulov Medical information Systems // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Issue 04, Vol. 72, 2019 y.
3. HA Primova, TR Sakiyev, SS Nabiyeva // [Development of medical information systems](#) // Journal of Physics: Conference Series 1441 (1), 012160, 2020
4. SS Nabiyeva, OB Axmedov, MR Malikov, LE Shukurov // [LABORATORY INFORMATION SYSTEMS](#) // Archive of Conferences, 9 (1), 282-286 p, 2020
5. Sakiev T., Nabieva S. Architecture of the medical information system. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Section 4. Computer science, computer injeengineering and automation. Issue: 05 Volume: 61. Published: 14/05/2018. p. 35-39
6. Sakiev T., Nabieva S. Principles of computer design. International scientific and practical journal "Theory and Practice of Modern Science" Issue No. 7 (25) (July, 2017).
7. Primova H. Sakiev T., Nabieva S. Development of medical information systems. XIII International scientific and technical conference "Dynamics of Systems, Mechanisms and Machines" November 2019, Omsk, Russia. (Scopus).
8. Karshiev A., Nabieva S., Nabiyeva I. Medical information systems. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. SECTION 4. Computer science, computer injeengineering and automation. Issue: 04 Volume: 72. Published: 30/04/2019. 505-508 p.
9. Sakiev T., Nabieva S. Typical processes of AWP. International scientific and practical journal "Theory and Practice of Modern Science" Issue No. 7 (25) (July, 2017).
10. AB Karshiev, XA Primova, SS Nabiyeva, AS Egamkulov // [Architectural integration problems of MIS](#) // ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 733-739 p.

**BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TALAB TUSHUNCHASIGA
TURLI XIL ILMIY YONDASHUVLAR**

To'liboyev Qudrat Olimjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich talabasi


Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning asosiy tushunchalari hisoblanmish talab, talab va taklif mutanosibligi hamda bugungi kunda bozor munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Bozor, bozor munosabatlari, iqtisodiy munosabatlar, taklif va talab, sotish, tovar, pul, narx.

Talab va taklif — bozor iqtisodiyotining fundamental tushunchalari. Talab (tovarlar va xizmatlarga talab) — xaridor, iste'molchining bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi; bozorga chiqqan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlangan ehtiyojlari. Ehtiyoj pul va narx vositasida talabga aylanadi. Rasman olganda talab iste'mol kattaligi miqdoridir. Tovarlar dunyosidagi xilma-xillikka moyil ravishda talab hosil bo'ladi.

Masalan, oziqovqat tovarlari, sanoat mollari, maishiy va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talablar tovarlarga talab tuzilmasini tashkil etadi. Mazmuni va harakati jihatidan haqiqiy, o'sayotgan, barqaror qondirilgan, qondirilishi kechiktirilgan, qondirilmagan, me'yordagi va boshqa talablarga bo'linadi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxon, firmaning biror tovar to'plamiga yoki tovarlarga bildirilgan talablari yakka talab deyiladi. Muayyan tovarga yoki tovarlar to'plamiga barcha xaridorlar bildirgan talab yig'indisi bozor talabi, barcha bozorlarda barcha tovarlarga jamiyat miqiyosida bildirilgan ijtimoiy talab yalpi talab deyiladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning o'rasida eng muximi narx omilidir. Tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishi va aksincha, narxning o'sishi xarid miqdorining kamayishiga olib keladi.

Talab va taklif narxni shakllantiradi, shu bilan birga narx talab va taklif o'rtasidagi nisbatni aniqlab beradi.



S - taklif

D - Talab

P - mahsulot narxi

Q - mahsulot miqdori

Taklif — muayyan vaqtda va muayyan narxlar bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin boʻlgan tovarlar va xizmatlar miqdori bilan ifoda etiladi; taklif ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larning oʻz tovarlarini sotishga (bozorga) taklif etish istagi. Bozorda tovar narxi bilan uning taklifi miqdori oʻrtasqda bevosita bogʻliqlik mavjud: narx qanchalik yuqori boʻlsa, boshqa sharoitlar oʻzgarmagan hollarda, sotish uchun shuncha koʻproq tovar taklif etiladi, yoki aksincha, narx pasayishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Masalan, 10 soʻm narxda 3 tovar birligi taklif etiladi, agar narx 15 soʻmga koʻtarilsa, taklif hajmi 5 birlikka qadar koʻpayadi, agar narx 20 soʻmga yetsa, taklif hajmi 6 birlikka yetadi. Shunday qilib, taklif miqdorining oʻzgarishlari taklif egri chizigʻida bir nuqtadan ikkinchisiga koʻchishida oʻz ifodasini topadi. Egri chiziqning ijobiy ogʻishi tovar narxi bilan uning taklifi miqdori oʻrtasidagi bevosita bogʻliqlikni aks ettiradi.

Tovar taklifiga, tovarning oʻz narxidan tashqari bir qator omillar: shu tovarni ishlab chiqarish uchun zarur boʻlgan resurslar narxlari; qoʻllaniladigan texnologiya; soliqlar va dotatsiyalar; taqchilik yoki narxlar oʻzgarishlarini kutish; bozordagi sotuvchilar soni va boshqa taʼsir koʻrsatadi. Mas., resurelarning arzonlashuvi muayyan tovarni ishlab chikarish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa uning taklifi oʻsishini stimullaydi. Taklifning oʻziga taʼsir koʻrsatadigan omillar oʻzgarishlariga, birinchi navbatda, narx oʻzgarishlariga sezgirligi taklif elastikligi deb ataladi.

Taklif va talabning tub mazmuni ularning narx orqali oʻzaro aloqadorlikda mavjud boʻlishidir. Bu aloqadorlik — talab va taklif qonuni bozor iqtisodiyotining obʼyektiv qonuni hisoblanadi. Taklif va talab qonuniga koʻra bozordagi taklif va talab faqat miqdoran emas, balki oʻzining tarkibi jihatidan ham bir-biriga moye kelishi kerak, shundagina bozor muvozanatiga erishiladi. Bu qonun ayirboshlash qonuni

bo‘lib, bozorni boshqaruvchi va tartiblovchi kuch darajasiga ko‘tariladi. Unga ko‘ra bozordagi talab o‘zgarishlari darhol ishlab chiqarishga yetkazilishi kerak. Bozordagi Taklif va talab nisbatiga qarab ishlab chiqarish sur‘atlar va tuzilmasi tashkil topadi. Jamiyat bu qonundan bozor muvozanatiga alokador omillarga ta’sir etish orkali foydalanadi. Taklif va talab qonunning nazariy asoslari dastlab A. Marshall asarlarida ifodalab berilgan.

Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo‘lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko‘rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta‘minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab — bu pul bilan ta‘minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta‘minlanmasa, u "xohish", "istak" bo‘lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo‘ladi, chunki narx o‘zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o‘zgaradi. Shu bog‘liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: ma‘lum vaqt oralig‘ida, narxlarning mavjud darajasida iste‘molchilarning tovar va xizmatlar ma‘lum turlarini sotib olishga qodir bo‘lgan ehtiyoji.

Talab miqdorining o‘zgarishiga bir qancha omillar ta’sir qiladi. Ularning orasida eng muximi narx omilidir. Tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o‘sishi va aksincha, narxning o‘sishi harid miqdorining kamayishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, bugun kunda davlatlar o‘rtasida ham bozoq va iqtisodiy munosabatlar o‘rnatish va siyosiy-iqtisodiy aloqalar har bir davlatning manfaati, ya’ni, ijtimoiy talabidan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Talab doimo bozor munosabatlarida asosiy va oldingi darajadagi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi” Farmoni PF-4947-son Farmoni bo‘yicha Harakatlar strategiyasi
2. Blythe, Jim. Marketing asoslari / Jim Blythe.- 3-nashr. 2005. – 375 bet.
3. Ergashxo‘jaeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.TDIU, 2011.-202 b.
4. Marketing tushunchalariga kirish. Grem Drummond, Jon Ensor, Oksford, 2005. 282 bet.
5. Jon Bernett. Marketingning asosiy tushunchalari: global matn. 2008.- 298 bet.
6. Marketing menejmenti/ Filipp Kotler, Kevin Leyn Keller. – 14-nashr. Pearson Education, Inc. 2012 - 657 bet.
7. Marketing tadqiqotlari: asboblari va texnikalar. Nayjel Bredli. 3-nashr, Oksford universiteti nashriyoti. 2013 yil - 527 bet.

ТАКРОРИЙ ВА АРАЛАШ СИДЕРАТ ЭКИНЛАРНИНГ ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ

қ.х.ф.д. ¹А.А.Иминов, қ.х.ф.ф.д. ²С.Р.Хатамов,
мустақил тадқиқотчи ²Д.М.Фаниева

¹Тошкент давлат аграр университети, Тошкент

²Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти, Андижон

Аннотация. Қисқа навбатли алмашалб экишнинг 1:1 (ғалла:ғўза) тизимида кузги буғдойдан бўшаган майдонларга такрорий ва аралаш сидерат экин сифатида дуккакли-дон экинларини киритилиши ва ушбу экинларнинг дон ҳосили йиғиштириб олингандан сўнг поя ҳосилини, аралаш сидерат экинларнинг эса кўк масса ҳосилини кўк ўғит сифатида шудгор остига ҳайдаб юборилиши бир ротациянинг якунида тупроқдаги органик углерод миқдорини 0,041-0,073 % га, умумий азот миқдорини 0,008-0,016 % га, умумий фосфор миқдорини 0,012-0,015 % га ортишини таъминлади.

Калит сўзлар. Тупроқ, азот, фосфор, калий, такрорий экин, соя, ловия, мош, перко, сули, кўк нўхат, кузги буғдой, ғўза.

Abstract. In the 1:1 (cereal:cotton) system of short-rotation sowing, introduction legume crops as a repeated and different mixed siderate crop in the fields of free of winter wheat, and after gathering the grain yield of these crops, the stem harvest and the green mass yield of the different mixed siderate crops are plowed as green fertilizer. at the end of one rotation, it increased the amount of organic carbon in the soil by 0.041-0.073%, the amount of total nitrogen by 0.008-0.016%, and the amount of total phosphorus by 0.012-0.015%.

Key words: Soil, Nitrogen, Phosphorus, Potassium, Repeated Crop, Soybeans, Beans, Mung Beans, Perco, Oats, Green Peas, Winter Wheat, Cotton.

Кириш. Экинларни яхши ўсиши, ривожланиши, юқори миқдорда ҳосил бериши ва улардан олинадиган ҳосилнинг сифат кўрсаткичларини яхши бўлиши тупроқдаги озиқа моддалар миқдorigа ҳам боғлиқ. Қисқа навбатли алмашлаб экиш тизимларида кузги буғдойдан бўшаган майдонларда етиштириладиган такрорий экинларни тўғри танланиши эса тупроқнинг унумдорлик қобилятини сақлашда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Республикамизнинг суғориладиган майдонларида экилаётган қишлоқ хўжалик экинлари асосини ғўза ва кузги бошоқли-дон экинлари ташкил этади. Республикамизнинг бир миллион гектардан ортиқ суғориладиган майдонларида ҳар йили кузги бошоқли-дон экинлари етиштирилади. Демак, кузги буғдой йиғиштириб олингандан сўнг шунча миқдордаги майдонда такрорий экинлар

етиштириш имконияти пайдо бўлади. Шуни ҳисобга олиб, кузги буғдойдан бўшаган майдонларда асосий эътиборни аҳолини кундалик озиқ-овқат талабларини қондирадиган дуккакли-дон, дон, сабзавот ҳамда ем-хашак экинларини такрорий, оралиқ ва сидерат экин сифатида етиштириш келгусида республикамизда озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустақкамлашга, аҳолини қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини тўла қондиришга замин яратади [3].

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Тупроқнинг таркибидаги чиринди, азот, фосфор ва калий миқдорларининг умумий ва ҳаракатчан шакллари ўзгаришига кузги буғдойдан кейин экиладиган такрорий экинлардан дуккакли-дон экинларининг таъсири алоҳида ўрин тутди. Чунки, дуккакли-дон экинларидан қоладиган илдиз-анғиз қолдиқлари миқдори, улар тез вақт ичида турли шаклдаги озиқа моддаларга айланиб, тупроқнинг унумдорлиги ҳамда кейинги йил экиладиган экинлар ҳосилдорлигини ошишига ижобий таъсир кўрсатишини аниқлашган [5, 8, 10,].

Қисқа навбатли алмашлаб экиш тизимларида кузги буғдойдан сўнг такрорий ва оралиқ экинларни экилиши ҳисобига ушбу экинларнинг илдиз-анғиз қолдиқлари тупроқ қатламларида маълум миқдорда қолиб, улар маълум вақт ичида микроорганизмлар таъсирида озиқа моддаларнинг турли шаклларига айланиб, тупроқ унумдорлигини сақланишига олиб келади. Бунда, асосан тупроқ унумдорлигини сақланишида чириндининг таъсири катта бўлиб, тупроқда қолган илдиз-анғиз қолдиқларини синтез қилиб, унинг миқдорини кўпайиши кузатилган [2, 4, 7, 9, 11].

Тошкент вилоятининг эскитдан суғориладиган типик бўз тупроқлари шароитида олиб борилган тадқиқотлари натижаларига кўра, ўсимликларни тупроқда қолдирадиган илдиз ва анғиз қолдиқлари кузги буғдой ва ундан сўнг такрорий экин турига боғлиқдир. Анғизга соя экилганда ўртача 4,5-5,0 ц/га, кузги-қишки мавсумларда оралиқ экинлар бир ротацияда (1-2 йилда) 9,5-14,5 т/га миқдорида ўсимлик қолдиқларини тупроқда қолдиради. Органик қолдиқларни чириши натижасида уларнинг таркибидаги NPK элементлари тупроққа қайтгади. Шунингдек, улар тупроқда гумус захираларини яратишда ҳам муҳим омил бўлиб ҳизмат қилади [7].

Тадқиқот ўтказиш шароити ва услублари. Тадқиқотларимиз 2009-2011 йиллар мобайнида Тошкент вилоятининг эскитдан суғориладиган типик бўз тупроқлари шароитларида олиб борилди.

Тадқиқотларни олиб боришда қисқа навбатли алмашлаб экишнинг 1:1, (кузги буғдой+қора шудгор:ғўза), 1:1 (кузги буғдой+такроирий экин соя:ғўза), 1:1 (кузги буғдой+такроирий экин ловия:ғўза), 1:1 (кузги буғдой+такроирий экин мош:ғўза), 1:1 (кузги буғдой+аралаш сидерат экинлар перко, сули, кўк нўхат

аралашмалари:ғўза) тизимларида кузги буғдой ва ундан сўнг такрорий ва аралаш сидерат экин сифатида етиштириладиган дуккакли-дон экинларининг тупроқдаги озика моддалар миқдорларининг ўзгаришига таъсири ўрганилди. Тажриба 5 та вариантдан иборат бўлиб, ҳар бир вариантнинг умумий эгаллаган 240 м², ҳисобга олинмайдиган майдон 120 м². Дала тажрибаси 4 такрорланишда олиб борилиб, 4 ярусга жойлаштирилган.

Тадқиқотлар дала ва лаборатория шароитларида олиб борилиб, бунда дала тажрибаларини жойлаштириш, ҳисоблашлар ва кузатувлар “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари”, тупроқ ва ўсимликлардаги таҳлиллар “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах” услубий қўлланмалари асосида олиб борилган [1, 6].

Дала тажрибаларини олиб боришда фойдаланилган барча қишлоқ хўжалик экинларини парваришlashда минерал ўғитлардан: аммиакли селитра (N 33-34 %), аммофос (N 11-12 %, P₂O₅-46%), супрефос (N 5-6 %, P₂O₅-32%), калий хлор (K₂O-60 %) қўлланилди.

Тадқиқот натижалари. Тадқиқотлардан олинган маълумотларга қараганда тупроқдаги органик углерод миқдори тупроқнинг ҳайдов қатламида (0-30 см) 0,476 % ни, ҳайдов ости қатламида 0,425 % ни ташкил этган бўлса, азот миқдори тегишли равишда 0,074-0,065 % ни, фосфор миқдори эса 0,162-0,144 % ни ташкил этди. Озика элементларини ҳаракатчан шакллари N-NO₃ миқдори тупроқнинг 0-30 см қатламида 4,3 мг/кг, P₂O₅ миқдори 10,8 мг/кг, K₂O миқдори эса 220 мг/кг ни ташкил этди.

Бундан кўриниб турибдики, тажриба ўтказилган дала азот ва фосфор билан жуда кам даражада, калий билан эса ўрта даражада таъминланганлиги маълум бўлди.

Тадқиқотларда кузги буғдойдан сўнг такрорий ва аралаш сидерат экинлар сифатида парваришланган дуккакли-дон экинларини тупроқдаги озика моддалар миқдorigа таъсир этганлиги аниқланди. Ғўзанинг ўсув даври охирида яъни қисқа навбатли алмашлаб экишнинг 1:1 (ғалла:ғўза) тизимида бир ротация якунида тупроқдаги органик углерод миқдори аниқланганда (0-30 см қатламда) энг юқори кўрсаткич кузги буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида ловия ва аралаш сидерат экинлар (перко, сули, кўк нўхат) экилган 3 ва 5-вариантларда кузатилиб, дастлабки кўрсаткичга нисбатан 0,061-0,073 % га ортган бўлса, кузги буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида соя ва мош экилган 2, 4-вариантларда эса 0,041-0,042 % га ортганлиги аниқланди. Назорат вариантыда эса тупроқдаги органик углерод миқдори 0,480 % ни ташкил этиб, дастлабки кўрсаткичга нисбатан 0,004 % га ортганлиги аниқланди.

Такрорий ва аралаш сидерат экинларни фонига экилган ғўзанинг ўсув даври охиридаги тупроқдаги озика моддалар миқдори, %
(Ќўзанинг амал даври охири, 2010 йил, куз)

Вар	Такрорий ва аралаш сидерат экин турлари	Тупроқ қатламлари, см	Умумий формаси, %			Харакатчан формаси, мг/кг		
			С	Н	Р	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
	Ќора шудгор	0-30	0,480	0,076	0,110	10,6	11,6	230
		30-50	0,430	0,066	0,099	8,0	10,2	210
	Соя	0-30	0,517	0,083	0,124	12,0	16,4	270
		30-50	0,455	0,072	0,102	9,1	13,1	220
	Ловия	0-30	0,537	0,086	0,125	17,6	14,9	260
		30-50	0,476	0,073	0,104	11,0	11,8	240
	Мош	0-30	0,518	0,082	0,124	13,8	13,7	230
		30-50	0,459	0,071	0,102	9,0	10,6	210
	Аралаш сидерат экинлар (перко, сули, кўк нўхат)	0-30	0,549	0,090	0,127	14,9	15,1	260
		30-50	0,474	0,080	0,106	11,8	11,8	230

Такрорий ва аралаш сидерат экин сифатида дуккакли дон экинлари экилган вариантларда тупроқдаги органик углеродни ортишига асосий сабаб, такрорий экин сифатида экилган соя, ловия, мош экинларининг дон ҳосили йиғиштириб олингандан сўнг уларнинг пояси кўк ўғит сифатида кузги шудгор остига хайдаб юборилган бўлса, аралаш сидерат экинлар (перко, сули, кўк нўхат) ҳосил қилган кўк масса ҳам кўк ўғит сифатида хайдаб юборилди. Тупроқнинг таркибидаги умумий азот миқдори бўйича олиб борилган таҳлил натижаларига кўра, энг юқори кўрсаткич кузги буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида ловия (3-вар.) ва аралаш сидерат экинлар (5-вар.) экилган вариантларда кузатилиб, тупроқнинг 0-30 см қатламида тегишли равишда 0,012-0,016 % га ортганлиги аниқланди. Қолган вариантларда ҳам юқоридаги тупроқнинг таркибидаги органик углерод миқдорини аниқлашдаги қонуниятлар кузатилди. Тажрибанинг қолган йилларида ҳам ушбу қонуниятлар сақланиб қолди.

Хулоса. Қисқа навбатли алмашалб экишнинг 1:1 (ғалла:ғўза) тизимида кузги буғдойдан бўшаган майдонларга такрорий ва аралаш сидерат экин сифатида дуккакли-дон экинларини киритилиши ва ушбу экинларнинг дон ҳосили йиғиштириб олингандан сўнг поя ҳосилини, аралаш сидерат экинларнинг эса кўк масса ҳосилини кўк ўғит сифатида шудгор остига хайдаб юборилиши бир ротациянинг якунида тупроқдаги органик углерод миқдорини 0,041-0,073 % га, умумий азот миқдорини 0,008-0,016 % га, умумий фосфор миқдорини 0,012-0,015 % га ортишини таъминлайди.

Адабиётлар

1. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари – Тошкент. 2007. 180 б.
2. Gutsche V., Sbrassemeyer J. Sunops-ein modeli zwr bewertung des unwelt risikopotentials von chemischen pflanzenschutz mitteln. //Nachzichzenblaft Deutscher Pfeanzenschutzdienst. 2007 59(9). 1. p. 97-210.
3. Иминов А.А., Хатамов С.Р. “Қисқа навбатли алмашлаб экиш тизимларида органо-маъдан компост ва маъдан ўғитлар қўллашнинг илмий асослари” Тошкент 2020 йил, Navro`z нашриёти, Шартли босма табоғи: 8,25.
4. Iminov Abduvali Abdumannobovich, Hatamov Salimjon Rakhimjon Ugli, Mirzaev Shokhrukh Fayzullaevich, Kuziboev Shukhratjon Tursinalievich “Impact of norms of organo-mineral compost and mineral fertilizer on the productivity of soil and winter wheat” International Journal of Botany Studies VOL. 5, ISUUE 6 (2020) PAGES: 128-136.
5. Мирзажонов Қ. – Экинларни алмашлаб экишни аҳамияти. // Ж. Ўзбекистон кишлок хўжалиги. 2012. № 12. Б. 26.
6. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевых хлопковых районах. Ташкент. СоюзНИХИ. 1963, с. 439.
7. Намозов Ф., Холиқов Б. Қисқа навбатлаб экишда ўсимликларнинг тупроқда қолдирган органик қолдиқлари. // Агро илм. Ўзбекистон кишлок хўжалик журнали иловаси. 2013. № 4 [28] son. Б. 18-19.
8. Орипов Р., Бўриев А. – Тупроқ унумдорлиги ва сидерация. //Ўзбекистон тупроқлари ва ер рурсурлари: улардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. Тошкент. 2008 йил. Б. 123-125.
9. Тиллаев Р.Ш. – Яна тупроқ унумдорлиги ҳақида. //Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Тошкент. 2014. Б. 5-8.
10. Турсунходжаев З.С., Бекмурзаев О. – Эффективность промежуточной культуры. Получения двух урожаев кормов и их влияние на урожайность хлопчатника на староорошаемых землях Голодной степени. //Круглогодное использование орошаемых земель. Ташкент. 1981. Вып. 46. С. 55-59.
11. Халиқов Б.М., Намозов Ф.Б., Иминов А.А. “Ўўза-ғалла қисқа навбатлаб экиш тизимларининг тупроқдаги озика моддалар миқдорига таъсири” // “Қишлоқ хўжалигида янги тежамкор агротехнологияларни жорий этиш” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси маърузалари тўплами. ЎзПИТИ. Тошкент-2011. Б. 60-62.

УДК 634.93 +634.956.584

ТЕХНОЛОГИЯ ГЕНЕРАТИВНОГО РАЗМНОЖЕНИЯ КЛЕНА ПОЛЕВОГО (ACER CAMPESTRE) В ТАШКЕНТСКОМ ОАЗИСЕ

Хакимов Шавкат Вахобитдинович¹,

Каландаров Мухитдин Махмудович²

¹магистрант 2 курса, Тошкентский государственный аграрный университет,

²профессор Тошкентский государственный аграрный университет.

Аннотация. В последнее время большое внимание в лесных хозяйствах Республике уделяют лесомелиоративным работам по предотвращению эрозионных процессов и озеленению населенных пунктов. В связи с этим для озеленительных работ используют интродуцированные древесные растения, одним из них является – клен полевой –(Acer campestre).

Разработка генеративных метод размножения Клена полевого, является первым этапом внедрения данного вида в культуру лесных хозяйств республики. Для выявления оптимальных вариантов семенного размножения было произведен сбор и высев семян в нескольких вариантах.

Ключевые слова: Клен полевой, генеративное размножение, всхожесть, Рибав Экстра, Эпин-Экстра, циркон

Annotation. In recent years, the forestry sector of the Republic has paid a great deal of attention to forest reclamation works to prevent erosion processes and to planting greenery in settlements. In this regard, introduced woody plants are used for landscaping works, one of them is a field maple (Acer campestre).

Development of generative methods of propagation of Field Maple is the first stage of introduction of this species into culture of forestry farms of the republic. To identify optimal variants of seed multiplication, seeds were collected and sown in several variants.

Key words: Field maple, generative propagation, germination, Ribav Extra, Epin-Extra, Zircon

Объект исследования. Клен полевой - дерево третьей величины, покрытое тонкой серой гладкой корой [1]. Клен является одним из главных компонентов второго яруса в дубравах. Дает пневую поросль, отводки, а при повреждении корней – корневые отпрыски. Листья небольшие, 3-5 лопастные, сверху зеленые, снизу желто-зеленые, осенью золотисто-желтые. Данный вид требователен к плодородию почвы, переносит сухость и некоторую засоленность почвы. Легко

переносит стрижку. Порода довольно медленнорастущая. Поднимается в горы до 1800м абс. выс. над уровнем моря. Теневынослив, но хорошо растет и в солнечных местах. Зимостоек. Засухоустойчив, может расти без полива. Хорошо переносит копоть,пыль и дым. Доживает до ста лет.

Цветет в апреле-мае, Медонос. Плод-двукрылатка, 2-3,5 см длины, с горизонтально расходящимися крыльями; плодоносит в сентябре-октябре, в 1кг 12,5 -20 тыс.шт. семян, вес 1000 штук 40-85г [2].

Широко используется в садах и парках Узбекистане. Хорошо растет в городе Ташкенте и Ташкентском оазисе, здесь достигает до 15м высотой.

Размножается посевом обескрыленных плодов ; осенью -сразу после сбора, весной -после одного -двух месяцев стратификации. Растет сравнительно медленно.

Методика генеративного размножения.

Семена после обработки перманганатом калия просушили при воздушно-комнатной температуре. Далее провели их обработку стимуляторами: Рибав Экстра, Эпин Экстра, Циркон. Время замачивания и концентрацию раствора регламентировали согласно инструкции по применению препаратов [3,4,5]. После замачивания семена были посеяны в гряды . Весенний посев семян проводили 17 марта 2021 года. Летний посев проводили 18 августа 2021. Осенний посев семян проводили 18 сентября 2021 года, а также 19 октября. При этом семена высеянные 19 октября обрабатывали свежеприготовленным раствором биоудобрений, содержащим бактерии метанового брожения.

Результаты исследований.

При весеннем посеве, проводившемся 17 марта первые всходы появились через 21 день, то есть 7 апреля. К 20 апреля всхожесть семян составила 17%. Из них большая часть взошедших семян была обработана Рибав-экстра. Как видно, из Табл. 1 Семена зимне-весеннего сбора обладают меньшей всхожестью, чем семена после хранения. Так суммарные показатели всхожести семян после хранения на 5% выше, чем у семян собранных в зимне-весенний период. В обоих случаях обработка водой (контроль) и Цирконом не дали результатов.

Таблица 1.

Приживаемость семян клена полевого посеянных 17 марта

Вариант опыта	Семена после хранения				Семена зимне-весеннего сбора			
	1.Контроль	2.Рибв-Экстра	3.Эпин Экстра	4.Циркон	1.Контроль	2.Рибв-Экстра	3.Эпин Экстра	4.Циркон
Количество посеянных семян,шт	10	10	10	10	10	10	10	10
Количество взошедших семян,шт	0	5	4	0	0	3	2	0
Итого, %(От общего кол-ва посева)	0	50%	40%	0	0	30%	20 %	0

При летнем посеве семян, проведенном 18 августа, проростки появились весной следующего года. Процент всхожести семян чуть выше, чем при весеннем посеве. Как видно из табл 2. наибольший процент всхожести наблюдался у варианта семян после хранения, обработанного раствором Рибав – экстра. Семена летнего сбора, практически не взошли, что говорит о том, что созревание их происходит в сентябре месяце.

Таким образом на основании результатов полученных при весеннем и летнем посеве, можно сделать выводы о том, что сбор плодов клена полевого необходимо проводить осенью. Если посадка осуществляется семенами после хранения , то обработку лучше проводить раствором Рибав Экстра.

Таблица 2.

Приживаемость семян клена полевого посеянных 18 августа

Вариант опыта	Семена после хранения				Семена летнего сбора			
	1.Контр оль	2.Риба в- Экстр а	3.Эпи н Экстр а	4.Цирко н	1.Ко нтро ль	2.Риба в- Экстра	3.Эпи н Экстр а	4.Цирк он
Количество посеянных семян	10	10	10	10	10	10	10	10
Количество взошедших семян	2	6	5	1	0	1	0	0
Итого, %	20%	60%	50%	10%	0	10%	0	0

Проведение осенних посевов дало наивысший результат по всхожести, что видно из табл 3. Проростки при данном виде посевов взошли весной следующего года. При этом наибольшее количество всходов наблюдалось у варианта, обработанного раствором Рибав-Экстра.

Таблица 3 .

Приживаемость семян клена полевого осеннего посева

Вариант опыта	18.09.21				20.10.21
	1.Контроль	2.Рибв-Экстра	3.Эпин Экстра	4.Гумми- 30	Раствор биодобрений
Количество посеянных семян	20	20	20	20	20
Количество взошедших семян	4	12	10	8	7
Итого, %	20%	60%	50%	40%	35%

Выводы.

Создание культур клена полевого на территории Ташкентского оазиса лучше проводить вегетативным путем, так как генеративное размножение данного вида неперспективно. По получившимся результатам, по всем видам обработки и посева, суммарная всхожесть семян составляет 30%. Исходя из вышеперечисленного, следует сделать выводы, что при необходимости создания культур клена полевого, посев проводят в осенние месяцы, для увеличения процента всхожести, необходимо проводить обработку стимуляторами. По результатам наших исследований лучшие показатели всхожести семян показывает обработка их раствором Рибав Экстра.

Список использованной литературы:

Аблаев С.М. Лесные культуры основных древесных и кустарниковых лесных пород Узбекистана / С.М.Аблаев, Я.Х.Юлдашов, Б.И.Эшанкулов. Учебное пособие. Ташкент. 2009. -160 с.с-96

Абаимов В.Ф. Дендрология : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.Ф.Абаимов. — 3-е изд., перераб. — М .: Издательский центр «Академия», 2009. — 368 с. 283с

Рибав экстра. [Электронный ресурс]. URL: <https://agromax.pro/regulatory-rosta/1046-ribav-ekstra-r.html>. (Дата обращения: 4.10.2022)

Удобрение Эпин экстра для рассады [Электронный ресурс]. URL: <https://rassada.top/udobreniya/epin-ekstra.html> (Дата обращения: 4.10.2022)

Инструкция по применению препарата "Циркон": как подкармливать и удобрять растения. [Электронный ресурс]. URL: <https://agronomu.com/bok/2365-instrukciya-po-primeneniyu-preparata-cirkon-kak-podkarmliivat-i-udobryat-rasteniya.html> (Дата обращения: 4.10.2022)

[Электронный ресурс].

URL: <http://www.mga.ru>. (Дата обращения: 21.12.2008).

FIQH SOHASIDA FARG'ONALIK ALLOMALAR

42-a maktab yuqori sinflar o'qituvchisi

Mamathalilova Mohinur

+998942987770

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida yashab ijod qilgan mutafakkirlarimiz haqida so'z yuritimiz. Fiqh sohasiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan allomalarimizdan biri bo'lmish Burhoniddin Marg'iloniy va u zotning "al-Hidoya" asari haqida quyidagi maqolada fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: fiqh, imom, faqih, muhaddis, Qur'on mufassiri, oyat, hadis, sunnat, farz, mazhab, Hanafiyya, ta'limot, sha'riyat, ahkom, ixtilof.

O'zbekistonning boshqa xududlari kabi Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlar ham mintaqa ilm-fani rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar. Xususan, Farg'ona fiqh maktabi vakillarining ilmiy merosini o'rganish bugungi kun uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.¹ Fiqh ilmi taraqqiyotida o'zining xos uslubi bilan alohida iz qoldirgan, Farg'ona fiqh maktabining asoschilaridan biri, islom olamida dong taratgan mashhur yurtdoshimiz - islom huquqshunosligi ilmining eng zabardast allomalaridan biri "Burhoniddin val-milla" (ya'ni, islom olami xalqlari va islom dinining hujjati, dalili, isboti degani) nomi ila sharaflangan buyuk faqih Imom Abu-l-Hasan Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljamil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniydek (1118-1197) alloma ham yuqorida qayd etilgan ko'hna shaharda tug'ilib voyaga yetgan. Allomaning boy ilmiy merosi bugungi kunda barcha yurtdoshlarimizga yaxshi ma'lum. Zero mustaqillikka erishgan paytimizdan boshlab Burhoniddin al-Marg'inoniy asarlarini tadqiq etish imkoni tug'ildi. Qolaversa 2000 yili bu zotning 910 yillik yubileyi tantanalari xalqaro miqyosda nishonlangach, olim ilmiy salohiyatidan barcha yaxshi xabardor bo'ldi. Shu boisdan olimning tarjimai holi va asarlari xususidagi tanish ma'lumotlarni takrorlashga zarurat yo'q. Fiqh imomi, Islom huquqshunosligida eng birinchi manba sifatida shu kungacha foydalanib kelinayotgan "Hidoya" asari muallifi Burhoniddin Ali Abulhasan ibn Abdualil al-Marg'iloniy al-Farg'oniy Marg'ilonning Rishton kentida tug'ilgan². Dastlabki ilmni Marg'ilonning mashhur ulamolaridan olgan. "Hidoya" asarini yozishni Marg'ilonning Pirsiddiq mahallasida joylashgan chillaxonada boshlagan. Keyinchalik Samarqandga borib, ilmni davom ettirgan. Burhoniddin Marg'iloniyning "Bid'at ul-mubtadiy",

¹ Asqarov A.A. Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari. I jild. Farg'ona, 2000. B. - 45-47

² P.Файзуллаев Н.Абдулахатов. МАРҒИЛОН АЛЛОМАЛАРИ. Тошкент .2014. Б. 121-122

“Kifoyatul muntahid” asarlari ham musulmon olamida mashhurdir. “Hidoya” asari Islomning huquqiy va axloqiy qoidalarini umumlashtirgan. Asarda namoz, ro‘za, haj, tahorat, oila va nikoh masalalari yoritilgan. Bu asar sunniy mazhabining asosiy huquqiy qo‘llanmasi hisoblanadi. Marg‘ilon o‘z san‘ati bilan ham mashhurdir. O‘rta asrlar, ayniqsa, Qo‘qon xonligi davrida Marg‘ilon vodiyni madaniy markaziga aylangan. Jahon Otin Uvaysiy, Rojiy kabi shoirlar ham shu yurt farzandlaridir. Ulug‘ faqih Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197) haqida Abdulhay Laknaviy o‘zining “al-Favoid ul bahiyya fi tarojim il hanafiyya” asarida shunday yozgan edi: “Burhoniddin Marg‘inoniy imom, faqih, muhaddis, Qur‘on mufassiri bo‘lib, uni yod bilgan olim, fanlarni yig‘ib turtibga soluvchi, zakiy, tadqiqotchi, xudojo‘y va pokdomon inson, ulug‘ faqih, adabiyotchi, shoir, fan va adabiyotda uning tengi yo‘q”³. Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy merosiga bo‘lgan qiziqish asrlar davomida tadqiqotchilarni diqqat markazida bo‘lib kelgan⁴. Binobarin, Burhoniddin Marg‘inoniy sunniylardagi to‘rtta asosiy mazhab asoschilari va ularning shogirdlari yaratgan barcha asarlarni o‘rganib chiqib, ularni mukammal bilibgina qolmasdan, uning o‘zi ham fiqhga oid bir qator fundamental asarlar yaratgan. Uning bizgacha yetib kelgan asarlaridan “Al-Hidaya fi sharh bidayat al-mubtadi” (Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim asarining sharhi – To‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kitob)⁵, “Bidayat al-mubtadi” (Boshlovchilar uchun ilk ta’lim), “Kifoyat al-muntahiy” (Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim), “Nashr al-mazhab” (“Mazhabning yoyilishi”), “Kitab al-tajnis va-l-mazid” (Ajratish va ilmni ziyoda qilish kitobi), “Manasik al-haj” (Haj arkonlari), “Kitab majmu al-navazil” (Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami), “Kitab al-faraid” (Meros haqidagi kitob) singari asarlar shular jumlasidandir. Shuningdek, bu zotning qalamiga mansub “Kitob ul-mashoyix” (Shayxlar haqidagi kitob) asarida o‘zi ta’lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomalarni sanab o‘tgan. Bu ro‘yxatda Najmuddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, Abu al-Asir al-Badaviy, Abu Yoqub as-Sayariy, Abu Ishoq an-Navqadiy va Ja’far al-Hinduvoniylarning nomlari bor⁶. Afsuski, bu manba to‘g‘risida biz boshqa manbalar vositachiligida bilamiz, xolos. Unda keltirilgan ma’lumotlar esa o‘sha manbalar uchun

³ Mahmud Hasaniy. Al-Marg‘inoniyning “Xidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 2000. B 23.

⁴ O.A. Al-Marg‘inoniy – mashhur fikxshunos. T.: Meros, 2000; Qoriyev O.A. Xidoyatga boshlagan “Xidoya” // Mozidandan sado. 2000; Qoriyev O.A. Burxoniddin al-Marg‘inoniyning “Xidoya” asaridan. Sherikchilik haqida kitob // Imom al-Buxoriy saboklari. 2000. 2-son; Qariyev A.A. Burhan-ad-din al-Marginani va uo mesto v istorii fikha. Aftoreferat ds.kand.ist. nauk. T., 2001; Qariyev A. Al-Marginani // Islam na territorii byvshoy Rossiyskoy imperii. Entsiklopedicheskiy slovar. Vyp. 4. M., 2003; Qoriyev O.A. “Al-Xidoya” asarining kadimiy nusxasi // Imom al-Buxoriy saboklari. 2005. 2-3 son; Qoriyev O.A. Farqona fikx maktabi va Burxoniddin al-Marg‘inoniy. T.: Fan, 2009.

⁵ O.A. Al-Marg‘inoniy – mashhur fikxshunos. T.: Meros, 2000.

⁶ “Ma’naviyat yulduzlari”. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999. B. 58.

dastur bo‘lib xizmat qilgan. Olim butun islom olamida mashhur bo‘lgan “Hidoya” asarini hijriy 573 (milodiy 1178) yilda Samarqandda yozib tugatdi. Bu asarni yozilishi bilan bog‘liq rivoyatlar xalq orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning keltirishicha, Burhoniddin Marg‘inoniy o‘zining “Bidoyat al-muntahiy” asarining so‘z boshida “Hidoya”ning yaratilishi to‘g‘risida shunday yozgan edi: “Iroqqa safar qilganimda, “Al-Muxtasar al-Quduriy” (“Quduriy qisqartmasi”) ni ko‘rdim. U fiqh bobida ajoyib asar edi. Bu paytda kattayu- kichik, barcha “Jome’ us-Sag‘ir” (“Kichik to‘plam”) dan foydalangan edi. Shunda fiqhga oid barcha asarlarni jamlab, ulardan eng zarur masalalarni oldim va bu asarga “Bidoyat al-muntahiy” deb nom berdim. Keyinchalik ushbu asarga sharh yozib, uni “Kifoyat ul-muntahiy” deb nomladi”⁷. Keyinroq bu asarning ham hajmi kattalik qilib, yanada mo‘‘jaz bo‘lgan, butun islom olamida hanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qo‘llanmasiga aylangan Hidoya asari yaratildi. Mazkur asarni hanafiya mazhabidan tutgan o‘rni to‘g‘risida alloma Haddod quyidagi ta’rifni beradi:

“Hidoya” ham Qur’on singari o‘zidan ilgari yozilgan kitoblarni (fiqhshunoslik bo‘yicha) e’tibordan qoldirdi”. Shomlik allomalardan biri “Hidoya”ni o‘qib chiqib, “Ajabo! O‘zi ajamlik bo‘lsa, bu gaplarni qayerdan topdiykin?! Biz arab bo‘la turib, bu gaplarni bilmaymiz”,– deb hayratlangan edi. “Hidoya” kitobi xususida Burhoniddinning o‘g‘illaridan biri Imomiddin quyidagi arabcha bayt bitgan bo‘lib, bu baytning mazmuni shunday: “Hidoya kitobi hidoyat yo‘liga yetaklaydi va ojizlar yo‘lini yoritadi, Shunday ekan uni lozim deb bil, uni yodlab ol, ey aql egasi, kimki uni o‘zlashtirsa, eng oliy maqsadga erishgan bo‘ladi”.

Shu o‘rinda samarqandik tarixchi Komilxon Kattayevning “Imom Burhoniddin Marg‘inoniy” kitobida⁸ ulug‘ alloma to‘g‘risida bayon etilgan quyidagi fikrlarni keltirib o‘tsak: “Imom Burhoniddin Marg‘inoniy kabi zoti muboraklarimizning darajalarini, mavqelarini va ulug‘liklarini qanday tasavvur qilish mumkin? Keyingi asrlarda ilmu madaniyatda eng rivojlangan iqlim hisoblangan Ovrupo qit’asi ilm ahllari tomonidan, hujjatli dalillar bilan tan olinib, e’tirof etishlariga qaraganda, Ovrupo sivilizatsiyasiga, uyg‘onish davriga musulmon-arab ilmu madaniyatidek katta ta’sir ko‘rsatgan boshqa madaniyat bo‘lmagan. Ajablanarlisi va faxrlanarlisi shulkim, arab tilida ijod etgan mashhur ulamolar salohiyatining aksariyati yurtdoshlarimiz bo‘lishgan. Ilmu fan rivojlangan va “oltin asr” deb nomlangan o‘sha davrning mashhur allomalari bo‘lgan Imom Buxoriy va Imom Moturidiy, Imom Burhoniddin Marg‘inoniy va Abu Ali ibn Sino, Forobiy va Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va

⁷ Қориев О.А. Бурхониддин ал-Марғиноний // Маънавият юлдузлари. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – Б. 132-133.

⁸ Комилхон Каттаев. Имом марғиноний ва чокардиза тадқиқотларидаги хатоликлар ислоҳи. Тошкент: Hilol Media, 2018. 56 бет.

Zamaxshariy hamda Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi, Xoja Ahror Valiy va Maxdumi A'zam, Alisher Navoiy va Bobur Mirzolar har birlari alohida- alohida tarmoqlarda xizmatlari tufayli shuhrat cho'qqisiga erishadilar hamda ilm-fan rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdilar⁹. Musulmon fan va madaniyatining ramzi va Payg'ambar(s.a.v.) vorislari hisoblanmish ushbu buzrugvorlar xizmatlarini nazarda tutgan Ovrupo olimlari quyidagicha e'tirof etishgan va tan olishgan. Ovrupolik arabshunos professor Sedilat o'zining "Arablar tarixi" kitobida shunday deb yozadi: "Musulmonlar o'rta asrlarda ilm, fan va falsafada yagona edilar. Ular bu narsalarni qadamlari qayerga yetsa, shu yerga tarqatdilar. Bu narsalar ular orqali Ovrupoda ham tarqaldi. Ovruponing uyg'onishi va taraqqiyotining asosiy sababchilari ham musulmonlardir".¹⁰ Sotsiolog professor Gustav Lugon o'zining "Arab sivilizatsiyasi"¹¹ degan kitobida shunday deydi: "Fors, Rim va boshqa xalqlarning Sharqda qila olmagan ishlarini arablar tezda va hech bir majburlashsiz amalga oshirdilar... Tarixda bunday zo'r ta'sirga ega bo'lgan arablardan boshqa hech bir xalq yo'q". Professor Libri esa bunday degan edi: "Agar tarix sahnasida arab paydo bo'lmaganida, Ovruponing uyg'onishi bir necha asrlarga orqaga surilar edi. Arablarning tarjimalari Ovrupo dorulfununlarida olti asr davomida yagona o'quv qo'llanma bo'lib kelgan". Ovrupolik olimlarning bu ta'riflaridan ortiqroq e'tirof bo'lmasa kerak.

Demak allomani hanafiya mazhabi fiqh ilmida butun islom olamiga mashhur bo'lishiga, bu zotni Farg'ona fiqh maktabi asoschilaridan biri deb e'tirof etishga asos bo'luvchi jihatlarini zikr etish maqsadga muvofiqdir. Burhonuddin al-Marg'inoniy ilmiy uslubining xos jihatlari quyidagilar:

- Burhonuddin al-Marg'inoniy asarlarida mavzu g'oyasini ochib berishga yo'naltirilgan o'ziga xos ta'bir usullari. Jumladan, fiqhiy asarni ta'lif etishda boy ilmiy-diniy manbalardan foydalanilganligi. Bu o'z navbatida unda xilma-xil mulohazalar va nuqtai nazarlarni keltirilishiga sabab bo'lganligi va ilmiy saviyasini yuqori bo'lishini ta'minlaganligi. Natijada bu xususiyatlar va olimning ilmiy salohiyati sohani yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qilgan¹².
- Fiqhiy asarlarda qoidalarni oyat, hadis va sunnat dalillar bilan asoslash uslubi va ularni ahli sunna va-l-jamoaning boshqa mazhablari fikrlari bilan qiyosiy xulosa chiqarish uchun qo'llash tartibi alloma tomonidan muvaffaqiyat bilan joriy qilinganligi.

⁹ Mahmud Hasaniy. Al-Marg'inoniyning "Xidoya" asari va unga yozilgan sharhlar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 2000. B 25-32.

¹⁰ Sedilat. Arabian history. Moscow. 1978. P. 39.

¹¹ Густав Лугон. Арабская цивилизация. 1994. С. 64.

¹² Абдулхаким Шаръий Жузжоний. "Бурхониддин Марғиноний". Тошкент. 2000. Б. 40.

- Alloma asarlarining tili nihoyatda boy, lekin yengil emas. Buning sababi unda turli xil qisqartmalar, xos bayon uslublari qo'llanilganidadir. Bu uslubning o'z navbatida asar hajmining imkon darajasida mo'jaz bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilganligi. Olimning mashhur "al-Hidoya" asarining strukturasi, mazmun va mohiyati musulmonlar jamiyatidagi huquqshunoslik, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, ma'naviy va moliyaviy masalalarni yoritishning o'ziga xos uslubi tufayli tarixiy-huquqiy asarlar janrida yangi yo'nalishni ochib berganligi.

- Burhonuddin al-Marg'inoniyning asarlari o'sha davrda islom olamida avjiga chiqqan firqalar, guruhlar va hattoki, ahli sunna va-l-jamo'a mazhablari o'rtasidagi ixtiloflarga aniqlik kiritish, ularning musulmonlar uchun qay darajada ahamiyatli bo'lishligi mumkinligini asosiy manbalar Qur'oni karim, Payg'ambar a.s. sunnatlari, obro'li sahobalar dalillari va guvohliklari yordamida asoslanishi yo'lini tutganligi.

- Alloma asarlarida barcha fiqxiy masalalarni boshqa mazhab vakillari hukmlari bilan ochiq taqqoslash, natijada hatto ayrim masalalarda shaxsan Abu Hanifa fikrlarini emas, balki mantiqan o'rinli bo'lgan hanafiya mazhabining imom Abu Yusuf va Muhammad kabi boshqa allomalarning fikrlarini olish bilan mazkur masalaga xolis yondashish uslubi qo'llanilganligi.

- Fiqhiy mavzularni yoritish va asoslashda mujtahid imomlar fikrlaridan tashqari sahobalar, tob'ainlar va o'rta asrlardagi turli mintaqa ulamolarining fikrlarini keltirish, o'sha davrdagi fiqh bobida fikr va qarashlar rang-barangligini o'z asarlarida aks ettirganligi.

- Burhonuddin al-Marg'inoniy asarlariga xos bo'lgan qator ijobiy xususiyatlarning ayrimlari o'sha davrda yozilgan boshqa asarlarda ham uchrasada, ularning barchasini bir asarda jam bo'lishi al-Marg'inoniy uslubida, uning "al-Hidoya" asarida namoyon bo'lganligi.

Mazkurlardan chiqadigan xulosa, Burhonuddin al-Marg'inoniy ilmiy merosi va uning o'ziga xos uslubi nafaqat Farg'ona fiqh maktabining keyingi davrlardagi olimlari ijodiga jiddiy ijobiy ta'sir o'tkazdi, balki alloma asarlariga yozilgan sharh va hoshiyalarda va boshqa fiqhiy asarlarda ham mualliflar tomonidan keng qo'llanila boshladi. Shu bois Burhonuddin al-Marg'inoniy Farg'ona fiqh maktabining yirik namoyandasigina bo'lib qolmay, balki bu maktabning asoschilaridan biri bo'lgan, degan xulosa shubhasiz o'rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Asqarov A.A. Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari. I jild. Farg'ona, 2000. B.- 45-47
2. Р.Файзуллаев Н.Абдулахатов. МАРФИЛОН АЛЛОМАЛАРИ. Тошкент .2014. Б. 121-122

3. Mahmud Hasaniy. Al-Marg`inoniyning “Xidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 2000. B 23.
4. О.А. Ал-Марғиноний – машхур фикхшунос. Т.: Мерос, 2000; Қориев О.А. Ҳидоятга бошлаган “Ҳидоя” // Мозийдан садо. 2000; Қориев О.А. Бурҳониддин ал-Марғинонийнинг “Ҳидоя” асаридан. Шерикчилик ҳақида китоб // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2000. 2-сон; Қариев А.А. Бурхан-ад-дин ал-Маргинани и его место в истории фикха. Афтореферат дс.канд.ист. наук. Т., 2001; Қариев А. Ал-Маргинани // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Вып. 4. М., 2003; Қориев О.А. “Ал-Ҳидоя” асарининг қадимий нусхаси // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2005. 2-3 сон; Қориев О.А. Фарғона фикх мактаби ва Бурҳониддин ал-Марғиноний. Т.: Фан, 2009.
5. О.А. Ал-Марғиноний – машхур фикхшунос. Т.: Мерос, 2000.
6. “Ma’naviyat yulduzlari”. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999. B. 58.
7. Қориев О.А. Бурҳониддин ал-Марғиноний // Маънавият юлдузлари. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – Б. 132-133.
8. *Комилхон Каттаев. Имом марғиноний ва чокардиза тадқиқотларидаги хатоликлар ислоҳи. Тошкент: Hilol Media, 2018. 56 бет.*
9. Mahmud Hasaniy. Al-Marg`inoniyning “Xidoya” asari va unga yozilgan sharhlar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent. 2000. B 25-32.
10. Sedilat. Arabian history. Moscow. 1978. P. 39.
11. Густав Лугон. Арабская цивилизация. 1994. С. 64.
12. Абдулҳаким Шаръий Жузжоний. "Бурҳониддин Марғиноний". Тошкент. 2000. Б. 40.

QUYOSH BATAREYALARI VA UNING ELEMENTLARI HAQIDA

Saidov Dilmurod

Fizika matematika fanlar nomzodi dotsent

Xo`jaboyeva Sadoqat Abduraxmonovna

Solayeva Moxira Amanbayeva

Xorazm viloyati Urganch shahar URDU

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada quyosh radiatsiyasiga bog'liq holda fotoelementlarning ish samaradorligi bayon qilinadi. Batareyalarda sodir bo'ladigan jarayonlar fizik-matematik holda tushuntirilib berilgan. Quyosh radiatsion energiyasidan maksimal foydalanish masalasi hal qilingan.

Kalit so'zlar: quyosh batareyasi, fotosezgirlik, radiatsiya, yarimo'tkazgich, rekombinatsiya

Hozirgi zamon muammolaridan biri juda katta miqdordagi quyosh radiatsion energiyasidan maksimal foydalanish masalasidir. Quyosh radiatsiyasining qisqa to'liq qismi, asosan, Yer atmosferasida yutilib qoladi. Yer sirtga esa uzun to'liq qismi yetib keladi. Quyosh energiyasidan foydalanishning juda ham ko'p usullari mavjud bo'lib bulardan eng effektivrog'i nurlanish energiyasini boshqa turdagi energiyaga aylantirishda foydali ish koeffitsenti eng katta bo'lgan qurilma yarim o'tkazgichli quyosh batareyasi bo'lib hisoblanadi.

Yarim o'tkazgichli fotoelementlarni quyosh batareyasi sifatida ishlatishda quyoshdan kelayotgan radiatsiyaning spektral tarkibini bilish masalaning asosiy tomonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun, quyosh batareyasini tayyorlashda quyosh spektrining qaysi qismlaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatuvchi yarim o'tkazgichning optik xususiyatlarini va quyosh energiyasini elektr energiyaga effektiv aylantirib berishini xarakterlovchi elektr xususiyatlarini bilgan holda, yarim o'tkazgich materiallarini tanlab olish zarur. Yarim o'tkazgichning bunday xususiyatlariga ta'sir qiluvchi parametrlaridan biri man qilingan zonaning kengligi E_g ni bilish kerak.

Таким образом, линии исторического развития андрагогики как науки, сферы социальной практики и учебной дисциплины выстраиваются следующим образом:

- расширение практики образования взрослых в ответ на вызовы времени и усложнение социальных и личностных потребностей в сфере образования;
- поиски и формирование государственно-общественных предпосылок и механизмов реализации непрерывности образования на этапе обучения взрослых;

- углубление знания о внутренних закономерностях, обуславливающих активность и успешность образования взрослого во все периоды и во всех социальных ситуациях его жизни;
- совершенствование путей интеграции внешних и внутренних факторов, обуславливающих эффективность образования взрослого населения;
- интернационализация проблематики образования взрослых; — увеличение степени институционализации андрагогики и профессии «андрагог».

Сегодня одним из основных субъектов организации образования взрослых на международной арене является ЮНЕСКО (www.education.unesco.org). Это крупнейший интеллектуальный центр межправительственного сотрудничества по вопросам образования, науки и культуры, в который входят 188 стран (почти все государства мира, за исключением США; специалисты из США широко представлены в этой организации в качестве экспертов). При ЮНЕСКО работают около 600 правительственных организаций.

Важной вехой деятельности ЮНЕСКО стала Пятая Всемирная конференция по образованию взрослых, состоявшаяся в Гамбурге в июле 1997 г. В этом международном форуме участвовали делегаты из 140 стран мира, в том числе руководство Организации Объединенных Наций, ЮНЕСКО, министры образования, культуры и информации разных стран. На конференции подчеркивалось, что образование взрослых является одним из уникальных способов устойчивого развития обществ самой различной ориентации.

По итогам гамбургской конференции во многих странах мира разработаны и осуществляются социальные программы в поддержку той части взрослого населения, которая хотела бы участвовать в различной образовательной деятельности. Основное требование при этом: государство должно гарантировать каждому взрослому человеку право на обучение. Форму обучения человек выбирает сам. Сегодня в мире существует большое количество образовательных центров, деятельность которых направлена как на исследование и организацию непрерывного образования в своей стране, так и на организацию интернационального взаимодействия. Теоретические исследования в этой области знаний возглавляют Институт образования ЮНЕСКО (Гамбург) и Международный институт планирования образования (Париж). Крупными центрами являются: Международный институт образования (США); Швейцарская организация образования взрослых; Международный педагогический центр (Франция); Национальный институт образования взрослых (Великобритания); Международный институт педагогических исследований (Германия) и др.

Важным фактором развития образования взрослых является государственная законодательная поддержка. Особенно широкий масштаб соответствующая законодательная деятельность - Поддержка получила в Европе, где имеются образовательных мощная социально ориентированная экономика -инициатив и богатые традиции социальной политики. Законы о поддержке образования взрослых, предоставлении оплачиваемых образовательных отпусков были приняты в конце 80—90-х годов в Дании, Германии, Испании и других странах. В 1997—1998 гг. широкомасштабная программа развития образования в течение всей жизни человека была разработана правительством Великобритании. В это же время с пакетом законодательных инициатив, направленных на совершенствование всех звеньев системы образования, выступила администрация президента США. В 1998 г. при Министерстве просвещения, науки и культуры Японии было создано Управление непрерывным образованием.

Актуальность развития непрерывного образования обусловлена двумя основными факторами:

— знания, а также мотивация к их постоянному обновлению и навыки, необходимые для этого, становятся решающим фактором европейского развития, конкурентоспособности и эффективного рынка труда;

— сложная социально-политическая европейская среда требует от человека умения активно участвовать в общественных процессах, что невозможно без полноценного развития личности.

Названные факторы социально-экономических перемен тесно взаимосвязаны и определяют главные, характерные для международной практики цели непрерывного образования: формирование активной гражданской позиции и обеспечение конкурентоспособности на рынке труда.

Рекомендуемая литература

1. Беланже П. Образование взрослых в промышленно развитых странах Запада // Перспективы (ЮНЕСКО). — 1992.
2. Образование взрослых // Перспективы: Вопросы образования (ЮНЕСКО). - 1982. -№1,2.
3. Рабочая книга андрагога / Под ред. С. Г. Вершловского. — СПб., 1998.
4. Третья международная конференция по образованию взрослых в Токио // Советская педагогика. — М., 1973.
5. Бхола Х. С. Перспективы неформального образования // Перспективы (ЮНЕСКО).-1984. - № 1.
6. Adult education in the 1990s: A Report on the 1991 National Household Education Survey — National Center for Education Statistics // Working Paper. — № 98 — 03, February 1998 (www.nces.ed.gov).
7. Delors Jacques. Adult education: from luxury to necessity // Bulletin Education For All's 2000. — № 27. April - June 1997.
8. Dewey John. Democracy and Education (www.ilt.columbia.edu).
9. Hamburg Declaration on Adult Learning. The Fifth International Conference on Adult Education. — Hamburg (www.education.unesco.org).

ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН АЁЛ АЙБЛАНУВЧИЛАРГА ҚИДИРУВ ЭЪЛОН ҚИЛИШ ТАРТИБИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

Қаришьева Мафтуна Мусурмон қизи
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси
Академияси магистратура битирувчиси

Инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш мақсадида содир этилган ижтимоий ҳафли қилишни тез ва тўла очиш, жиноят содир этган ҳар бир шахсга адолатли жазо берилиши ҳамда айби бўлмаган ҳеч бир шахс жавобгарликка тортилмаслиги ва ҳукм қилинмаслиги учун айбдорларни фoш этишдан ҳамда қонуннинг тўғри татбиқ этилишини таъминлаш Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг вазифаси ҳисобланади.

Жиноят процессуал кодексининг 15-моддасига асосан, прокурор, терговчи ва суриштирувчи жиноят аломатлари топилган ҳар бир ҳолда, ўз ваколатлари доирасида жиноят ишини кўзғатишлари, жиноий ҳодисани, жиноят содир этишда айбдор бўлган шахсларни аниқлаш ва уларни жазолаш учун қонунда назарда тутилган барча чораларни кўришлари шарт. Албатта, жиноят қонунчилиги билан тақиқланган, айбли ижтимоий ҳафли қилмишга нисбатан қонун доирасида тегишли тартибда жазо берилиши шарт. Бироқ, ҳар доим ҳам жиноятчи содир этган қилмиши учун тегишли жиноий жавобгарликка тортилмаслиги мумкин. Бунга жиноятчининг жиноят содир этилган жойдан яшириниши ёки тергов ва суднинг турли босқичларида жазодан озод бўлиш учун қочиб кетитиши сабаб бўлади. Бунда айбланувчига нисбатан қидирув эълон қилинади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал қонунчилигига мувофиқ фақат айбланувчига нисбатан қидирув эълон қилиниши мумкин (ЖПК 365-модда 1-қисм).

А.П.Гуляевнинг фикрича: “қаердалиги номаълум бўлган айбланувчини қидириш терговчининг энг муҳим қидирув функцияларидан бири ҳисобланади¹”. Терговчининг тергов фаолиятининг асосий вазифасидан бири жиноятчини қидириш бўлган ва шундай бўлиб қолади. Россиялик жиноят процессуал ҳуқуқ олимларнинг фикрича “қидирув” сўзи тор ва кенг маънода тушуниш мумкинлиги қайд этишади. Тор маънода қидирув деганда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга маълум бўлган аниқ объектларни қидириш тушунилади; сўзнинг кенг маъносида қидирув - бу жиноятларни очиш ва тергов қилиш бўйича чоратадбирларнинг бутун мажмуасидир². В.И.Попов нуқтаи назаридан, кенг маънода

¹ Гуляев А. П. Следователь в уголовном процессе / А. П. Гуляев. — М.: Юрид. лит., 1981. — 22-23 с.

² Гончар В. В. Деятельность следователя по розыску подозреваемых и обвиняемых: дис. канд. юрид. наук / В. В. Гончар. — М., 2007. — 16 с.

“қидирув” сўзи тергов ва суриштирув органларининг жиноятларни аниқлаш ва тергов қилиш жараёнидаги фаолиятини англатади³.

Агар айбланувчи ўз вақтида топилмаса, дастлабки тергов ҳаракати тўхтатилиши мумкин (ЖПК 364-моддаси). А.И.Бастрайкин ва А. А. Усачев асосли равишда “дастлабки терговни тўхтатиб туриш - бу қонунда назарда тутилган асослар мавжуд бўлганда уни ўтказишда вақтинчалик танаффус бўлиб, шу сабабли ҳозирги вақтда кейинги тергов имконсиз бўлиб қолади”. М. С. Строговичнинг нуқтаи назаридан, бу асос "терговчи айбланувчининг қаердалигини билмайди, лекин айбланувчининг шахси аниқ маълум" деган маънони англатади.

Айбланувчини қидириш биринчи навбатда қидирувда бўлган шахс билан бирга ёки маҳаллада яшовчи шахсларни (эри, хотини, онаси, отаси, бувиси, бобоси, опа-сингили, укаси, вояга етган болалари, қариндошлари, дўстлари, қариндошлари, қўшнилари, ҳамкасблар, собиқ ҳамкасблар ва бошқалар) сўроқ қилишдан бошланиши керак. Терговчига ғойиб бўлган шахснинг табиати тўғрисида аниқ хулоса ҳосил қилиши ва қидирувда бўлган шахснинг терговдан ғойиб бўлгунга қадар хатти-ҳаракати, одатлари, хоҳиш-истаклари тўғрисида маълумот тўплаши лозим. Бироқ, айбланувчи ҳақида тўпланаётган маълумотларга тўлиқ ишониш керак эмас. Сабаби қидирувдаги шахснинг яқинлари қасддан қидирилаётган шахснинг жойлашган жойида виждонан хато айтиши ёки айтмаслиги, у билан тил бириктирган ҳолда қасддан тергов ҳаракатини чалғитиши мумкин.

Терговчи жиноят субъектининг сирли равишда ғойиб бўлишидан ҳам эҳтиёт бўлиши керак, бу турли сабабларга кўра бўлиши мумкин: чақирув қоғозларини олмаслик, яшаш жойини ўзгартириш, хотирани йўқотиш, ҳарбий хизматга чақириш, тиббий муассасаларда бўлиш, бахтсиз ҳодисага учраши, қотиллик, чет элда хизмат сафариди бўлиш, бошқа жиноят содир этганлиги сабабли ҳибсга олиниши ва бошқалар. Тўсатдан ғойиб бўлиши қидирувни янада мураккаблаштириши мумкин. Кутилмаган ғойиб бўлиш ҳам яширинган одамнинг тактикаси бўлиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси дастлабки тергов органларини ғойиб бўлган айбланувчини қидириш бўйича барча зарур чораларни кўриш мажбуриятини юклатилган.

Бугунги кунда аёллар томонидан содир этилаётган жиноятлар сони кун сайин ўсиб бориш билан бирга ўзига хос хусусиятга эга бўлмоқда. Мисол учун, тадқиқотчиларнинг қайд этишича, аёллар жиноятчилиги кўпроқ уюшганлик

³ Попов В. И. Розыскная деятельность при расследовании преступлений: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук / В. И. Попов. — М., 1965. — 13 с.

хусусиятига эга. Содир этилган жиноятлар солиштирма оғирлигида уюшган гуруҳлар таркибида аёллар улуши 10 фоизга ортмоқда. Гуруҳ таркибида содир этилган кўпгина жиноятларда аёллар томонидан олдиндан келишув мавжуд бўлган, тахминан ҳар учинчи жиноят, гуруҳ таркибида содир этилган жиноятларда аёллар иштироки 40 фоизгача ўсганлигини рад этиб бўлмайди.

Аёллар ҳам жиноий жавобгарликдан қочиш мақсадида жиноят жойидан яширинишлари ёки тергов ҳаракатлари давомида ҳозир бўлмасдан қочиш кетишлари мумкин. Аёл айбланувчиларга нисбатан қидирув эълон қилишда Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодексининг умумий қоидалари қўлланилди.

Кўпгина хорижий давлатларда аёлларга нисбатан қидирув эълон қилиниб, ушланиш тартиби алоҳида белгилаб қўйилган. Жанубий Корея Жиноят процессуал кодексининг 124-моддасига кўра, аёлни қидиришда бошқа вояга етган аёл томонидан амалга оширилади. Худди шундай қоида, Кения Республикаси (ЖПК 27-моддаси), Хитой Халқ Республикаси (ЖПК 137-модда), Япония (ЖПК 131-моддаси) ва бошқа қатор давлатларнинг жиноий процессуал қонунчилигида учратиш мумкин.

Қидирувдаги аёл айбланувчиларни аёл ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходим томонидан қидирилиши мақсадга мувофиқ. Сабаби аёл жиноятчилар эркак жиноятчиларга қарагандан соғлиқ ва руҳий жиҳатдан анча заиф бўлади. Шу сабабли қидирувдаги аёл айбланувчиларни қўлга ушлашда аёл ҳуқуқни муҳофаза қилуви ходимни жалб қилиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси.
2. Жанубий Корея Республикаси Жиноят процессуал кодекси.
3. Хитой Халқ Республикаси Жиноят процессуал кодекси.
4. Кения Республикаси Жиноят процессуал кодекси.
5. Гуляев А. П. Следователь в уголовном процессе / А. П. Гуляев. — М.: Юрид. лит., 1981. — 192 с.
6. Гончар В. В. Деятельность следователя по розыску подозреваемых и обвиняемых: дис. канд. юрид. наук / В. В. Гончар. — М., 2007. — 188 с.
7. Попов В. И. Розыскная деятельность при расследовании преступлений: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук / В. И. Попов. — М., 1965. — 47 с.

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРНИНГ КАФОЛАТЛАРИ: ЕВРОПА ИТТИФОҚИ ВА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА

Қаршиева Мафтуна Мусурмон қизи
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси
Академияси магистратура битирувчиси

Аннотация: мақолада аёлларнинг жиноят процессуал ҳуқуқий муносабатлардаги ҳуқуқларининг халқаро ҳужжатлардаги кафолатлари ва уларнинг миллий қонунчиликда жорий этилганлик даражаси таҳлил қилинган. Шунингдек, Европа Иттифоқининг гендер тенглиги билан боғлиқ тавсияларни ёритилган.

Калит сўзлар: аёллар ҳуқуқлари, гендер тенглиги, одил судлов, жиноят процесси.

Аннотация: в статье анализируются гарантии прав женщин в уголовно-процессуальных правоотношениях в международных документах и степень их внедрения в национальное законодательство. В нем также рассматривались рекомендации Европейского союза в отношении гендерного равенства.

Ключевые слова: права женщин, гендерное равенство, правосудие, уголовный процесс.

Abstract: the article analyzes the guarantees of women's rights in criminal procedural legal relations in international documents and the degree of their implementation in national legislation. It also considered the recommendations of the European Union on gender equality.

Keywords: women's rights, gender equality, justice, criminal procedure.

Демакратик давлатнинг асосий вазифаларидан бири ҳуқуқий муносабатларда одил судловни таъминлаган ҳолда инсон ҳуқуқлари ва қонун устуворлигига эришишдир. Инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш ва ҳимоя қилишда керакли ҳимоя воситаларидан фойдаланиш самарали натижа беради. Одил судловга эришиш ҳамма замонларда ва ҳар бир давлат ҳокимияти учун қийин вазифа бўлган.

Бундай қийинчиликлардан бири адлия тизимида аёллар учун худди эркеклар каби тенг ҳуқуқий шароит яратиш. Аёллар ва эркеклар ўртасидаги доимо иқтисодий ва ижтимоий тенгсизлик, гендер тарафкашликлари ва гендер стереотиплари уларнинг адолатга тенг даражада эга бўлишларига тўсиқ бўлган. Аёлларнинг одил судловдан тенг фойдаланишига тўсқинлик қиладиган яна бошқа тўсиқлар мавжуд: табулар, нотўғри қарашлар, урф-одатлар, қашшоқлик,

маълумотларнинг етишмаслиги, маданий тўсиқлар, кўрқув, уят, қонунчилик ва уларни амалга оширишдаги бўшлиқлар.

Бугунги кунда аёлларнинг жамиятдаги ўрни ва мавқеи ўтмишдагига қараганда анча сезиларли даражада ўзгарган. Эндиликда аёллар давлат бошқарувида иштирок этишлари, сайлашлари ёки сайланишлари, меҳнат, спорт, иқтисодий ва бошқа барча соҳалар эркаклар сингари тенг ҳуқуқли субъект бўлишлари мумкин. Далват буни қўллаб-қувватлаши, хотин-қизларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш шарт.

Давлат томонидан жиноий ҳуқуқий муносабатларда аёлларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш бугунги кунда долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан аёлларнинг жиноят процессида ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ қатор халқаро ҳужжатлар қабул қилинган.

“Аёлларга нисбатан зўравонликка барҳам бериш тўғрисида”ги Декларациясига¹ кўра, ҳуқуқбузарлик ва зўравонлик ҳаракатларига учраган аёлларга етказилган зарарни қоплаш учун давлатлар ички қонунчилик доирасида жиноий, фуқаролик, меҳнат ва маъмурий жазо чораларини ишлаб чиқиш, худди шунингдек, зўравонлик ҳаракатларига дучор бўлган аёлларга одил судловни амалга ошириш механизмларидан фойдаланиши, уларга етказилган зарарни қоплаш учун адолатли ва самарали воситалардан фойдаланиш имконияти таъминланиши ва давлатлар аёлларни бундай механизмлар орқали ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилишлари ҳақида хабардор қилишлари кераклиги қайд этилган. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг V бўлимида умумий тартибдаги жиноят натижасида етказилган мулкӣ зиённи қоплаш тартиби келтирилган бўлсада, аёллар учун алоҳида тартиб белгиланмаган.

Ушбу Декларациясининг 2-моддаси “Г” бандига кўра, жиноят қонунчилигининг аёлларга нисбатан камситишни ташкил этувчи барча қоидаларини бекор қилишлар баён этилган. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига аёлларнинг ҳуқуқларининг камситилишини олдини олиш бўйича қатор моддалари киритилган. Масалан, барча судларда жиноят ишлари ошкора кўрилади, бундан давлат сирларини кўриқлаш манфаатларига зид келадиган ҳоллар, шунингдек жинсий жиноятлар тўғрисидаги ишлар кўрилаётган ҳоллар мустасно (19-модда); тергов ёки суд ҳаракатлари билан боғлиқ ишларни бажараётганда, суриштирувчи, терговчи, прокурор, судья ва ишда мутахассис ёки эксперт сифатида иштирок этаётган шифокорлардан бошқа шахсларнинг ўзга жинсдаги шахсни яланғоч қилиб ечинтириш чоғида ҳозир бўлишлари тақиқланади (88-модда 3-қисм); жинсий эркинликка қарши, ўн

¹ “Аёлларга нисбатан зўравонликка барҳам бериш тўғрисида”ги декларация Бош Ассамблеянинг 1993 йил 20 декабрдаги 48/104 резолюцияси.

саккиз ёшга тўлмаган шахслар савдосига оид жиноят ишлари бўйича вояга етмаган гувоҳни ёки жабрланувчини сўроқ қилиш, шунингдек бошқа ҳолатларда сўроқ қилиш, агар буни одил судловнинг ёки вояга етмаган шахснинг манфаатлари талаб этса, стенография, видеокузатув, шунингдек аудио- ва видео қайд этиш тизимлари билан жиҳозланган махсус хонада қонуний вакил, педагог ва (ёки) психолог иштирокида ўтказилиши мумкин (121-модда 6-қисм); шахсий тинтув ҳамда нарса ва ҳужжатларни олиб қўйиш тинтилаётган шахс билан бир жинсдаги мутахассис ҳамда холислар иштирокида ўтказилиши мумкин (162-модда 4-қисм); намуна олиш намуна олинувчини ечинтириб яланғочлаш билан боғлиқ бўлса, шифокор, бошқа мутахассис, холислар намуна олинувчи шахс билан бир жинсда бўлишлари лозим (196-модда 2-қисм) ва гувоҳлантириш ечинтириб яланғочлаш билан боғлиқ бўлса, алоҳида хонада шифокор ёки бошқа мутахассис томонидан, гувоҳлантирилаётган шахснинг жинсидаги холислар иштирокида ўтказилади (445-модда 2-қисм).

“Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги Халқаро пактнинг² 9-моддаси 3-бандига кўра, жиноий айблов бўйича ҳибсга олинган ёки қамоққа олинган ҳар бир шахс зудлик билан судья ёки қонун томонидан суд ҳокимиятини амалга ошириш ваколатига эга бўлган бошқа мансабдор шахс олдида келтирилиши ва тегишли муддатда судга тортилиши ёки озод этилиши ҳуқуқига эгадир. Суд муҳокамасини кутаётган шахсларни қамоққа олиш умумий қоида бўлмаслиги керак, лекин озод қилиш судга келиш, суд муҳокамасининг бошқа ҳар қандай босқичида ҳозир бўлиш ва зарурат туғилганда ҳукми ижро этиш учун ҳозир бўлиш кафолатларини таъминлаш шарти билан амалга оширилиши мумкин. Миллий қонунчилигимизга кўра, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиш учун суд ва прокурор қонунга хилоф равишда озодликдан маҳрум этилган ёки қонун ёхуд суд ҳукмида назарда тутилганидан ортиқ муддат ҳибсда ушлаб турилган ёки қамоқда сақланган ёхуд уй қамоғида бўлган ҳар қандай шахсни дарҳол озод қилиши шарт (ЖПК 18-модда 3-қисм).

Ушбу Халқаро пактнинг 14-моддасида барча шахслар судлар олдида тенг эканликлари, ўзларига нисбатан қўйилган ҳар қандай жиноий айблов билан танишишга, қонунда белгиланган ваколатли, мустақил ва холис суд томонидан жиноий қилмишлари адолатли ва ошкора кўриб чиқилишига ҳақли; жиноий ишлари бўйича ҳар қандай суд қарори очиқ бўлиши; жиноят содир этишда айбланаётган ҳар бир шахс айби қонунга мувофиқ исботланмагунча айбсиз деб ҳисобланишга ҳақли; ҳар бир инсон ўзига қўйилган жиноий айбловни кўриб чиқишда тўлиқ тенглик асосида унга нисбатан қўйилган жиноий айбловнинг моҳияти ва сабаби тўғрисида ўзи тушунадиган тилда тез ва батафсил маълумот

² “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”даги Халқаро пакт Бош Ассамблеянинг 1966 йил 16 декабрдаги 2200 А (XXI) резолюцияси билан қабул қилинган.

олиши; агар бирон-бир шахс қонуний кучга кирган ҳукм билан жиноят содир этганликда айбдор деб топилган бўлса, бироқ кейинчалик унинг судланганлиги бекор қилинган ёки янги очилган ҳолат бўйича нотўғри ҳукм чиқарилганлиги аниқланиб, кўрсатилган номаълум ҳолат ўша вақтда тўлиқ ёки қисман унинг айби билан аниқланмаганлиги исботланмаган бўлса, ушбу шахс судланганлиги ва жазога тортилганлиги учун қонунга мувофиқ товон олиши; ҳеч ким давлатнинг қонунчилиги ва жиноий процессуал қоидаларига мувофиқ охири-оқибат судланган ёки оқланган жинояти учун қайта кўриб чиқилиши ёки жазоланиши мумкин эмас; ҳеч ким содир этилган вақтда амалдаги миллий ёки халқаро ҳуқуққа мувофиқ жиноий ҳуқуқбузарлик ҳисобланмаган ҳар қандай ҳаракат ёки ҳаракатсизлик учун жиноят содир этишда айбдор деб топилмаслиги; жиноий ҳуқуқбузарлик содир этилган пайтдаги жазодан оғирроқ жазо қўлланмаслиги; жиноят содир этилгандан кейин қонунда енгилроқ жазо белгиланган бўлса, ушбу қонуннинг амал қилиши ушбу жиноятчига нисбатан қўлланилиши керак.

“Жиноятчиликнинг олдини олиш ва жиноий судловда аёлларга нисбатан зўравонликни бартараф этиш бўйича намунавий стратегиялар ва амалий чора-тадбирлар”га³ асосан, аёлларга нисбатан зўравонликнинг кўп қирралилиги зўравонликнинг турли шакллариغا қарши курашиш ва у содир бўлган турли контекстларни ҳал қилиш учун турли стратегиялар зарурлигидан келиб чиқиб, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноий судловни амалга оширишда аёлларга нисбатан зўравонликни бартараф этиш мақсадида ҳуқуқий муносабатларнинг бир неча йўналишларига оид амалий чора-тадбирлар, стратегиялар ва тадбирлар келтириб ўтилган. Мисол учун, агар бошқача кўрсатилмаган бўлса, “аёллар”га “қизлар” ҳам кириши қайд этилган.

Ушбу ҳужжатда аъзо давлатларга қуйидаги мақсадларда ўзларининг жиноят процессуал оид қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

а) суд ҳокимиятининг қарори билан полицияга аёлларга нисбатан зўравонлик қуролларни мусодара қилиш ҳолатларида биноларга кириш ва ҳибсга олиш учун зарур ваколатлар берилиши;

б) зўравонликка учраган аёлларга нисбатан жиноий жавобгарликка тортиш ваколати прокуратура органларига юклатилиши;

в) зўравонликка учраган аёллар бошқа гувоҳлар билан тенг асосда суд муҳокамасида кўрсатма бериш имкониятини бериш ва шахсий дахлсизликни ҳимоя қилиш чораларини кўриш;

³ “Жиноятчиликнинг олдини олиш ва жиноий судловда аёлларга нисбатан зўравонликни бартараф этиш бўйича намунавий стратегиялар ва амалий чора-тадбирлар” Бош Ассамблеянинг 1997 йил 12 декабрдаги 52/86 резолюцияси билан қабул қилинган.

д) зўравонлик билан боғлиқ ҳар қандай жиноятларда тўлиқ жиноий жавобгарликдан озод этилишига йўл қўйилмайди;

э) спиртли ичимликлар ёки гиёҳванд моддалар таъсирида бўлган аёлларга нисбатан ихтиёрий равишда қабул қилган зўравонлик ҳаракатларининг айбдорлари жиноий ёки бошқа жавобгарликдан тўлиқ озод қилмаслик;

ф) айбланувчилар томонидан илгари содир этилган зўравонлик, таъқиб ва эксплуатация ҳаракатларининг далиллари жиноят қонунчилиги талабларига мувофиқ суд муҳокамасида кўриб чиқилиши;

г) давлат конституцияга мувофиқ судларга аёлларга нисбатан зўравонлик ҳолатлари бўйича ҳимоя ёки эҳтиёт чораси қўллаш, шу жумладан жиноятчиларнинг жабрланувчи, бошқа зўравонлик қурбонлари зарар етказишларини олдини олиш мақсадида уларга яқин келмасликларини таъминлаш;

з) зарурат туғилганда жабрланганлар ва уларнинг оила аъзоларининг хавфсизлигини таъминлаш, шунингдек уларни таҳдид ва репрессиялардан ҳимоя қилиш чораларини кўриш;

и) озодликдан маҳрум қилиш, қамокдан шартли равишда озод қилиш ёки бошқа жазо турларини тайинлаш аёлларнинг хавфсизлик масалаларини ҳисобга олиш керак.

Юқорида келтирилган ҳужжатда шунингдек, полицияга аёлларга нисбатан зўравонлик билан боғлиқ амалдаги қонунлар, кодекслар ва тартибларнинг қатъий бажарилишини таъминлаш, шунда аёлларга нисбатан зўравонликнинг барча жиноий ҳаракатлари учун жиноий иш қўзғатиш мажбурияти юкланиши; аёл жабрланувчи ва гувоҳларнинг хавфсизлигини жиноят процессигача, давомида ва ундан кейин ҳимоя қилиш; зўравонликка учраган аёлларга жиноят процессида иштирок этиш, процесс муддати, бориши ва якуний натижалари тўғрисидаги маълумотлардан ташқари ҳуқуқлар ва ҳимоя воситалари тўғрисидаги маълумотларни тақдим этилиши; зўравонлик қурбони бўлган аёлларнинг муаммоларини ҳал қилишда жиноий адлия тизимига ёрдам бериш учун намунавий тартибларни ишлаб чиқиш; аёллар учун адолат ва тенг ҳуқуқларни қўллаб-қувватлайдиган жиноий адлия тизимига жалб қилинган адвокатлар учун мажбурий амалиёт ва хатти-ҳаракатлар стандартларини ишлаб чиқиш учун профессионал уюшмаларни рағбатлантириш ва бошқа қатор таклифлар ишлаб чиқилган.

Европа Иттифоқининг фон дер Лаен комиссияси томонидан 2020-2025 йилга мўлжалланган гендер тенглиги стратегияси доираси аёллар ва эркекларнинг жиноят процессида тенг ҳуқуқларга эга бўлиш учун қатор ҳаракатлар амалга оширилмоқда. Мисол учун, 2022 йил 8 мартда Европа комиссияси аёлларга нисбатан зўравонлик ва оиладаги зўравонликка қарши

кўрсатма бўйича янги умумевропа таклифи билан жиноят қурбонлари гуруҳининг ҳуқуқлари бўйича мақсадли минимал қоидаларни жорий этишга ва жиноий жавобгарликка тортишга интилоқда.

Европа Кенгашининг ушбу соҳадаги бошқа ҳаракатлари қуйидагилардан иборат:

- аъзо давлатларни Европа Кенгаши ва бошқа тегишли ҳужжатларни, шу жумладан CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women)нинг аёлларнинг одил судловдан фойдаланиши бўйича 33-сонли умумий тавсиясини ҳисобга олган ҳолда амалга оширишда қўллаб-қувватлаш (2015);

- аёлларнинг адолатга киришдаги тўсиқларни камайтириш ва осонлаштириш учун аъзо давлатларнинг илғор тажрибаларини аниқлаш, тўплаш ва тарқатиш;

- жиноят ишларида аёлларнинг иштироки, уларнинг ҳуқуқларининг бузилиши ва бошқа ҳолатлар билан боғлиқ маълумотларнинг етишмаслиги ва камлиги бартараф этиш учун тадқиқот ва стандартлаштирилган маълумотлар йиғишни рағбатлантириш;

- Европа Кенгашининг 2020-2025 йилларга мўлжалланган судлар мустақиллиги ва холислиги бўйича Ҳаракат режасига мувофиқ - тадқиқот, мониторинг, ўқитиш, таълим бериш, салоҳиятни ошириш ва Европа Кенгаши ва халқаро ҳуқуқ ҳужжатларига мувофиқ ва бошқа минтақавий ва халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда миллий даражада илғор тажрибаларни илгари суриш;

- халқаро конвенциялар ва қонунчилик асослари, шу жумладан CEDAW ва Истанбул конвенцияси контекстида ва адлия мутахассислари ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг эҳтиёжларига мослаштирилган гендер тенглиги ва аёлларнинг инсон ҳуқуқлари бўйича ўқув воситалари ва материалларини ишлаб чиқиш ва тарқатиш;

- аёлларнинг одил судловга эришиши, шу жумладан судлов стереотиплари, гендер зўравонлик ва камситишдан ҳимоя қилиш билан боғлиқ масалалар бўйича ҳуқуқшунослар ўртасида хабардорликни ошириш ва яхшироқ тушунишни таъминлаш учун суд қарорларини мониторинг қилиш ва кузатиш;

- жинсга асосланган камситишларга қарши курашиш ва гендер тенглигини, шу жумладан суд жараёни орқали рағбатлантириш бўйича миллий тенглик органларининг ишини ва мустаҳкамланишини рағбатлантириш;

- жабрланувчиларни қўллаб-қувватлашнинг мавжуд воситалари ва адолатли судловга эришиш жараёнида аёлларнинг имкониятларини кенгайтириш учун илғор тажрибаларни аниқлаш ва тарқатиш;

- зўравонликдан омон қолганлар, муҳожирлар, қочқинлар ва бошпана излаётган аёллар, жинсий нафрат сўзларининг нишонлари каби ўта заиф вазиятларда аёлларнинг эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда аёлларнинг одил судловга киришини рағбатлантириш бўйича Европа Кенгашининг асосий воситалари ҳақида ахборот воситаларини ишлаб чиқиш ва бошқалар⁴.

Мамлакатимиз жиноят процессуал қонунчилиги доирасида аёллар ҳуқуқларини максимал даражада ҳимоя қилинган бўлсада, қабул қилинган қонунларнинг амалда бажаралишининг самарали механизмларини, тенг ҳуқуқлилиқни бузганларга нисбатан тегишли тартибда қонуний чораларнинг кўрилиши, қонунчиликда камситишга қарши махсус чораларни ишлаб чиқиш ва мустаҳкамлашга оид тадбирлар амалиётга жорий этилмоғи керак. Қонунларнинг амалиётда самарали ишлаши учун аёлларга уларнинг жиноят процессидаги ҳуқуқларнинг тушунтириш билан боғлиқ тарғибот, ўқитиш ишларни олиб бориш ҳам самарали натижа бериши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси.
2. “Аёлларга нисбатан зўравонликка барҳам бериш тўғрисида”ги декларация Бош Ассамблеянинг 1993 йил 20 декабрдаги 48/104 резолюцияси.
3. “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғриси”даги Халқаро пакт Бош Ассамблеянинг 1966 йил 16 декабрдаги 2200 А (XXI) резолюцияси билан қабул қилинган.
4. “Жиноятчиликнинг олдини олиш ва жиноий судловда аёлларга нисбатан зўравонликни бартараф этиш бўйича намунавий стратегиялар ва амалий чора-тадбирлар” Бош Ассамблеянинг 1997 йил 12 декабрдаги 52/86 резолюцияси билан қабул қилинган.
5. Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European economic and social committee and the committee of the regions a Union of Equality: Gender Equality Strategy 2020-2025.

⁴ Communication from the Commission to the European Parliament, the Council, the European economic and social committee and the committee of the regions a Union of Equality: Gender Equality Strategy 2020-2025.

ТУРКИЯ ЖИНОЯТ ПРОЦЕССУАЛ КОДЕКСИДА АЁЛЛАР ҲУҚУҚИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Қаршиева Мафтуна Мусурмон қизи
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси
Академияси магистратура битирувчиси

Европа Иттифоқн гендер тенгликка эришиш мақсадида Гендер тенглик комиссиясини ташкил этган. Ушбу комиссия таркибига Арманистон, Белия, Эстония, Финландия, Франция, Германия, Италия, Туркия, Украина, Буюк Британия ва бошқа қатор давлатлар аъзо бўлган.

Европа Иттифоқи, Европа Кенгаши ва Гендер тенглик комиссияси ҳамкорликда “Ғарбий Болқон ва Туркия учун 2019-2022 йиллар учун Горизонтал Фасилитй” номли қўшма дастур доирасида “Туркияда аёлларнинг одил судловга киришини таъминлаш” акцияси амалга оширилмоқда. Ушбу акция Туркиянинг тўртта вилоят: Орду, Невишеҳир, Диярбакир ва Муғлада жорий йилда ўтказилди.

Туркияда аёл ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ хабардорлик ва ҳуқуқий саводхонликни ошириш мақсадида “Тўрт фуқаролик жамияти” ташкилоти ўз фаолиятини бошлади. Ташкилот аёлларга ўз ҳуқуқларини даъво қилиш орқали судда ҳимоя қилиш, одил судловга эришишда адвокатлик хизматидан фойдаланиш ва ҳуқуқий саводхонликни ошириш учун қатор тадбирлар амалга оширилмоқда.

Аёллар бирдамлиги фонди хотин-қизларнинг жиноят одил судловда ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва юридик хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш мақсадида уларга ҳуқуқий ёрдам кўрсатмоқда ҳамда аёлларнинг одил судловга эришиши бўйича тажриба алмашиш учун платформа яратилиб, адвокатларни ҳамкорликка таклиф қилмоқда.

Жами 20 вилоятлар: Анқара, Измир, Истанбул, Адана, Урфа, Ван, Газиантеп, Ялова, Диярбакир, Сорум, Трабзон, Батман, Бурса, Маниса, Ҳатай, Эскишеҳир, Ризе, Мерсин ва Самсунда “Аёллар маслаҳат маркази” ижтимоий соҳа ходимлари ва адвокатлар тармоғи орқали 230 нафар фуқарога ҳуқуқий ёрдам кўрсатди. Бундан ташқари, Анқара, Истанбул, Мерсин, Адана, Ван, Диярбакир, Самсун, Муғла ва Газиантеп шаҳарларидаги адвокатлар ассоциациясидан 23 нафар адвокат ўртасида жиноят ҳуқуқий билимлар, кўникмалар алмашинувини учун иккита онлайн тажриба алмашиш семинарлари ташкил этилди. Семинарларда зўравонликдан жабрланган аёллар дуч келиши мумкин бўлган қийинчиликлар ва тўсиқлар ҳамда аёлларнинг одил судловга эришишини қўллаб-қувватлашда ҳуқуқий ёрдамнинг роли муҳокама қилинди.

Анқара, Адана, Самсун, Истанбул, Маниса, Муғла ва Ҳатай каби турли фуқаролик жамияти ташкилотлари ва адвокатлар ассоциацияси адвокатлари, шунингдек, стажёр адвокатлар ва ҳуқуқ факултети талабалари, жами 137 нафар ҳуқуқшунослар аёллар ва қизларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари билан танишдилар 10 ҳафталик онлайн ўқув курслари ташкил этилди.

Ўқув дастури давомида “Қизларнинг одил судловдан фойдаланиши ва юридик ёрдам механизмлари бўйича қўлланма”ни тайёрланди. Қўлланма Туркия адвокатлар уюшмаси онлайн кутубхонаси, Анқара адвокатлар уюшмаси веб-сайти, Анқара университети ва аёллар тадқиқотлари маркази веб-сайтларида жойлаштирилди. Ушбу дастурнинг мақсади учта асосий мавзуда аёлларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш бўлган: аёлларнинг инсон ҳуқуқлари ва гендер зўравонлигига қарши курашиш; аёлларнинг иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлари ва оила ҳуқуқи.

Туркиянинг турли вилоятларида ўтказилган турли лойиҳа, ўқув дастурлар, семинарлар доирасида турли сабабларга кўра, жиноят содир этган аёллар ва уларнинг яқин қариндошларига ҳа юридик хизмат кўрсатилди. Хотин-қизлар уларнинг миллий ва халқаро норматив ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган қонуний ҳуқуқлари ва эркинликлари тушунтирилди. Ўз қонуний ҳуқуқлари, улардан қандай фойдаланиш ва мавжуд ҳуқуқий ҳимоя воситалари ва хизматлар, шу жумладан юридик ёрдам ва жиноят судда ўз ҳуқуқларни ҳимоя қилиш борасида хабардорлик ва билими оширилди.

Ушбу акция доирасида қуйидаги натижаларга эришиш учун ҳаракат қилиниди:

- Туркияда аёлларнинг жиноят судларида одил судлов эришиш ва юридик ёрдам олишларидаги тўсиқ бўйича тадқиқот олиб борган ҳолда турли тавсиялар ишлаб чиқиш;
- танланган вилоятларда хотин-қизларга, айниқса кам таъминланган тоифадагиларга юридик ёрдам бўйича малакали юристлар томонидан юридик ёрдам кўрсатиш;
- юридик ёрдам кўрсатувчи адвокатларни қўллаб-қувватлаш, ходимларининг салоҳиятини ошириш;
- аёлларнинг одил судловдан фойдаланиш имкониятларини ошириш учун тренерларни тайёрлаш ва Европа Кенгашининг HELP дастури (юридик мутахассислар учун инсон ҳуқуқлари бўйича таълим) орқали онлайн репетиторлар тайёрлаш;
- аёлларга ҳуқуқий ёрдам кўрсатувчи адвокатлар учун кўрсатмалар/назорат рўйхатиларини тайёрлаш;

- Европа стандартлари ва истиқболли амалиётлари билан ўртоқлаш мақсадида семинар ташкил этиш орқали аёлларнинг одил судлов ва юридик ёрдам олиш имкониятларини таҳлил қилиб бориш;

- мақсадли тушунтириш ва хабардорликни ошириш бўйича семинарлар, материаллар, нашрлар ва таржималар;

- асосий манфаатдор томон бўлган Туркияда аёлларнинг одил судловдан фойдаланишини қўллаб-қувватлаш учун идоралараро ҳамкорликни қандай яхшилаш ва бошқа масалалар муҳокама қилинди.

Акция доирасида ўтказилган семинарларнинг бирида доцент Асуман Айтекин Инсеоғлу ўз тақдимида Туркияда аёлларнинг одил судловга кириши йўлидаги ҳуқуқий, институционал, ижтимоий-иқтисодий ва маданий тўсиқлар бўйича ўз кузатувлари билан ўртоқлашди ва одил судловга эришишнинг асосий тамойиллари, яъни адолатлилик, мавжудлик қоидаларини таъминланишни тушунтириб берди. Суд хизматларининг сифати билан боғлиқ ҳолда, у “юридик мутахассислар мавжуд қонунларни шарҳлаш ва қўллашда гендерга асосланган стереотиплар ва нотўғри қарашлардан хабардор бўлишлари ва уларни қайта ишлаб чиқаришдан қочишлари керак, акс ҳолда улар камситиш ва аёлларнинг одил судловга киришига тўсиқлик қилади”, деган фикрни билдирди.

Ўтказилган акция доирасида олиб борилган турли таҳлиллар ва тадқиқотлар шуни кўрсатадики, аёллар ўртасидаги ҳуқуқий билимларнинг етишмаслиги уларнинг ҳуқуқларини бузилиши олиб келган. Айниқса, ёши катта, қочкин, ногирон, боқувчисини йўқотган, саводсиз, ижтимоий ҳимояга муҳтож аёллар турли хил жиноят қурбонлари ёки унинг субъектига айланиб қолмоқдалар. Уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда уят, шарм-ҳаё, маданият, тобулар ва ҳаттоки қонундаги бўшлиқлар аёлларнинг ҳуқуқларини тўлиқ ҳимоя қилган ҳолда одил судловга эришишга тўсиқлик қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Assessing and managing risks in cases of violence against women and domestic violence: Manual.
2. Turkey - Assessing and managing risks in cases of violence against women and domestic violence: Manual
3. Article 11 of the Istanbul Convention: Ensuring data collection and research on violence against women and domestic violence.

**JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA EKSPERTIZA TEKSHIRUVI UCHUN
NAMUNALAR OLISHNING NAZARIY JIHATLARI**

Axmedova Sabrina Shuxrat qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

Akademiyasi ish yuritish bo‘yicha inspektori

Astanov Istam Rustamovich

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

Akademiyasi kafedra professori, yu.f.d

Annotatsiya: ushbu maqolada jinoyat ishlari bo‘yicha ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olishning nazariy asoslari tahlil etilgan, xususan ekspertiza tekshiruv uchun namunalar tushunchasiga ta’riflar ishlab chiqilgan hamda ekspertiza tekshiruv uchun namunalarning turlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: namuna, biologik material, ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish, surishtiruvchi, tergovchi, ekspert, mutaxassis.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ
ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ**

Ахмедова Сабрина Шухрат кизи

Инспектор по делопроизводства Академии Генеральной прокуратуры

Республики Узбекистан

Астанов Истам Рустамович

Д.ю.н, профессор Академии Генеральной прокуратуры

Республики Узбекистан

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические основы изъятия образцов для экспертизы по уголовным делам, в частности, разработаны понятия образцов для экспертизы, а также рассмотрены виды образцов для экспертизы.

Ключевые слова: образец, биологический материал, получение образцов для экспертного исследования, дознаватель, следователь, эксперт, специалист.

THEORETICAL ASPECTS OF OBTAINING SAMPLES FOR FORENSIC
EXAMINATION IN CRIMINAL CASES

Akhmedova Sabrina Shukhrat kizi

*Inspector for office work at the Academy of the General Prosecutor's Office of
the Republic of Uzbekistan*

Astanov Istam Rustamovich

*D.Sc, Professor of the Academy of the General Prosecutor's Office
of the Republic of Uzbekistan*

Abstract: This article discusses the theoretical foundations for obtaining samples for forensic examination in criminal cases, in particular, the concepts of samples for forensic examination are developed and the types of samples for examination are considered.

Key words: sample, biological material, obtaining samples for forensic examination, inquirer, investigator, expert, specialist.

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida u yoki bu obyektlarni taqqoslashga zarurat tug'iladi. Ko'pgina holatlarda bu kabi taqqoslashlar identifikatsion ekspertiza o'tkazish bilan amalga oshiriladi. Shuni aytsih mumkinki, muayyan obyektlarning tur va guruhiy tegishliligiga oid ma'lumotlarga aniqlik kiritishda ushbu obyektlardan namunalar olish muhim ahamiyatga ega. Namunalar olish tergov harakati hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, murdani eksqumatsiya qilish, xom ashyolardan, mahsulotlardan, boshqa materiallardan olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. "Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish" tushunchasiga ta'rif berishdan oldin kriminalistik identifikatsiya tushunchasiga to'xtalib o'tishimiz joiz. ayrim qoidalariga to'xtalib o'tishimiz lozim. Kriminalistik identifikatsiya jinoyat ishi bo'yicha qidirilayotgan, aniqlanishi lozim bo'lgan muayyan (odam, buyum) obyektning aynan o'zi ekanligini bildiradi.¹ Kriminalistik identifikatsiya qilish jarayonida identifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan obyektlar ajratib olinadi, ushbu obyektlar sirasiga qo'l izlari, so'lak, qon dog'lari, transport vositalari shinalaridan qolgan izlar, jinoyat quroliga yoki boshqa barqaror shaklga ega bo'lgan obyektlar, ashyo va materiallarning hajmi, og'irligi va h.k.lar kiradi. Kriminalistik identifikatsiyaning asosiy mohiyatini tashkil qiluvchi taqqoslash bosqichi identifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan kamida ikkita obyekt asosida amalga oshirilishi kerak.

¹ Д.Базарова, И.Р.Астанов Криминалистика ва экспертиза. Дарслик.– Тошкент: ТДЮУ, 2019. – 9 б.

Endi esa e'tiborimizni ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatiga qaratamiz. Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olishning protsessual tartibi va ulardan foydalanishning huquqiy asoslari surishtiruv, datslabki tergov va sud jarayonida bevosita ekspertiza o'tqazish bilan bog'liq bo'lib, mazkur masalalar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonunlarida o'z aksini topgan.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar tushunchasiga ko'pgina olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan.

Xususan, N.A.Selivanovning fikriga ko'ra, "Taqqoslash uchun olingan namunalar bu daliliy ahamiyatga ega bo'lmagan yordamchi texnik vositalar bo'lib, faqatgina ularni tekshirish va ashyoviy dalillar bilan taqqoslash natijalariga asosidagina daliliy ahamiyatga ega bo'ladi"².

I.Kertesning fikriga ko'ra esa, "Taqqoslash uchun namunalar sifatida faqat "reprezentativ namunalar" hisobga olinishi lozim. Ayrim jinoyatlar sodir etilganda predmetlarning kattaligi yoki ularning soni ushbu predmetlarni ashyoviy dalil sifatida ish uchun umumlashtirishga imkon bermaydi. Aynan shu holatda ushbu predmetlarning namunalari olinadi. Misol uchun, portlagan tsisterna, suvi zaharlangan quduq, betonli qurilma kabilarni yaxlit namuna sifatida olishning imkoni mavjud emas".³

I.A. Zinchenkoning fikricha, "Taqqoslash uchun namunalar yordamchi materiallar hisoblanib, ashyoviy dalillar bilan muomala qilish qoidalari qo'llaniladi.

N.N.Yegorovning fikricha, "Qiyosiy tadqiqotlar uchun namunalar jinoyat protsessida qo'llaniladigan obyektlarning mustaqil toifasi bo'lib, jinoyat ishida haqiqatni aniqlash uchun qiyosiy tadqiqot usullarini qo'llash zarurati bilan bog'liq. Ular moddiy dalillar bilan chambarchas bog'liq, ammo kelib chiqishi boshqacha hisoblanadi, chunki ular o'rganilayotgan hodisa natijasida kelib chiqmagan."⁴

Y.K.Orlovning fikriga ko'ra esa, "Mustaqil ashyoviy dalillarni 3 guruhga bo'lish mumkin: 1) ashyoviy dalillarning nusxalari: Misol uchun, haqiqiy ashyoviy dalildan nusxa ko'chirish yo'li bilan qo'lga kiritiladigan namunalar, ya'ni tish yoki oyoq izlaridan qoliplar olish; 2) predmetlarning analoglari (ashyoviy dalillarni o'rnini bosuvchi), umumiy, turdosh sifatlarga ega bo'lgan va asli topilmagan holatda uning o'rniga qo'llaniladigan predmetlar (masalan, odam o'ldirish jinoyatini sodir etishda

² Селиванов Н.А. Вещественные доказательства. М., 1971. С. 13.

³ Кертэс И. Основы теории вещественных доказательств. М., 1973.

⁴ Орлов Ю. К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. М., 2005. С.30

ishlatilgan pichoq topilmagan holatda ushbu pichoqqa o'xshash pichoq tadqiqot uchun qo'llaniladi); 3) qiyosiy tadqiqot uchun olingan namunalar.

N.I.Doljenkoning fikriga ko'ra, "taqqoslash uchun namunalar bu shubhasiz boshqa obyektidan kelib chiqqan hamda uning bir qismi bo'lib hisoblanuvchi yoxud uning belgilarini o'zida ifodalovchi moddiy obyekt bo'lib, identifikatsiya qilish yoki identifikatsiya qilinayotgan obyektga guruhviy mansubligini aniqlash va tergov qilinayotgan jinoyat ishidagi boshqa holatlarni aniqlash maqsadida olinadi"

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga ko'ra, "Namunalar bu – tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlardir".⁵

Yuqorida turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida namuna tushunchasiga quyidagi ta'rif berishni taklif etamiz: "Namunalar bu – ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash, tasdiqlash, inkor qilish, xulosa berish maqsadida ekspertiza tekshiruvini o'tkazish uchun qonunda belgilangan tartibda va vakolatli shaxs tomonidan olingan, rasmiylashtirilgan, lozim darajada saqlangan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlardir".

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 23-bob, 188-196-moddalarida ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tartibi mustahkamlangan bo'lib, namunalar 3 usul bilan, ya'ni ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatini o'tkazish, boshqa tezkor va tergov harakatlarini o'tkazish, dalillarni to'plashning umumiy usullaridan foydalangan holda olinadi.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish jarayonida ekspertiza tayinlashda taqdim qilinadigan namunalar 3 turga bo'linadi:

1. Erkin namunalar jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin shakllangan va mavjud bo'lgan ob'ektlardir (masalan, xatshunoslik ekspertizasi bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga tegishli bo'lgan uyidan, o'qish joyidan unga tegishli bo'lgan yozuvlarni olish orqali amalga oshiriladi).

Erkin namunalarning muhimligi shundaki, ularning berilmasligi xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat shakllantirilishiga ham olib kelishi mumkin.

2. Eksperimental namunalar ekspertiza tayinlagan xodim tomonidan jinoyat ishi maqsadlari uchun tayyorlangan ob'ektlardir. Asosan bunday namunalar ekspertiza o'tkazish jarayonida ekspertlar tomonidan olinadi (masalan, jinoyat ishi qo'zg'atilgandan

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi <https://lex.uz/acts/-1633102>

keyin shaxsni identifikatsiya qilish uchun olinadigan namunalar hisoblanadi. Ular jumlasiga yozuv namunalarini yozdirib olish, inson organizmi elementlari (qon, soch, so‘lak va boshqa namunalarni kiritish mumkin).

3. Shartli-erkin namunalar – ish qo‘zg‘atilganidan so‘ng bajarilgan, lekin ekspertiza o‘tkazish uchun maxsus mo‘ljallangan qo‘lyozma va imzolar shartli erkin namunalardir. Tushuntirish xati, ariza, shikoyat, so‘roq, yuzlashtirish bayonnomalarini mazkur namunalar jumlasiga kiritish mumkin⁶.

Shu bilan birga namunalar protsessual qoidalarga ko‘ra olinishi va kelib chiqish manbasiga qarab ham 2 turga bo‘linadi:

1. protsessual maqomga ega bo‘lgan shaxslardan, ya‘ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohdan olinadigan;

2. aniq protsessual maqomga ega bo‘lmagan (murdalar yoki hodisa joyidan olingan) ashyoviy dalillar, obyektlardan olingan namunalarga bo‘linadi.

Protsessual maqomga ega bo‘lgan shaxslardan ekspertiza tekshiruvini uchun namunalar olish tergov harakati namunalarni olishning boshqa usullaridan namunalar tirik shaxslardan olinishi hamda namunalarda ashyoviy dalillik (takrorlanmaslik) belgisi yo‘qligi bilan farqlanadi.

Yuqoridagi fikrimizning dalili O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 190-moddasida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra, “Ekspert tekshiruvini uchun namunalar gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, shuningdek tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash bo‘yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxsdan olinishi mumkin. Hodisa sodir bo‘lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan ham iz qoldirilgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida yetarlicha asoslar bo‘lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruvini uchun namuna olinishi mumkin”.

Bundan tashqari, I.Y.Loban, G.I.Zaslavskiy, V.L.Popov kabi olimlar namunalarni 2 turga, ya‘ni tekshiruvchi namunalar va andoza namunalarga ajratadi. Tekshiruvchi namunalar ekspertga ishchi namunalardagi aralashmalarning kelib chiqish manbalari, turi va ifloslanish darajasi haqidagi ma‘lumotlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, ishchi namunalarga predmet sifatida ishlatishga mo‘ljallangan turli xil material yoki moddalar – hodisa sodir bo‘lgan joydan tashqarida olingan, lekin ashyoviy dalil deb hisoblanmaydigan, umuman olganda tergov qilinayotgan jinoyatga bevosita aloqador bo‘lmagan predmetlar: bint, shisha predmetlar, konservalovchi suyuqliklar (spirt, formalin), tuproq, suv, havo namunalari kiradi. Andoza namunalar ishchi va tekshiruvchi namunalardan ekspertiza tekshiruvini o‘tkazish jarayonida noprotsessual jihatdan qo‘llanilishiga ko‘ra farqlanadi. Andoza namunalar bu muayyan biologik va

⁶ Замоновий экспертиза имкониятлари. Суд экспертизасининг имкониятлари ва уни тайинлаш тўғрисида услубий қўлланма. С.Отаҳўжаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 42.

kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan namunalarning yig'indisi hisoblanadi, misol uchun oldindan ma'lum muayyan turdagi antigen saqlovchi yoki aksincha antigen saqlamaydigan, reagent aralashmalarining biologik yoki kimyoviy, o'ziga xos faolligi va sezuvchanligini aniqlovchi namunalardir. Ular muayyan ekspertizada qo'llaniladigan reagentlarning o'ziga xosligi, faolligi va sezuvchanligini dastlabki sinovdan o'tkazish yoki ularning tuzilishi, tarkibi, biror tadqiqot uchu taqdim etilgan obyekt bilan o'zaro o'xshashlik xususiyatlarini taqqoslash uchun xizmat qiladi⁷.

A.N.Ivanovning fikricha, taqqoslash tadqiqoti uchun olingan namunalarning xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga ajratadi:

1. Odam organizmining hayoti uchun zarur bo'lgan va boshqa odam organizmining biologik obyektlari (qon, so'lak, tirnoq osti material);
2. Husnixat, yurish va boshqa ko'nikmalar kabi psixofiziologik o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi yuqori nerv sistemasida dinamik stereotiplar ko'rinishida mustahkamlangan obyektlar (husnixat, imzo namunalari, oyoq izlarining eksperimental yo'lakchasi);
3. Tekshirilayotgan obyektlar qoldirgan moddiy izlari (barmoq izlari, oyoq kiyim izlari, tish izlari)⁸.

P.P.Ishenko qiyosiy tadqiqot uchun olingan namunalarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Erkin va shartli erkin namunalalar;
2. Eksperimental namunalalar;
3. Kolleksion va andoza (etalon) namunalalar;
4. Sinov namunalari (muayyan materiallarning namunalari, tadqiq etilayotgan obyekt moddalari).

Bundan tashqari, materialshunoslik tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, u quyidagilarni ta'kidlaydi: Tovarshunoslik (материаловедческий) ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlariga tayanib olim namunalarni quyidagi turlarga ajratadi: andoza (etalon) namunalalar; material namunalari yoki tadqiq etilayotgan obyekt moddalari namunalari; tekshiruvchi namunalalar (kontrol) ⁹.

Qiyosiy tadqiqot uchun namunalarni nisbatan kengroq klassifikatsiyasi N.I.Doljenko tomonidan keltirib o'tilgan:

⁷ Лобан И.Е., Заславский Г.И., Попов В.Л. Судебно-медицинская деятельность в уголовном судопроизводстве: правовые, организационные и методические аспекты. СПб. 2003. С.314-316.

⁸ Иванов А. Н. Понятие, виды и тактика получения образцов для сравнительного исследования // Тактика следственных действий. / Под ред. В.И. Комиссарова Саратов, 2000. С.195.

⁹ Ищенко П. П. Специалист в следственных действиях (уголовно-процессуальные и криминалистические аспекты). М., 1990. С. 103.

Vujudga kelish vaqti va shart-sharoitlariga ko'ra namunalar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Erkin namunalar (dokriminal);
2. Shartli-erkin namunalar (postkriminal);
3. Eksperimental yoki maxsus namunalar.

Qiyosiy tadqiqot obyektining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra quyidagicha:

1. Obyektning individual belgilarini ko'rsatuvchi namunalar;
2. Turga xos yoki guruhiiy belgilarni ko'rsatuvchi namunalar.

Namunalarning xarakteriga ko'ra:

1. Izlar yoki barmoq izlari – obyektning tashqi tuzilishini atrof-muhitda aks ettiruvchi namunalar;
2. Inson yoki hayvon hayot faoliyati namunalari;
3. Obyektlarning qismini tashkil etuvchi namunalar;
4. Muayyan guruhga tegishli predmetlarning namunalari (kolleksion namunalar yoki andoza (etalon) namunalar).

Eksperimental (maxsus namunalar) namunalarni oluvchi shaxslar doirasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Surishtiruvchi tomonidan olinadigan namunalar;
2. Mutaxassis tomonidan olinadigan namunalar;
3. Ekspert tomonidan olinadigan namunalar.

Shaxslardan olingan namunalar ularning protsessual maqomiga ko'ra ham farqlanadi:

1. Jabrlanuvchidan olinadigan namunalar;
2. Guvohlardan olingan namunalar;
3. Gumon qilinuvchidan olinadigan namunalar;
4. Ayblanuvchidan olinadigan namunalar.

Ekspertiza turlariga ko'ra:

1. An'anaviy kriminalistik ekspertiza tekshiruvi uchun olingan namunalar;
2. Sud-tibbiy ekspertizasi tekshiruvi uchun olinadigan namunalar;
3. Tovarshunoslik (материаловедческая экспертиза) ekspertizasi tekshiruvi uchun olinadigan namunalar.

Qiyosiy-tadqiqot uchun olinadigan namunalarning olinish tartibiga ko'ra:

1. Ixtiyoriy asosda olinadigan namunalar;
2. Majburiy asosda olinadigan namunalar ¹⁰.

¹⁰ Долженко Н.И. Образцы для сравнительного исследования и тактика получения экспериментальных образцов. М., 2003. С. 182.

Bizning fikrimizcha, N.I.Doljenko tomonidan ekspertiza tekshiruvi uchun olinadigan namunalar klassifikatsiyasi ahamiyatli, lekin ushbu klassifikatsiyani yana takomillashtirish maqsadida unga qiyosiy tadqiqot uchun olinadigan namunalarning ularga nisbatan o'tkaziladigan ekspertizaning tartibiga ko'ra:

1. Dastlabki ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
2. Qo'shimcha ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
3. Qayta ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
4. Kompleks ekspertiza uchun olinadigan namunalar;
5. Komissiyaviy ekspertiza uchun olinadigan namunalar kabi turlarga bo'lish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Д.Базарова, И.Р.Астанов Криминалистика ва экспертиза. Дарслик.– Тошкент: ТДЮУ, 2019. – 9 б.
2. Селиванов Н.А. Вещественные доказательства. М., 1971. С. 13.
3. Кертэс И. Основы теории вещественных доказательств. М., 1973.
4. Орлов Ю. К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. М., 2005. С.30
5. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi <https://lex.uz/acts/-1633102>
6. Замонавий экспертиза имкониятлари. Суд экспертизасининг имкониятлари ва уни тайинлаш тўғрисида услубий қўлланма. С.Отахўжаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 42.
7. Лобан И.Е., Заславский Г.И., Попов В.Л. Судебно-медицинская деятельность в уголовном судопроизводстве: правовые, организационные и методические аспекты. СПб. 2003. С.314-316.
8. Иванов А. Н. Понятие, виды и тактика получения образцов для сравнительного исследования // Тактика следственных действий. / Под ред. В.И. Комиссарова Саратов, 2000. С.195.
9. Долженко Н.И. Образцы для сравнительного исследования и тактика получения экспериментальных образцов. М., 2003. С. 182.

ЭКСПЕРТИЗА ТЕКШИРУВИ УЧУН НАМУНАЛАР ОЛИШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ТАРТИБИ

Ахмедова Сабрина Шухрат қизи

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси

Академияси иш юритиш бўйича инспектори

Астанов Истам Рустамович

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси

Академияси кафедра профессори, ю.ф.д

Экспертиза текшируви учун намуналар олиш алоҳида тергов ҳаракати бўлиб, унинг сифатли амалга оширилиши экспертиза тергов ҳаракатини амалга ошириш сифатини белгилайди. Намуналар олиш жиноят содир этилганидан кейин, кўздан кечириш тергов ҳаракати ўтказилганидан кейин амалга ошириладиган далилларни тўплаш усулларида бири саналади.

Аммо ЖПКнинг 329-модда иккинчи қисми талабларига кўра жиноят иши кўзғатилгунига қадар кўздан кечириш ва экспертиза тергов ҳаракатини ўтказиш мумкинлиги бошқа тергов ҳаракатларини ўтказиш ман қилиниши баён қилинган бўлиб, фикримизча, мантиқан нотўғри. Чунки экспертиза текшируви учун намуналар олиш тергов ҳаракати экспертизасининг бошланғич босқичи ҳисобланади. Яъни намуна олинмаса, экспертизани ўтказишнинг имконияти йўқ.

Намуналарнинг турлари ва уларни олиш усуллари ЖПКнинг 188-моддасида белгиланган бўлиб, унга кўра суриштирувчи, терговчи ёки суд тирик одамнинг, мурданинг, ҳайвоннинг, ўсимликнинг, буюмнинг, материалнинг ёки модданинг хусусиятларини ўзида акс эттирувчи намуналар олишга, башарти уларнинг эксперт текшируви эксперт олдида қўйилган саволларни ҳал қилиш учун зарур бўлса, намуналар олиши мумкин.

Тирик одамдан биологик: қон, соч, сўлак, инсон организмидан ажралиб чиқадиган моддалар (биологик экспертиза учун); психофизик: дастхат (хатшунослик экспертиза учун); анатомик: тери нақшининг чизиқлари (датилоскопик экспертиза), тиш қолиплари (тиббий экспертиза учун); шунингдек овознинг хусусиятлари (фонографик экспертиза учун), касб малакасини акс эттирувчи намуналар олинади.

Мурдани кўздан кечиришда ҳам текширув ўтказиш учун керакли моддий намуналар олинади.

Бундан ташқари, намуна тариқасида хом ашё, маҳсулот ва бошқа материаллардан модданинг турга оид ёки ўзига хос физик ёхуд кимёвий хоссаларини акс эттирувчи намуналар олиниши ҳам мумкин.

Текширув ўтказиш жараёнида эксперт гильза, ўқ, бузиш асбоблари ва бошқа объектларнинг тажриба намуналарини тайёрлашга ҳамда уларнинг экспериментал изларига қараб, ўхшашлик ёки фарқланиш масаласини ҳал этади. Ушбу жараён баллистик экспертиза учун намуналар олинади¹.

ГФРнинг 91, 92-моддаларида намуналар олиш жараёнида олинadиган ва экспертиза қилинадиган объектлар жумласига киритилганлигини мисол қилишимиз мумкин.

Суд экспертизасининг классификацияси турли асосларга қараб амалга оширилади. Экспертизалар турига бир вақтнинг ўзида 3 белгиси бўйича ажратилади: экспертиза объекти, предмети, қўлланиладиган услублари. Криминалистик экспертизани ўтказиш учун олинadиган намуналарнинг турлари асосан қуйидагилардир: қўлёзма хат, имзо, рақам ёзувлари, босма ва кўпайтирувчи воситалардан олинadиган намуналар, изларни ҳосил қилadиган объектлардан қолип-нусхалар, ашёвий далил, унинг айрим қисмлари, модда қолдиқлари. Криминалистик тадқиқот ўтказиш учун зарур бўладиган намуналар эркин ва экспериментал бўлиши мумкин².

1. Экспериментал намуналар экспертиза тайинлаган ходим томонидан жинойт иши мақсадлари учун тайёрланган объектлардир. Асосан бундай намуналар экспертиза ўтказиш жараёнида экспертлар томонидан олинади (масалан, жинойт иши қўзғатилгандан кейин шахсни идентификация қилиш учун олинadиган намуналар ҳисобланади. Улар жумласига ёзув намуналарини ёздириб олиш, инсон организми элементлари (қон, соч, сўлак ва бошқа намуналарни киритиш мумкин).

Бундан ташқари, шартли эркин намуналар ҳам мавжуд. Иш қўзғатилганидан сўнг бажарилган, лекин экспертиза ўтказиш учун махсус мўлжалланган қўлёзма ва имзолар шартли эркин намуналардир. Тушунтириш хати, ариза, шикоят, сўрок, юзлаштириш баённомаларини мазкур намуналар жумласига киритиш мумкин³.

ЖПКда намуна олиш ҳуқуқига эга бўлган шахслар ва органлар 189-моддада белгиланган бўлиб, унга кўра эксперт текшируви намуналар олинadиган шахсни ечинтириб яланғочлаш билан боғлиқ бўлмаса ва алоҳида касб маҳоратини талаб қилмаса, суриштирувчи, терговчи ёки суднинг ўзи, зарурат бўлганда эса шифокор, бошқа мутахассис, эксперт иштирокида эксперт текшируви учун намуналар олиши мумкин.

¹ Рубис А.С., Лаппо Е.А. Аспекты оценки достоверности судебно-баллистических экспертиз в правоприменительной деятельности // Вестник Академии МВД Республики Беларусь. – 2015. – №1 (29). – С. 89.

² Алимова Р., Отахўжаев С. Суд экспертизасини ташкил қилиш ва ўтказиш масалалари. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2001. – Б. 13.

³ Замонавий экспертиза имкониятлари. Суд экспертизасининг имкониятлари ва уни тайинлаш тўғрисида услубий қўлланма. С.Отахўжаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 42.

Эксперт текшируви учун намуналар олиш яланғоч бўлиш талаб қилинганда эса ёки алоҳида касб маҳоратини талаб қилган ҳолатларда суриштирувчи, терговчи ёки суднинг топшириғига биноан текширув учун намуналарни шифокор ёки бошқа тиббий мутахассис намуна олади. Ушбу ҳолатнинг эътиборга молик томони шундаки, ЖПК нормасига асосан намуналар олиш шахсни ечинтириб яланғочлаш билан боғлиқ бўлмаса ва алоҳида касб маҳоратини талаб қилмаса, зарурат бўлганда эса шифокор, бошқа мутахассис, эксперт иштирокида намуна олиш талаб қилинган. Аммо намуналар олиш яланғоч бўлишни талаб қилинганда ёки алоҳида касб маҳоратини талаб қилган ҳолатларда эса экспертнинг иштироки талаб қилиниши кўрсатилмаган.

Эксперт текшируви учун намуналар гумон қилинувчидан, айбланувчидан, судланувчидан, жабрланувчидан, шунингдек тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларини қўллаш бўйича устидан иш юритилаётган шахсдан олинади.

Ҳодиса содир бўлган жойда ёки ашёвий далилларда бошқа шахслар томонидан ҳам из қолдирилган бўлиши мумкинлиги тўғрисида етарлича асослар бўлган тақдирда шу шахслардан ҳам эксперт текшируви учун намуна олиниши мумкин.

Демак, экспертиза текшируви учун намуналар олинадиган шахслар доираси чекланмаган.

Намуна олишда чиқариладиган юридик факт ҳисобланган ҳужжатлар жумласига намуна олиш тўғрисидаги қарор ёки ажримни киритиш мумкин бўлиб, у ЖПКнинг 191-моддасида ўз аксини топган.

Намуна олишда маълум бир шахсларнинг намуна олиш жараёнига йўл қўйилмаслиги ва розилик бермаслигини инобатга олиб, жиноят ишини очиш лозимлиги нуқтаи назаридан мажбурлов чегараси белгиланган ҳисобланади. Мазкур тартиб ЖПКнинг 192-моддасида белгилаб берилган бўлиб, унга кўра ўзидан намуна олиниши учун келишдан бош тортаётган гумонланувчилар, айбланувчилар, судланувчилар, жабрланувчилар мажбурий келтирилиши ҳам мумкин. Уларга нисбатан қўлланилаётган мажбурий намуна олиш жараёнидаги усуллар оғриқ бермайдиган, инсон ҳаёти ва соғлиғи учун хавфсиз бўлган ҳолатлардагина йўл қўйилади. Ушбу шахслардан ташқари субъектлардан намуналар олинишига таносил касаллиги ва бошқа юқумли касалликларни аниқлаш билан боғлиқ бўлган ҳолларда мажбурлов йўли билан олиниши мумкин.

Суриштирувчи, терговчи ёки суд томонидан намуналар олиш тартиби ЖПКнинг 193-моддасида баён қилинган бўлиб, унга кўра суриштирувчи ёки терговчи намуна олиниши керак бўлган шахсни ёхуд шахсларни чақиртириши лозим. Агарда бунинг иложи бўлмаса, у яшайдиган жойга бориб намуна олиш тўғрисидаги қарор билан шахсни таништириши лозим. Суриштирувчи, терговчида суддан келиб тушган ажрим бўлса, уни ҳам олиб намуна олинувчи шахсни

таништириб тилхат олиши талаб қилинади. Мазкур шахсга, мутахассисга, холисларга уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тушунтирилиши, агар кимдир процессуал жиҳатдан рад этиладиган бўлса, унинг жиноят процесси иштирокчиси сифатида ишда қатнашишига моёнелик қилиш талаб қилинади. Ушбу масалалар ҳал қилинганидан кейин суриштирувчи ёки терговчи эксперт текшируви учун намуналар олади. Бундай ҳолатда қўлланилаётган илмий-техникавий воситалар оғриқ бермайдиган ҳамда инсон ҳаёти ва саломатлиги учун хавфли бўлмаган ҳолда қўлланилиши талаб қилинади.

Намуналар олишда мурдани эксгумация қилиш орқали, хом ашёлардан, маҳсулотлардан, бошқа материаллардан олиб қўйиш ёки тинтув ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

Олинган намуналар тегишли тартибда ўралиши ва муҳрланиши талаб қилинади. Ушбу ҳаракатлар ашёвий далилларнинг бутунлигини бузмаслик, шикаст етказмаслик ва ундаги изларнинг яхши сақлаб қолинишини таъминлаш учун хизмат қилиши лозим. Мазкур ҳаракатлар амалга оширилганидан кейин суриштирувчи ёки терговчи уларни намуна олиш баённомаси билан бирга тегишли экспертга юборади. Ушбу ҳолатда намуналар олинган жой ва ҳолат акс эттирилган фото ва видеоларни ҳам қўшимча материал сифатида экспертга юбориши мумкин. Бундай ҳаракат, ўз навбатида, экспертнинг нумана олинган жой ва намунанинг ўзига хослиги ҳақида маълумот олиши ва намунадан тўлиқ ҳамда сифатли фойдаланиш имкониятини беради. Агар намуна олиш суднинг ажримига биноан амалга оширилган бўлса, ушбу ажримни бажарган суриштирувчи ёки терговчи намуналарни уларни олиш тўғрисидаги баённома билан бирга судга юборади. Суд тарафлар иштирокида намуналарни кўздан кечириб, уларнинг ҳақиқийлигига ва тўла сақланганлигига, ўз хусусиятларини йўқотмаганлигига ишонч ҳосил қилганидан кейин олинган намунани ажрим ва баённома билан бирга тегишли экспертга юборади.

Экспертиза текшируви учун намуна олувчи шахслардан яна бири шифокор ёки бошқа мутахассис бўлиб, уларнинг фаолияти ЖПКнинг 194-моддасида акс эттирилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Рубис А.С., Лаппо Е.А. Аспекты оценки достоверности судебно-баллистических экспертиз в правоприменительной деятельности // Вестник Академии МВД Республики Беларусь. – 2015. – №1 (29). – С. 89.
2. Алимова Р., Отахўжаев С. Суд экспертизасини ташкил қилиш ва ўтказиш масалалари. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2001. – Б. 13.
3. Д.Базарова, И.Р.Астанов Криминалистика ва экспертиза. Дарслик.– Тошкент: ТДЮУ, 2019. – 9 б.

4. Селиванов Н.А. Вещественные доказательства. М., 1971. С. 13.
5. Кертэс И. Основы теории вещественных доказательств. М., 1973.
6. Орлов Ю. К. Судебная экспертиза как средство доказывания в уголовном судопроизводстве. М., 2005. С.30
7. Замоновий экспертиза имкониятлари. Суд экспертизасининг имкониятлари ва уни тайинлаш тўғрисида услубий қўлланма. С.Отаҳўжаев умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 42.
8. Лобан И.Е., Заславский Г.И., Попов В.Л. Судебно-медицинская деятельность в уголовном судопроизводстве: правовые, организационные и методические аспекты. СПб. 2003. С.314-316.
9. Иванов А. Н. Понятие, виды и тактика получения образцов для сравнительного исследования // Тактика следственных действий. / Под ред. В.И. Комиссарова Саратов, 2000. С.195.
10. Долженко Н.И. Образцы для сравнительного исследования и тактика получения экспериментальных образцов. М., 2003. С. 182.

ЭКСПЕРТИЗА ТЕКШИРУВИ УЧУН НАМУНАЛАР ОЛИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ЖИХАТЛАРИ

Ахмедова Сабрина Шухрат қизи

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси

Академияси иш юритиши бўйича инспектори

Астанов Истам Рустамович

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси

Академияси кафедра профессори, ю.ф.д

Экспертиза текшируви учун намуналар олишнинг асосини намуна, яъни тадқиқот объекти ташкил қилади. Ушбу объектларнинг хусусиятини билиш ва унинг ўзгариш хусусиятлари, жиноят содир этилган жойда қаерлардан топиш лозимлигини билиш экспертиза текшируви учун намуналар олиш тизимини сифат жиҳатдан такомилга сабаб бўлади.

Экспертиза объекти атамаси кўпқирра бўлиб, у муҳим амалий ва назарий аҳамиятга эга. Чунончи, экспертиза тадқиқот объектлари унинг криминалистик турларини белгилаб беришда асосий омил бўлиб хизмат қилади ҳамда экспертиза тадқиқотининг муваффақиятли яқунланишига кўп жиҳатдан таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, экспертнинг билим соҳаси қўйилган саволларни ҳал қилиш учун тадқиқот объектини ўрганиш хусусияти билан белгиланади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида қайд этилганидек, “объект (лот. “objectum” – “нарса”) – киши фаолияти, диққат эътибори қаратилган ҳодиса, нарса”¹ ҳисобланади. Демак, экспертиза тадқиқоти объекти деганда, экспертиза текширувида тадқиқ этиладиган нарсалар тушунилади.

Экспертиза тадқиқот объектининг ўзига хос жиҳати шундаки, у экспертизани тайинлаган ваколатли шахслар томонидан тақдим этилади².

Экспертга тақдим этиладиган иш материаллари шартли равишда қуйидаги уч тоифага бўлиш мумкин: а) ашёвий далиллар, уларнинг нусхалари аниқланган жой, уларни қайд қилиш усули ва олинishi билан боғлиқ материаллар; б) экспертизани тайинлаш тўғрисидаги қарор (ажрим)га киритилган дастлабки маълумотлар сифатидаги материаллар; в) эксперт текширувининг асосий объекти бўлган материаллар.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Т.2. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 77.

² Смирнова С.А. Судебная экспертиза на рубеже XXI века. Состояние, развитие, проблемы. 2-е издания, переработанное и дополненное. – СПб.: Питер, 2004. – С. 659.

Дастлабки тергов давомида ўтказилган экспертизани баҳолашда бундай материалларнинг ишончилигини, яъни уларнинг келиб чиқиш манбаи ва уларга киритилган маълумотларнинг ишончилигини аниқлаш лозим.

Шу ўринда “экспертиза предмети” ва “экспертизаси объекти” каби тушунчаларни фарқлаш жоиз. Илмий адабиётларда “экспертиза объектини ўрнатилган фактларни тадқиқ қилинаётган ҳолат билан боғлиқлиги ташкил қилади” дейилади³. Экспертиза жараёнида эксперт экспертиза объекти далил сифатида ишга қўшилганлигидан қатъи назар унинг процессуал-ҳуқуқий табиатини эмас, балки идентификация, диагностика қилинишини ва бошқа моддий объектларнинг муносабатини тадқиқ қилади⁴. Объектнинг процессуал ҳуқуқий табиатини, шу билан бирга эксперт хулосасини ҳам тадқиқ қилиш экспертнинг эмас, балки тергов (суд) органининг функцияси ҳисобланади⁵.

Далилий ашё ҳисобланган предмет ва ҳужжатлар турли мутахассисликдаги экспертлар тадқиқотининг объекти бўлиши мумкин. Масалан, бухгалтерия ҳужжати ҳақиқийлигига шубҳа туғилса, у бухгалтерия экспертизаси ва айни дамда хатшунослик экспертизасининг объекти бўлиши мумкин.

Юридик адабиётларда экспертиза объектини таснифлаш борасида турли нуқтаи назарлар шаклланган. Хусусан, Д.Я.Мирский экспертиза объектларини икки асосга қараб таснифлайди: 1) процессуал табиатига (далилий аҳамиятига); 2) ашёвий табиатига (улар хусусияти) кўра⁶. Т.П.Аверьянова эса экспертиза объектларини идентификация қилувчи ва қилинувчи каби турларини кўрсатади⁷.

Юқоридагилар билан бир қаторда экспертиза объектларини уч гуруҳга ажратиш мумкин: асосий объект (жиноят ҳодисаси билан боғлиқ далилий ашёлар), қиёсий материаллар (қиёсий тадқиқот учун олинган намуналар), маълумот берувчи материаллар (экспертиза предметиға тегишли ахборот тусидаги маълумотларни ўзида акс эттирувчи нарсалар бўлиб, улар экспертиза учун маълумотлар манбаси бўлиб хизмат қилади, уларга процессуал ҳужжатлар, хусусан, сўроқ баённомаси, олиб қўйиш, тинтув ҳужжатлари киради)⁸.

³ Аверьянова Т.В. Интеграция и дифференциация научных знаний как источники и основы новых методов судебной экспертизы. – М.: Академия МВД России, 1994. – С. 85.

⁴ Кирсанов З.И. Функции эксперта и специалиста в установлении обстоятельств уголовного дела // Информационный бюллетень Академия управления МВД России. – Москва, 1998. – № 6. – С. 5.

⁵ Винберг А.И. Теория доказательств в уголовном процессе. – М.: Госюриздат, 1973. – С. 648-649; Мирский Д.Я. Ростов М.Н. Понятие объекта судебной экспертиз // Сб. науч. трудов. по теме “Теоретические и методологические вопросы судебной экспертизы”. – М.: ВНИИСЭ, 1984. – С. 30.

⁶ Мирский Д.Я. Некоторые теоретические вопросы классификации объектов судебной экспертизы, их свойства и признаки // Сборник научных трудов. – М.: ВНИИСЭ, 1986. – С.55.

⁷ Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминалистика: Учебник для вузов / Под ред. Р.С. Белкина. – М.: НОРМА, 2002. – С. 90.

⁸ Аверьянова Т.В. Джаводов Ф.М. К вопросу о субъектах и объектах экспертного исследования. – М.: НОРМА, 1998. – С. 50.

Р.С.Белкин эса экспертиза объектини аниқ ва турдош турларга бўлган⁹. Бошқа адабиётларда¹⁰ эса экспертиза объектини умумий, турдош, аниқ ва бевоситаларга бўлиш таклиф этилади.

М.Н. Ростовнинг фикрича, суд-тергов амалиётида экспертиза тадқиқоти объектлари умумий, турдош, аниқ ва бевосита каби турларга бўлинади¹¹. Биз ҳам экспертиза объектини шу тарзда таснифлашни таклиф этган муаллифлар фикрини қўллаб-қувватлаган ҳолда уларга қисқача тўхталиб ўтсак:

1) умумий объект – барча маълумот манбалари ҳисобланган тушунчалар бўлиб, унга “моддий дунё объектлари (ашёлари) кириб, улар махсус билимларга асосланган ҳолда экспертга фактларни ўрнатишга хизмат қилади”.

2) турдош объект – ўзининг хусусиятлари билан бошқалардан ажралиб турувчи, маълумот ташувчи категория бўлиб, маълум бир гуруҳни ифодаловчи тушунчалардан иборат бўлади. Турдош объект “маълум бир гуруҳ нарсалар ҳақида маълумот берувчи ва уларни маълум бир гуруҳларга бирлаштирувчи объектдир”.

3) аниқ объект – маълум бир жиноят ҳолати юзасидан экспертга юборилган маълумот ташувчи манбадир. Аниқ предмет бу экспертга юборилган ва терговчи экспертиза тайинлаши орқали юборган ва хулоса чиқарилиши лозим бўлган ашё ҳисобланади. Бу мавҳум тушунча эмас, балки далилий аҳамиятга эга бўлган ашё аниқ объектга киришини тушунишимиз лозим.

4) бевосита объект – аниқ объектнинг бир қисми бўлиб, у эксперт олдида кўйилган саволларда акс этган бўлади. Экспертиза тадқиқоти жараёнида тадқиқ қилинаётган объект бунга мисол бўла олади.

Д.Я. Мирский яна экспертиза объектини махсус ва бевосита объектларга бўлиб, махсус объект маълумот ташувчининг хусусиятларидан келиб чиқади ва маълум бир экспертиза тури учун махсус аҳамиятга эга бўлиб, бир турдаги экспертизалардагина қўлланилади. Бевосита объект эса аниқ объектнинг таркибий қисми сифатида кўпинча эксперт хулосасида аниқ бир далил шаклида намоён бўлади¹², деб ёзади.

Экспертиза тадқиқотининг объекти яна процессуал шакл жаҳатидан ҳам фарқланади. Мазкур мезон асосида таснифлашда шакл экспертиза объектларининг барча турларига дахлдор бўлади. Улар биринчидан, процессуал табиатига кўра экспертиза объекти ва ашёвий табиатига кўра турларга бўлинади. Процессуал табиатга эга объектга тергов ва суд тергови жараёнида аниқланган процессуал

⁹ Белкин Р.С. Курс криминалистики. – М.: Норма, 1997. Т.3. – С. 67.

¹⁰ Аверьянова Т.В. Статкуса В.Ф. Практическое руководство по производству судебных экспертиз для экспертов и специалистов. – М.: Юрайд, 2017. – С. 36.

¹¹ Ростов М.Н. О содержании понятий, обозначаемы терминами «объект (экспертизы, экспертного исследования)», «качество», «свойство» и «признак» // Методология судебной экспертизы. Сб. науч. статей. – М.: ВНИИСЭ, 1986. – С. 42.

¹² Мирский Д.Я. Некоторые теоретические вопросы классификации объектов судебной экспертизы, их свойства и признаки // Сборник научных трудов. – М.: ВНИИСЭ, 1986. – С. 59.

ҳолатлар, яъни ўзидан ўзи кўриниб турган ашёлар эмас, балки экспертиза натижасида аниқланган ҳолатлар (дактилоскопик, трассологик излар) кирса, ашёвий табиатга эга объектга аниқ жиноят содир этилган жойда мавжуд бўлган ва жиноятга дахлдор эканлигига шубҳа бўлмаган объектлар киради. ЖПКнинг 175-моддасига кўра ашёвий далиллар эксперт текшируви учун намуналар, бошқа моддий объектлар, мурдалар ва уларнинг қисмлари, ҳужжатлар, шунингдек экспертиза ўтказилаётган иш материаллари текшириш объектлари бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Т.2. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 77.
2. Смирнова С.А. Судебная экспертиза на рубеже XXI века. Состояние, развитие, проблемы. 2-е издания, переработанное и дополненное. – СПб.: Питер, 2004. – С. 659.
3. Аверьянова Т.В. Интеграция и дифференциация научных знаний как источники и основы новых методов судебной экспертизы. – М.: Академия МВД России, 1994. – С. 85.
4. Кирсанов З.И. Функции эксперта и специалиста в установлении обстоятельств уголовного дела // Информационный бюллетень Академия управления МВД России. – Москва, 1998. – № 6. – С. 5.
5. Винберг А.И. Теория доказательств в уголовном процессе. – М.: Госюриздат, 1973. – С. 648-649; Мирский Д.Я. Ростов М.Н. Понятие объекта судебной экспертиз // Сб. науч. трудов. по теме “Теоретические и методологические вопросы судебной экспертизы”. – М.: ВНИИСЭ, 1984. – С. 30.
6. Мирский Д.Я. Некоторые теоретические вопросы классификации объектов судебной экспертизы, их свойства и признаки // Сборник научных трудов. – М.: ВНИИСЭ, 1986. – С.55.
7. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминалистика: Учебник для вузов / Под. ред. Р.С. Белкина. – М.: НОРМА, 2002. – С. 90.
8. Аверьянова Т.В. Джаводов Ф.М. К вопросу о субъектах и объектах экспертного исследования. – М.: НОРМА, 1998. – С. 50.
9. Белкин Р.С. Курс криминалистики. – М.: Норма, 1997. Т.3. – С. 67.
10. Аверьянова Т.В. Статкуса В.Ф. Практическое руководство по производству судебных экспертиз для экспертов и специалистов. – М.: Юрайд, 2017. – С. 36.
11. Ростов М.Н. О содержании понятий, обозначаемы терминами «объект (экспертизы, экспертного исследования)», «качество», «свойство» и «признак» // Методология судебной экспертизы. Сб. науч. статей. – М.: ВНИИСЭ, 1986. – С. 42.
12. Мирский Д.Я. Некоторые теоретические вопросы классификации объектов судебной экспертизы, их свойства и признаки // Сборник научных трудов. – М.: ВНИИСЭ, 1986. – С. 59.

TARIXIY MADANIY MEROSIMIZNI TARG'IB QILISHDA JADIDLAR FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Samandarov Qalandar Daniyori o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistratura 2 - bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada tarixiy madaniy merosimizni targ'ib qilishda jadidlar faoliyatining tutgan o'rni va ahamiyati xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarix, madaniyat, manaviyat, meros, madaniy meros, moddiy meros, milliy va umumbashariy madaniyat, jadidchilik, ma'rifatparvarlik.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE ACTIVITIES OF JADIDS IN PROMOTING OUR HISTORICAL CULTURAL HERITAGE

Abstract: this article presents ideas about the role and importance of the activities of the Jadids in the promotion of our historical and cultural heritage.

Key words: history, culture, spirituality, heritage, cultural heritage, material heritage, national and universal culture, modernization, enlightenment.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh yo'nalishlardan biri kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ta'lim tizimi o'quv rejalarida bo'lajak mutaxassislar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida talabalarni milliy va umumbashariy madaniyat yutuqlari bilan tanishtirish ko'zda tutilgan. Zero, insoniyatning kelajagi uning madaniyatlik darajasiga bog'liq bo'lmoqda. Chunki insoniyatning keyingi hayotini qurolii to'qnashuvlar, tajovuz va zo'ravonliklar emas, balki har bir shaxsning madaniyatlik saviyasi belgilab beradi. BMTning XXI asrni insonparvarlik asri, jamiyatni insoniylashtirish, ya'ni madaniylashtirish asri deb e'lon qilishi ham bejiz emas. Shu sababli keyingi paytlarda jahon miqyosida, ayniqsa, Respublikamizda milliy madaniyat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Madaniyat ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijodi va atrof-muhitga bo'lgan munosabatining mahsuli bo'lib, minglab yillar davomida yaratilgan tajribalarni o'ziga singdirib, takomillashib borgan. Madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma'naviy qiyofasi ham shakllangan. Yurtimizning har bir fuqarosi, eng avvalo, Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz ma'naviy merosidan yaxshi xabardor bo'lishi shart. Chunki ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni bilmagan kishi Vatan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olmaydi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek,

“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”. Ayniqsa, ajdodlarning ma‘naviy merosini bilish millatning yosh avlodi uchun juda muhim. Chunki milliy madaniyat tarixini bilmasdan, o‘rganmasdan turib, o‘zlikni anglash va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish, millatning haqiqiy vakili bo‘lishi mumkin emas. Millatning kelajagi bo‘lmish yoshlar, eng avvalo, madaniyat, uning tarkibiy qismlari, ma‘naviy meros, sivilizatsiya, ajdodlar tajribasi (ibtidoiy davrdan hozirgacha qo‘lga kiritilgan yutuqlar)ini bilishi va ulardan ijodiy foydalanishi talab qilinadi. Ikkinchidan, yoshlar umumbashariy madaniyatdan ham xabardor bo‘lishi zarur. Chunki boshqa xalqlar madaniyati, uning yaratilish jarayoni, madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta‘sir etishi jarayonidan xabardor bo‘lgan kishigina o‘z ajdodlarining ma‘naviy boyliklarining qadriga yetadi, ularni asrab-avaylab, keyingi avlodlariga yetkazishga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

ASOSIY QISM

Madaniy meros - avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma‘naviy boyliklar majmui. Har bir davr va avlod o‘ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo‘lsa, davr va avlodlar ham shunday. Madaniy meros keng xalq ommasi va ayrim ijodkorlar merosi tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, xalq madaniyati va ijodiga oid boyliklar asrlar davomida yig‘ilib, har bir avlod tomonidan qayta ishlanib, to‘ldirilib, ommaviy ko‘rinishda yashab keladi.

Jamiyat ma‘naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o‘z ma‘naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Ma‘navit insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da‘vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, imon irodasi, e‘tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli kuchdir. Tarixdan ma‘lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujmiga duchor bo‘lgan, qaramlik va julm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma‘naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishga mahkum bo‘lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma‘naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko‘plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab oqibatida mamlakatimizda boy ma‘naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat ma‘naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta‘minlovchi ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi. «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta‘minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma‘naviy

islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, otabobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda».

O'rta Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning boy tarixiy merosidan, shu jumladan, SHarqning Uyg'onish davrida yashagan buyuk ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan boy tarixiy merosdan foydalanish mamlakatni ma'naviy tiklanishining muhim sharti bo'ldi. Ularning eng katta yutug'i shundaki, ular insoniylik g'oyalariiga asoslangan jamiyat haqida fikr yuritganlar, inson qadr-qimmatini hurmat qilishni ta'kidlaganlar.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish ma'rifatparvarlikdan boshlanib, zamonaning yetuk, ongli, bilimli kishilari ma'naviyat va ma'rifat tarqatadilar. Natijada ma'rifatli kishilar ma'naviy qaramlik, qo'rquv va xadiksirashni bartaraf etib, beqiyos kuch-qudrat, saloxiyat egasi bo'ladilar. Ma'rifatli kishilar millat va Vatan ozodligi, Xalqning ma'rifiy o'yg'oqligi va ma'rifati uchun ko'rashadilar. Aynan shu nuqtai nazardan bizning Xalqimiz hamisha ma'rifatga intilib kelgan. Shu boisdan dunyoviy va diniy ilmlarni uyg'unlashtirib, jaxon sivilizatsiyasiga buyuk xissa qo'shib kelganlar. Ular Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Buxoriy, Moturudiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalardir. Shu nuqtai nazardan Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga egadir. Masalan: Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abduqodir Shakuriy, Ashurali Zoxiriy, Saidrasul Said Aziziy, Axmad Donish, Cho'lpon, Avloniy, Tavallo, Ayniy kabilar XIX asrning ikkinchi yarmida, mamlakatni milliy zulm va qoloklikdan yagona qo'tqarishning yo'li Xalqni ma'rifatga erishishtirish deb tushunib, shu yul orqali ozodlik uchun ko'rash olib bordilar. Ular dunyo mamkatlarini ko'rib kelib, mustamlaka zulmidan ilm-ma'rifat chirog'ini yoqish bilangina ozod bo'lish mumkinligini tushunib yetdilar. Shuning uchun ham yangi maktablarda nazariy va amaliy ishlarni qildilar. Bularni jadidlar deb atadilar. Demak, jadidchilik millatni ma'rifat va ma'naviyatga erishtirishga qaratilgan o'z zamonasidagi harakatdir.

Jadidchilik - yangilanish, yangi zamonaviy maktab-maorifni targ'ib qiluvchi g'oya bo'lib, u Turkistonni feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, millat va Vatanni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqib, milliy davlat barpo etish, Konstitutsiya, parlament va Prezident boshqaruvi asosida ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat maqomini berish, milliy armiya tuzish kabi maqsadlardan iborat edi. Demak, Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik harakati sifatida tarixga kirgan bo'lib, ular dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifat va taraqqiyotga erishish g'oyalari mavjud edi. Ular erkinlikka erishish yo'lida milliy ong va o'zlikni bilishni o'stirish zarur, deb ta'kidlaganlar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida ma'naviy inqiroz chuqurlashgan bo'lib, milliy madaniyatni ko'tarmay, umumsoniy qadriyatlardan

baxramand bo'lmay, ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'ymay, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo'lmas edi. Shu sababli jadidlar millatning ma'naviy kamoloti ma'rifatga erishuvida deb tushundilar. Buning uchun maktablarda dunyoviy bilimlar berish bilan isloh qilish zaruriyatini ta'kidlab, milliy uyg'onish va milliy ong shakllanishida muhim rol o'ynaganlar.

XULOSA

Demak, jadidlar umummilliy, ma'rifatni ko'tarish, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikka erishish va ularni amalga oshirish orqali [jaxon madaniyatini egallab](#), Mustaqillikka erishish kabi g'oyalari bilan milliy ma'naviyatimiz rivojiga munosib hissalarini qo'shgan. Mana shu borada, bugun hayotimizda tadbqiq qilinayotgan milliy istiqlol mafkurasi Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy, an'anaviy udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi va uning uzviy qismi sifatida milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Faqat Mustaqillikka erishuvimiz natijasida birinchi Prezident I. Karimov boshchiligida Turkiston Xalqlarini erki, ozodligi, milliy davlatchilik g'oyalari ma'rifat va ma'naviyat rivoji uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularga qatag'on qilinganlar xotirasiga atalib, Toshkentda katta yodgorlik majmui o'rnatildi, muzey tashkil etildi va bu ishlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Shunday qilib, umuman ilm egalari elda aziz bo'lib, hurmatga sazovor bo'ladilar. Shu tufayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yashaganlar va shu yuksak ma'rifat va madaniyati tufayli Turonzamin yer yuzida shuxrat qozongan. Bugunda yoshlarimizning har biri bunday fidoyi, vatanparvar, z'yoli siymolarni yaxshi bilishlari va unutmashliklari kerak. Zero, ular biz uchun haqiqiy axloqiy namunalardir. «Ma'rifatparvarlik, - deb ta'kidlaydi birinchi Prezident Prezident I. A. Karimov, - biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovotli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi». Bugunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi “O'zbekiston” T. 2011y
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. “Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir”.- T. : “O'zbekiston”, 2012 y
4. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
5. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr-press, 2006.
6. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy- axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboev O'zbekiston 2010 yil

BOLALAR SEREBRAL FALAJI KASALLIGI BILAN KASALLANGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI MAXSUS JISMONIY MASHQLAR ORQALI KORREKSITALASH

Djurabayeva Dilafruz Ergashbayevna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universtiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya; Miya falaji bo'lgan bolalarda noto'g'ri harakat shakllari barqaror bo'lib, tananing va oyoq-qo'llarining patologik pozitsiyalari va pozitsiyalarining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Mushak tonusi engil buzilgan ayrim bolalarda apraksiya (maqsadli amaliy harakatlarni bajara olmaslik) kuzatiladi. Bunday bolalar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini alohida qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar: kiyinish, yechish, tugmachalarni bog'lash, oyoq kiyimlarini bog'lash va hokazo. Shuni ta'kidlash kerakki, maqsadli amaliy harakatlar harakat tajribasi jarayonida shakllanadi; motor faolligi etarli bo'lmaganda, ikkilamchi apraksiya qayd etiladi.

Kalit so'zlar; Miya falaji, patologik pozitsiyalari, mushak tonusi, motor faolligi, spastik diplegiya.

Bosh miya strukturasi zararlanish sohasiga qarab bolalar nevrologiyasida DSPning 5 turi farqlanadi. Ular orasida eng keng tarqalgani spastik diplegiyadir. Bunday holat barcha DSPlarning 40-80 % ini tashkil etadi.

Bosh miyaning harakat markazlari zararlanadi, natijada oyoqlarda parezlar kelib chiqadi. Bosh miyaning faqatgina bir yarimsharida zararlanish ro'y beradigan bo'lsa, harakat buzilishi tananing qarama qarshi tomonida yuzaga chiqadi.

Bolalar serebral falajining ko'pgina holatlarida po'stloq osti markazlari buzilishi bilan bog'liq giperkinetik shakli uchraydi. Kasallik klinikasida ixtiyorsiz harakatlar – giperkinezlar namoyon bo'ladi va bunday holat bola hayajonlanganda, qo'rqqanda yaqqol yuzaga chiqadi.

Miyachaning zararlanishi natijasida atonik-astatik bolalar serebral falaji shakllanadi. Kasallik belgilari statika va koordinatsiya, mushaklar atoniyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

DSPning eng og'ir ko'rinishi ikki tomonlama gemiplegiyadir. Bunda bosh miya yarimsharlarining ikki tomonlama zararlanishi ro'y beradi. Bolalar mushaklari rigidligi hisobiga nafaqat yurish, tik oyoqda turish hatto mustaqil ravishda boshlarini ham tutishga qiynaladilar.

Bolalar serebral falaji turli xil ko'rinishda va turlicha og'irlik darajasida kechadi. Kasallikning klinik belgilari bosh miya strukturasi zararlangan sohasi va chuqurlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ba'zida bolalar serebral falaji belgilari bola dunyoga kelishi

bilan yuzaga chiqadi. Ko'pincha kasallik bir necha oy o'tgach pediater ko'rigida bolaning jismoniy rivojlanishdan ortda qolishi bilan aniqlanadi.

DSPning asosiy klinik belgisi bolalarning harakat doirasidagi yangi harakatlarni bajara olmasligi va yangi qobiliyatlarni o'zlashtira olmasligidir. Serebral falaj kuzatiladigan bola boshini uzoq muddat tutib tura olmaydi, o'yinchoqlar uni qiziqitirmaydi, boshini bura olmaydi, qo'l va oyoqlarini erkin harakatlantira olmaydi, o'yinchoqlarni ushlay olmaydi. Bolani qo'lga olib oyoqlarini yerga tirasa oyoq kafti bilan to'liq turmaydi, oyoqlarining uchigina yerga tegib turadi.

DSP bir tomonlama yoki ikki tomonlama parezlar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Agar gapirish markazi zararlangan bo'lsa bolada nutq buzilishi belgilari (dizartriya) kuzatiladi. Yutqin va hiqildoq faoliyatini boshqaradigan markazlar zararlanadigan bo'lsa yutinish bilan bog'liq muammolar (disfagiya) yuzaga chiqadi.

Bolalar serebral falajida harakat doirasida kamchiliklar kuzatilsa ham bolalar ijtimoiy hayotga moslashib ketishlarining imkoni bor. Bunda ularning ota-onasi va yaqinlarining roli katta. Bolalarda ijtimoiy adaptatsiyani shakllantirishda reabilitolog, psixolog va pedagoglar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kasallikdan aziyat chekadigan bolalar maxsus bog'chalar, maktablarda hayotga bo'lgan moslashuvchanliklarini oshirib boradilar.

Bolalar serebral falaji oqibati kasallikning og'irlik darajasi, shakli va o'z vaqtida boshlangan davo muolajalariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Ba'zi holatlarda DSP natijasida nogironlik rivojlanishi ham mumkin. Ammo, to'g'ri olib borilgan muolaja natijasida bolalardagi deformatsiyalar, mushaklardagi muammolar va harakat doirasidagi kamchiliklar qisman bo'lsada kamayadi va bolalar o'z hayotida o'zlarini o'zlari mustaqil ravishda boshqara oladilari.

DSP profilaktikasi homiladorlik vaqti ayollardagi turli xil patologiyalarni oldini olish, ayniqsa homila gipoksiyasiga olib keluvchi kasalliklarni davolashdan iborat bo'ladi.

Bunday bolalarning jismoniy faolligini rivojlantirish uchun jismoniy reabilitatsiyadan foydalanish ayniqsa qulaydir. Jismoniy reabilitatsiya tizimli ravishda amalga oshirilishi, mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishi va o'qituvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo'llanilishi kerak. Miya falajli odamlarni reabilitatsiya qilish usuli sifatida terapevtik mashqlar kompleks terapiyada etakchi o'rinlardan birini egallaydi va tayanch-harakat tizimining buzilgan funksiyasini tezroq tiklashga yordam beradigan tabiiy biologik usuldir. Patologik funksiyalarni tuzatishga qaratilgan juda ko'p usullar mavjud. Shu bilan birga, patologiyaning og'irligi shunchalik aniqki, ijtimoiy oqibatlar shunchalik muhimki, mashqlar terapiyasining yangi innovatsion usullarini ishlab chiqish muhim, maqsadga muvofiq va dolzarbdir.

Adabiyotlar

1. Shipitsina L. M., Mamaychuk I. I. Infantile cerebral paralysis. St. Petersburg, 2005. 272 p.
2. Potapchuk A. A. Adaptive physical education of children with abnormalities of the locomotor system: Textbook. St. Petersburg, 2003. 228 p.
3. Semenova K. A. Rehabilitation treatment of the sick with residual infantile cerebral paralysis. Moscow, Antidor Publ., 2007. 384 p.
4. Ivanova V. S. Study of the effectiveness of preventive work with the family of a disabled child with cerebral palsy to the type of relationship and family communications features of parents to the disease of the child with cerebral palsy. Tomsk State Pedagogical University Bulletin, 2013, vol. 6 (134), pp.111-115

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	O'ZBEKISTONDA YANGILANISH JARAYONLARINING O'ZIGA XOSLIGI	3
2	O'ZBEKISTONGA RAQAMLI BANKLARNING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	7
3	LINGUISTIC FEATURES OF ADDRESSING IN ENGLISH AND UZBEK	14
4	МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИНИНГ БО'ЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРИДА КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ	19
5	ТУПРОҚНИ КАРТОШКА ЭКИШГА ТАЙЁРЛАЙДИГАН МАШИНА ПУШТА ШАКЛЛАНТИРГИЧ КОРПУСИНИНГ ПАРАМЕТРЛАРИНИ НАЗАРИЙ АСОСЛАШ	24
6	БИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ИРИДОИДОВ	31
7	FIZIKA FANINI O'QITISHDA ATAMALAR BILAN ISHLASH	36
8	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ AUDITINI O'TKAZISH TARTIBI	38
9	XALQ TAFAKKURI DURDONASI	46
10	ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI ASAR TAHLILIGA O'RGATISH USULLARI	50
11	CHO'QQIDA QOLGAN HAQIQATLAR	53
12	МАКТАВДА YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARINI O'QITISH	56
13	ЯСМИҚ НАВЛАРИ ПОЯ БАЛАНДЛИГИ ВА ЎСИШ СУРЪАТИГА ЭКИШ МУДДАТИ ВА МЕЪЁРИНИНГ ТАЪСИРИ	59
14	ЯСМИҚ НАВЛАРИ ДОН СИФАТИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	65
15	QUDUQ DEVORI TOG' JINSLARINING ICHKI KONVEKSIYA HISOBIGA OLINGANDAGI STATSIONAR TERMOELASTIK KUCHLANGANLIK HOLATI	70
16	SHOYIM BO'TAYEV QISSALARIDA OBRAZLAR OLAMI VA RUHIYAT TALQINI	73
17	ONE MEMBER AND ELLIPTICAL SENTENCES	78
18	ЭФФЕКТИВНЫЕ ЦЛАКОКАРБОНАТНЫЕ ПОРТЛАНДЦЕМЕНТЕ	82
19	LAPAROSCOPY IN GYNECOLOGY	87
20	OCULAR ISCHEMIC SYNDROME	91
21	BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TALAB TUSHUNCHASIGA TURLI XIL ILMIY YONDASHUVLAR	95
22	ТАКРОРИЙ ВА АРАЛАШ СИДЕРАТ ЭКИНЛАРНИНГ ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	98
23	ТЕХНОЛОГИЯ ГЕНЕРАТИВНОГО РАЗМНОЖЕНИЯ КЛЕНА ПОЛЕВОГО (ACER CAMPESTRE) В ТАШКЕНТСКОМ ОАЗИСЕ	103
24	FIQH SOHASIDA FARG'ONALIK ALLOMALAR	108

25	QUYOSH BATAREYALARI VA UNING ELEMENTLARI HAQIDA	114
26	ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ	117
27	БУХОРО ВОХАСИ СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРИНГ ГУМУСЛИ ХОЛАТИ	124
28	ТУПРОҚЛАРДА МИКРООРГАНИЗМЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИГА ТУПРОҚ-ЭКОЛОГИК ОМИЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	131
29	QARAQALPAQSTAN SHARAYATINDA ĞAWASHANI NO-TILL DEN PAYDALANĜAN HALDA ÓSIRIW	138
30	ЎСМИРЛАР ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШ ТАЪСИРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ	142
31	ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИ	150
32	COVID-19 BILAN O'G'RIGAN TISHSIZ BEMORLAR OG'IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR	152
33	ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ОБУЧЕНИЯ ВЗРОСЛЫХ	155
34	ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН АЁЛ АЙБЛАНУВЧИЛАРГА ҚИДИРУВ ЭЪЛОН ҚИЛИШ ТАРТИБИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА	159
35	ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРНИНГ КАФОЛАТЛАРИ: ЕВРОПА ИТТИФОҚИ ВА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА	162
36	ТУРКИЯ ЖИНОЯТ ПРОЦЕССУАЛ КОДЕКСИДА АЁЛЛАР ҲУҚУҚИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ	169
37	ЎИНОЯТ ИШЛАРИ ВО'ҮИЧА ЕКСПЕРТИЗА ТЕКШИРУВИ UCHUN NAMUNALAR OLISHNING NAZARIY JIHATLARI	172
38	ЭКСПЕРТИЗА ТЕКШИРУВИ УЧУН НАМУНАЛАР ОЛИШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ТАРТИБИ	180
39	ЭКСПЕРТИЗА ТЕКШИРУВИ УЧУН НАМУНАЛАР ОЛИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ЖИҲАТЛАРИ	185
40	TARIXIY MADANIY MEROSIMIZNI TARG'IB QILISHDA JADIDLAR FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	189
41	BOLALAR SEREBRAL FALAJI KASALLIGI BILAN KASALLANGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNI MAXSUS JISMONIY MASHQLAR ORQALI KORREKSITALASH	194



**JOURNAL OF
NEW CENTRY
INNOVATIONS**

IN ALL AREAS

